N. Rasulov, D. Usmonova, Y. Hasanova

O‘zbek tili
5-sinf

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari
uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

TASDIQLANGAN
PLAGIATGA QARSHI
TASDIQLANGAN

novda
edutainment

MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI

Toshkent – 2024

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 1 22/08/24 14:28

UO‘K: 811.512.133:373.5.016(075.3)
BBK 81.2O‘zb ya72
R 25

Rasulov, N.M. O‘zbek tili 5-sinf [Matn] : darslik / N.M. Rasulov, D.I. Usmonova, Y.R. Hasanova. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 164 b.

Mas’ul muharrir:

G. A. Asilova – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professori, pedagogika fanlari doktori.

Taqrizchilar:

S. X. Muhamedova – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU professori, filologiya fanlari doktori.

N. Sh. Rahimova – Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

F. A. Rahmatova – Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 190-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

Shartli belgilar



Og‘zaki bajaring



Yozma bajaring



O‘qing



Savollarga javob bering



Tinglang



Tomosha qiling



Diqqat qiling



Yodda tuting



Uyga vazifa

ISBN 978-9943-07-974-8

© “Novda Edutainment”, 2024

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 2 22/08/24 14:28

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so‘zi *Mutal Burhonov musiqasi*

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!



I bo‘lim

Mo‘jizalar yurti



“Yangi O‘zbekiston” bog‘i – O‘zbekistonning eng katta va eng go‘zal bog‘laridan biri. U mamlakatimiz istiqlolga erishganining 30 yilligi munosabati bilan barpo etilgan. Bog‘ning markazida Mustaqillik monumenti qad rostlagan. Bu majmua O‘zbekistonning 3 ming yillik tarixini, ajdodlarimizning buyuk ishlarini, O‘zbekistonning yangi qiyofasini o‘zida mujassam etgan.

1. O‘qing.

monument
Humo qushi
ozodlik

Umida: Akajon, “Yangi O‘zbekiston” bog‘i juda chiroyli va katta ekan-a?

Jasur: Ha, bu yer 104 gektar joyni egallagan.

Umida: Siz buni qayerdan bilasiz?

Jasur: Ustozimiz aytganlar.

Umida: Ustozingiz Humo qushi haqida ham so‘zlab berganlarmi?

Jasur: Ha, Humo qushi – ozodlik ramzi. U Mustaqillik monumentining yuqori qismiga o‘rnatilgan. Monumentning balandligi 60 metr.

Umida: Akajon, meni o‘sha yerga olib boring.

Jasur: Albatta, boramiz. Sen u yerda ko‘p ma’lumotlarni bilib olasan.

Umida: Qani, ketdik!

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 4 22/08/24 14:28



2. Savollarga javob bering.

1. “Yangi O‘zbekiston” bog‘i qachon barpo etilgan?
2. Bog‘ markazida qanday monument bor?
3. Humo qushi nimaning ramzi?
4. Siz “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga borgan bo‘lsangiz, u yerda nimalarni tomosha qilgansiz?

3. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Mustaqillik monumenti “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida qad rostlagan.	*	*
2	“Yangi O‘zbekiston” bog‘i Namanganda joylashgan.	*	*
3	“Yangi O‘zbekiston” bog‘ining ko‘rinishi do‘ppini eslatadi.	*	*
4	Mustaqillik monumentining balandligi 20 qavatli bino bilan baravar.	*	*
5	Mustaqillik monumentida laylak tasvirlangan.	*	*

Davlat ramzlarini (bayroq va gerb) chizing. Ular haqida ma’lumot yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 5 22/08/24 14:28

Yosh kitobxon

Diqqat qiling! Kelasi zamon maqsad fe'li: -moqchi

aytmoq+moqchi+…		Bo'lishsiz	So'roq	Bo'lishsiz-so'roq
Men	aytmoqchiman	aytmoqchi emasman	aytmoqchimanmi?	aytmoqchi emasmanmi?
Sen	aytmoqchisan	aytmoqchi emassan	aytmoqchimisan?	aytmoqchi emasmisan?
U	aytmoqchi	aytmoqchi emas	aytmoqchimi?	aytmoqchi emasmi?
Biz	aytmoqchimiz	aytmoqchi emasmiz	aytmoqchimizmi?	aytmoqchi emasmizmi?
Siz	aytmoqchisiz	aytmoqchi emassiz	aytmoqchimisiz?	aytmoqchi emasmisiz?
Ular	aytmoqchilar	aytmoqchi emaslar	aytmoqchilarmi?	aytmoqchi emaslarmi?

1. Gaplarni namunadagidek davom ettiring.

Namuna: *Sen qaysi kasbni (tanlamoq) – Sen qaysi kasbni tanlamoqchisan?*

1. Sen qaysi kasbni (tanlamoq)?
2. Biz maktab hovlisidagi xazonlarni (to'plamoq).
3. Akmal Azizani Toshkent politexnika muzeyiga hech qachon (olib bormaslik).
4. Men xalqaro festivallarda (qatnashmoq).
5. O'quvchilar "Yosh kitobxon" tanlovida (ishtirok etmaslik)?
6. Siz O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini qachon (o'qimoq)?

2. O'qing.

Akmal: Aziza, qaysi kitobni o'qiyapsan?

Aziza: Anvar Obidjonning "Oltin yurakli avtobola" asarini o'qiyapman.

Akmal: Bu asar darslikda bor ekanmi?

Aziza: Yo'q. Men "Yosh kitobxon" tanlovida qatnashish uchun o'qiyapman.

Akmal: Men bunaqa tanlov haqida eshitmagan ekanman.

Aziza: Ustozimiz bizni undan xabardor qildi.

Akmal: Juda qiziq ekan. Menga ham tanlov haqida aytib ber.

Aziza: Kel, yaxshisi, o'zimiz internetdan o'qib olamiz.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 6 22/08/24 14:28

yosh kitobxon

Respublikamizda har yili “Yosh kitobxon” tanlovi o‘tkazilmoqda. U kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish uchun tashkil qilingan. Tanlovda 10 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan kitobxonlar qatnasha oladilar. Ishtirokchilar O‘zbekiston fuqarosi bo‘lishlari shart. Ularning tili, dini, millati muhim emas. Ishtirokchilar uch toifaga bo‘linadilar: 10 – 14 yoshlilar, 15 – 19 yoshlilar va 20 – 30 yoshlilar.

Tanlov dastlab tuman, shahar va viloyat bosqichlarida o‘tkaziladi. Har bir viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan bittadan g‘olib tanlab olinadi. Ular musobaqaning respublika miqyosidagi final bosqichida bellashadilar. Birinchi o‘rin sohibi Prezident sovg‘asi sifatida yengil avtomobilga ega bo‘ladi.

Akmal: Men ham tanlovga ariza topshirmoqchiman.
Aziza: Avtomobil yutib olmoqchimisan?
Akmal: Albatta, men ota-onamni xursand qilmoqchiman.

ommalashtirmoq
fuqaro
toifa
bosqich
bellashmoq

3. So‘zlab bering.

Siz “Yosh kitobxon” tanlovi haqida nimalarni bilasiz?

4. Berilgan ma’lumotlar asosida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *2018-yilda samarqandlik Mahliyo O‘roqova “Yosh kitobxon” tanlovida g‘olib bo‘lgan.*



2018-yil
Mahliyo O‘roqova
Samarqand



2019-yil
Otabek Eshpo‘latov
Toshkent v.



2021-yil
Muhammadfozil Ismoilov
Farg‘ona



2022-yil
Muxlisa Nasimova
Buxoro



2023-yil
Aziza Ibrohimova
Navoiy

Qatnashmoq, g‘olib bo‘lmoq, yutib olmoq, ariza topshirmoq, ega bo‘lmoq birliklari ishtirokida gaplar tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 7 22/08/24 14:28

Katta maqsadlar

1. O‘qing.

maqsad
orzu
uchmoq
amalga oshmoq
mazmun
ega bo‘lmoq

Akmal: Aziza, sening biror maqsading bormi?

Aziza: Bor, albatta.

Akmal: Maqsading haqida menga aytib bera olasanmi?

Aziza: Ha, men Oyga uchmoqchiman.

Akmal: Qachon uchmoqchisan?

Aziza: Katta bo‘lganimda.

Akmal: Bu maqsad emas, orzu.

Aziza: Farqi yo‘q, baribir qachondir Oyga uchmoqchiman.

Akmal: Maqsad bilan orzuning farqi bor. Orzu amalga oshmasligi ham mumkin.

Aziza: Shunaqami? Maqsadning orzudan yana qanday farqi bor?

Akmal: Maqsad aniq mazmunga, joyga va vaqtga ega bo‘ladi. Masalan, men 2050-yilda Toshkentdan Oyga uchmoqchiman. Bu – aniq maqsad.

Aziza: Unda 2050-yilda Toshkentdan Oyga uchmoqchiman. Mana mening maqsadim.

Akmal: Barakalla!



Bolalar, Azizaning maqsadini bilib oldingiz. Sizning qanday maqsadlaringiz bor? Siz orzu va maqsadni farqlay olasizmi?

2. O‘qing. Bilib oling.

Keling, siz bilan birga Oy haqidagi ma’lumotlarni o‘qiymiz.

1. Oy to‘qnashuv natijasida vujudga kelgan.
2. Yerdan Oyning faqat bir tomoni ko‘rinadi.
3. Oyning bizga ko‘rinmaydigan tomonida ham kraterlar bor.
4. Oyda havo yo‘q.
5. Oy dumaloq emas. U Yerning tortishish kuchi sababli ellipsoid shaklga kelgan.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 8 22/08/24 14:28

3. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Oy muzlash natijasida vujudga kelgan.	*	*
2	Oyda kraterlar mavjud.	*	*
3	Oyda suv va havo bor.	*	*
4	Oyning shakli ellipsoid.	*	*
5	Yerdan Oyning barcha tomonlarini ko‘rish mumkin.	*	*

4. Latifalarni o‘qing. Bolalar nega shunday savollar berishdi? O‘ylab ko‘ring.



– Dada, o‘qituvchimiz aytdilarki, biz Yerning tortishish kuchi sababli Yer ustida bemalol yurar ekanmiz. Shu to‘g‘rimi?

– To‘g‘ri, o‘g‘lim.

– Qiziq, bu qonun kashf etilmasidan avval odamlar qanday yurishgan?

O‘qituvchi:

– Bolalar, bugun kechqurun Oy tutiladi. Bu juda noyob hodisa. Hammangiz tomosha qiling. Esingizda bo‘lsin, 20:15 da boshlanadi.

– Qaysi telekanalda, ustoz? – baravariga so‘rashdi o‘quvchilar.

5. O‘ylang va toping. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Robert 2029-yilda o‘zbek tilini o‘rganmoqchi.*

ochmoq? | 2029-yil | 2038-yil | 2035-yil | Angela | 2030-yil

O‘zbekiston | bo‘lmoq | Men | Nukus | Robert | Aynura

o‘rganmoq | kelmoq | Germaniya | universitet | Siz | 2040-yil

o‘zbek tili | samolyot | Samarqand | yasamoq | o‘qituvchi

O‘z maqsadlaringiz haqida 5–6 ta gapdan iborat matn tuzib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 9 22/08/24 14:28

Hukmdor bolalar

1. O‘qing.



Kamola: Bobojon, nega hammamiz Nodirbekning aytganini so‘zsiz bajaramiz?

Bobosi: Chunki ukang oilamizning “podshoh”i.

Otasi: Qizim, bolalarning hammasi yoshligida podshoh bo‘ladi.

Kamola: Men ham podshoh bo‘lganmanmi?

Otasi: Sen malika bo‘lgansan.

Kamola: Otajon, bolalar rostdan ham podshoh bo‘ladimi?

Otasi: Albatta, tarixda bolalar rostdan ham podshoh bo‘lishgan. Ular davlatni boshqarganlar.

Oybek: Men bular haqida eshitganman. Keyinroq senga aytib beraman.

2. Savollarga javob bering.

1. Bolalar oilada nega “podshoh” bo‘ladilar?
2. Siz oilada nechanchi farzandsiz?
3. Oilangizda sizdan ham kichkina bolalar bormi? Ularni ota-onangiz nima deb erkalatadilar?

3. Tinglang.

1





so‘zsiz
bajarmoq
podshoh
hikoya
sulola
hudud
hukmdor

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 10 22/08/24 14:28

4. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Xudoyorxon temuriy shahzodalardan bo‘lgan.	*	*
2	Bola-podshohlar davlatni mustaqil boshqarmaganlar.	*	*
3	Zahiriddin Muhammad Bobur yosh payti otasi vafot etgan.	*	*
4	Mirzo Ulug‘bek 13 yoshida podshoh bo‘lgan.	*	*
5	Mirzo Ulug‘bek bobosidan keyin Samarqandni markazga aylantirgan.	*	*

Diqqat qiling! Sinonimlar

podshoh – hukmdor – shoh

5. Birinchi ustundagi so‘zlarning sinonimini ikkinchi ustundan toping.

Namuna: *Vatan – yurt*

do‘st	navbat	ofarin	yurt
arang	ko‘p	o‘rtoq	gal
orzu	ustoz	havas	zo‘rg‘a
vatan	barakalla	ancha	muallim

Zahiriddin Muhammad Boburning quyidagi ruboiysini yod oling.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidur.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 11 22/08/24 14:28

Faqat g‘alaba

1. Rasmlarga qarang. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying.



Denis Istomin



Ruslan Nurudinov



Bahodir Jalolov



Oksana Chusovitina



Nodirbek Abdusattorov

a) tennis
b) tezkor shaxmat
d) og‘ir atletikachi
e) boks
f) sport gimnastikasi

1. Denis Istomin 2018-yilgi Osiyo o‘yinlarida ... bo‘yicha g‘olib bo‘lgan.
2. 2016-yilgi Rio olimpiadasida ... ... Ruslan Nurudinov Olimpiya rekordini yangilagan.
3. Bahodir Jalolov – ... bo‘yicha ikki karra jahon chempioni.
4. Oksana Chusovitina – ... bo‘yicha Olimpiya o‘yinlari chempioni.
5. Nodirbek Abdusattorov – ... ... bo‘yicha jahon chempioni.

2. O‘qing. Raqamlar ishtirok etgan jumlalarni namunadagidek yozing.

Namuna:

*Dastlab Saudiya Arabistoni jamoasini **4:1** hisobida mag‘lub qiladi.*
*Dastlab Saudiya Arabistoni jamoasini **to‘rt-u bir** hisobida mag‘lub qiladi.*



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 12 22/08/24 14:28

1994-yilgi Osiyo o‘yinlari turnirida O‘zbekiston futbolchilari muvaffaqiyatli ishtirok etganlar. Turnir “1994-yil mo‘jizasi” sifatida esda qolgan. Turnirning guruh bosqichi o‘yinlarida dastlab 17 nafar iqtidorli futbolchi qatnashgan.

O‘zbekiston turnirni g‘alaba bilan boshlagan. Dastlab Saudiya Arabistonini 4:1 hisobida mag‘lub qilgan. So‘ngra Malayziya ustidan 5:0, Gonkong ustidan 1:0, Tailand ustidan 5:4 hisobida g‘olib chiqqan. Chorak finalda Turkmanistondan 3:0 hisobida ustun kelgan. Yarim finalda Janubiy Koreya bilan to‘qnashgan. O‘zbekiston Janubiy Koreya ustidan 1:0 hisobida g‘alaba qozongan. Shunday qilib, O‘zbekiston finalga yo‘l olgan.

turnir
muvaffaqiyat
terma jamoa
g‘alaba qozonmoq
mag‘lub etmoq
atigi
to‘qnashmoq
muxlis
chorak final

Finalda futbolchilarimiz xitoyliklarni 4:2 hisobida mag‘lub etganlar. Natijada O‘zbekiston terma jamoasi Osiyo o‘yinlari g‘olibligini qo‘lga kiritgan.

Qizig‘i shundaki, bu turnirga o‘zbekistonlik futbolchilar atigi bitta forma bilan borgan edilar.

3. Suhbatlashing.

Siz matnga qanday sarlavha bergan bo‘lar edingiz? Nima uchun?

- O‘zbekiston iftixorlari
- Gol! Gol! Gol!
- 1994-yil mo‘jizasi
- …

4. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	1994-yilgi Osiyo o‘yinlari Yaponiyada o‘tkazilgan.	*	*
2	O‘zbekiston terma jamoasi barcha o‘yinlarda g‘olib bo‘lgan.	*	*
3	Har bir o‘yinda o‘zbekistonlik futbolchilar yangi formada o‘ynaganlar.	*	*
4	O‘zbek futbolchilari turnirda eng ko‘p gol urganlar.	*	*
5	O‘zbekiston terma jamoasi futbolchilari finalda Janubiy Koreyaga qarshi maydonga tushadilar.	*	*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 13 22/08/24 14:28

Diqqat qiling! O‘tgan zamon fe’li: -gan (-kan, -qan)

Bor~~moq~~+gan…		Bo‘lishsiz	So‘roq	Bo‘lishsiz-so‘roq
Men	borganman	bormaganman	borganmanmi?	bormaganmanmi?
Sen	borgansan	bormagansan	borganmisan?	bormaganmisan?
U	borgan	bormagan	borganmi?	bormaganmi?
Biz	borganmiz	bormaganmiz	borganmizmi?	bormaganmizmi?
Siz	borgansiz	bormagansiz	borganmisiz?	bormaganmisiz?
Ular	borganlar	bormaganlar	borganlarmi?	bormaganlarmi?

5. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying. Namunadagidek gaplar tuzing.


Namuna: *U jahon chempionatida hech qachon **qatnashmagan.***

1. U jahon chempionatida hech qachon ... .
2. Sen “Paxtakor” tarkibida futbol ... ?
3. Biz finalda Xitoy terma jamoasini ... .
4. Oksana Chusovitina o‘z g‘alabalari bilan ... .
5. Men shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston kubogida ... .
6. Futbolchilarimiz finalda kuchli raqiblar bilan ... .

a) mag‘lub etmoq
b) to‘qnashmoq
d) esda qolmoq
e) g‘alaba qozonmoq
f) qatnashmoq
g) o‘ynamoq

Chiqmoq, to‘kmoq, yoqmoq, tikmoq fe’llarini o‘tgan zamonning -gan (-kan; -qan) shakllari orqali tuslab, gaplar tuzing.

“Faqat g‘alaba” filmini tomosha qilishni tavsiya etamiz.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 14 22/08/24 14:28

Toshkent – televideniye vatani

1. Tinglang.

2



2. Nuqtalar o‘rniga mos jumlalarni qo‘ying.

Boris Grabovskiy jamoasi bilan

1928-yil 4-avgust kuni

“Telefot”

“Paxtakor“ metro bekati atrofida

1. ... televizorning ilk namunasi.
2. ... elektron televizorni ixtiro qildi.
3. ... “Telefot” apparati sinovdan o‘tkazildi.
4. ... qurilma Navoiy ko‘chasida harakatlanayotgan tramvay tasvirini ko‘rsatgan.

3. O‘qing. Bilib oling.

Bilasizmi, rangli televizor rangsiz televizorga nisbatan ko‘zga kamroq ziyon yetkazadi.





O‘tgan asrning 70-yillarigacha televideniyeda ko‘rsatuvlar avvaldan yozib olinmagan. Shuning uchun har bir ko‘rsatuv to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga uzatilgan.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 15 22/08/24 14:28

Diqqat qiling! O‘tgan zamon fe’li: -gan+edi

Bor~~moq~~+gan+edi+…		Bo‘lishsiz	So‘roq	Bo‘lishsiz-so‘roq
Men	borgan edim	bormagan edim	borgan edimmi?	bormagan edimmi?
Sen	borgan eding	bormagan eding	borgan edingmi?	bormagan edingmi?
U	borgan edi	bormagan edi	borgan edimi?	bormagan edimi?
Biz	borgan edik	bormagan edik	borgan edikmi?	bormagan edikmi?
Siz	borgan edingiz	bormagan edingiz	borgan edingizmi?	bormagan edingizmi?
Ular	borgan edilar	bormagan edilar	borgan edilarmi?	bormagan edilarmi?

4. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Men “Qirol sher” multfilmini ko‘rgan edim.*

ixtiro qilmoq
rangli
tomosha qilmoq
tasvir

1. Men “Qirol sher” multfilmini (ko‘rmoq).
2. Dadam singlimning tug‘ilgan kuniga qo‘g‘irchoq (olib bermoq).
3. U bayramda “Lazgi” raqsini (ijro etmoq).
4. Sinfdoshlarimiz “Zakovat” ko‘rsatuvida hech qachon (ishtirok etmoq).
5. Sen menga chet ellik do‘stlaring haqida (aytmoq).

5. Yashirin so‘zlarni toping.

A	N	U	T	O	SH	K	E	N	T
T	E	L	E	F	O	T	E	G	O
D	U	R	F	A	J	O	N	L	I
R	A	NG	L	I	M	I	F	Q	E
G	R	A	B	O	V	S	K	I	Y

Tomosha qilmoq, ixtiro qilmoq, ko‘rmoq fe’llari ishtirokida gaplar tuzing va yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 16 22/08/24 14:28

Uch karra rekord sohibi

1. O‘qing.

boshqotirma
musobaqa
karra
sodda
murakkab
mantiqiy fikrlash
shug‘ullanmoq

Kubik-rubik boshqotirma o‘yini 1974-yilda vengriyalik professor Erno Rubik tomonidan ixtiro qilingan. Bu o‘yinga kattalar ham, yoshlar ham juda qiziqadilar.

Kubik-rubik musobaqasi butun dunyoda o‘tkaziladi. Bu musobaqaning ikki karra O‘zbekiston va bir karra Qozog‘iston rekordchisi Jasurbek Beknazarovdir.

U kubik yig‘ishga yoshligidan qiziqqan. “Kubikni terish texnikasi sodda, ammo juda ko‘p mashq qilish, formulalarni yodlash kerak. Shunda, albatta, natijaga erishiladi”, – deydi Jasur.

U murakkab kubikni ikki daqiqada terib rekord o‘rnatgan. Hozir esa bir daqiqada tera oladi.

Jasur Rossiyada bo‘lib o‘tgan mnemonika (eslab qolish) musobaqasida ham g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

Bu sport turi va intellektual mashqdir. Kubik-rubik bilan shug‘ullangan insonning xotirasi kuchayadi. U barmoqlar motorikasi va mantiqiy fikrlash uchun juda foydali.



2. Savollarga javob bering.

1. Kubik-rubik boshqotirmasi qachon ixtiro qilingan?
2. Erno Rubik kim?
3. Siz qaysi rekordchilarni taniysiz?
4. Jasurbek Beknazarov bilan uchrashishni xohlaysizmi?
5. Yana qanday boshqotirmalarni bilasiz?
6. Kubik-rubikning qanday foydasi bor?

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 17 22/08/24 14:28

Diqqat qiling! O‘tgan zamon fe’li: -di


erish~~moq~~+di+…		Bo‘lishsiz	So‘roq	Bo‘lishsiz-so‘roq
Men	erishdim	erishmadim	erishdimmi?	erishmadimmi?
Sen	erishding	erishmading	erishdingmi?	erishmadingmi?
U	erishdi	erishmadi	erishdimi?	erishmadimi?
Biz	erishdik	erishmadik	erishdikmi?	erishmadikmi?
Siz	erishdingiz	erishmadingiz	erishdingizmi?	erishmadingizmi?
Ular	erishdilar	erishmadilar	erishdilarmi?	erishmadilarmi?

3. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Kubik-rubik Erno Rubik tomonidan ixtiro qilindi.*

1. Kubik-rubik Erno Rubik tomonidan (ixtiro qilinmoq).
2. Jasurbek kubik-rubik yig‘ishni yoshligidan (boshlamoq).
3. U murakkab kubikni terib rekord (o‘rnatmoq).
4. Jasurbek mnemonika musobaqasida g‘oliblikni (qo‘lga kiritmoq).
5. Men kubikni bir daqiqada (yig‘moq).

4. Kubik-rubik va shaxmatning umumiy hamda farqli jihatlarini ayting.



O‘tgan zamon fe’li qatnashgan 5 ta gap tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 18 22/08/24 14:28

O‘zbekistonlik alpinist



1. Tinglang.

3

2. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sergey Denisenkoni … faxriy unvoni bilan mukofotlagan.	alpinist
Sergey Denisenkoning onasi … bo‘lgan.	o‘qituvchi
Sergeyning eng katta orzusi … bo‘lish edi.	2021-yil 11-aprelda
Sergey … cho‘qqiga ko‘tarilishni boshlagan.	2021-yil 1-iyunda
Sergeyning otasi … bo‘lgan.	“O‘zbekiston iftixori”
… Everestning yuqori cho‘qqisini zabt etgan.	alpinist

3. O‘qing. Bilib oling.

Everest (Jomolungma) dunyodagi eng baland cho‘qqi hisoblanadi. U Himolay tog‘ining Xitoy-Nepal chegarasida joylashgan. Everest dengiz sathidan 8848 metr baland. 2019-yilgacha cho‘qqiga chiqishga 4000 kishi urinib ko‘rgan. Ulardan 600 dan ortig‘i bu ishni uddalagan.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 19 22/08/24 14:28

4. **Berilgan sonlarni raqamlar bilan ifodalang.**

To‘rt ming yetti	4007	?	Uch yuz oltmish besh
?	Yigirma sakkiz	Olti yuz ellik bir	?
To‘qqiz ming besh yuz ikki	?		

5. **Kalit so‘zlar asosida namunadagidek gaplar tuzing.**

Namuna: *Sergey Denisenko o‘z yutug‘ini mamlakatimiz mustaqilligining **o‘ttiz** yilligiga bag‘ishlagan.*

30 yillik	4000 kishi
600 kishi	8848 metr

cho‘qqi
tog‘
zabt etmoq
puxta
uddalamoq
balandlik
matonat

Dilshod Rajabning “Ona yurt” she’rini yod oling.

Ona yurt

Osmonida oftob, oy,
Boshiga qo‘ngan humoy.
Dunyoda eng go‘zal joy,
O‘zbekiston – ona yurt.

Tinchliksevar eli bor,
Elining xush fe’li bor.
Asaldayin tili bor,
O‘zbekiston – ona yurt.

Hozir yoshmiz – g‘o‘ramiz,
O‘sib, kuchga to‘lamiz.
Senga qanot bo‘lamiz,
O‘zbekiston – ona yurt.


56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 20 22/08/24 14:28

O‘zbekistonlik

1. O‘qing.



O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining so‘zlari muallifini bilasizmi? Madhiya matni atoqli shoirimiz Abdulla Oripov qalamiga mansub. Abdulla Oripov Qashqadaryo viloyatining Koson tumanida tug‘ilgan. Shoir o‘rta maktabni oltin medal bilan tamomlagan. Uning dastlabki she’rlari o‘quvchilik paytlarida e’lon qilingan. Abdulla Oripovning ilk kitobi – “Mitti yulduz”. Shoirning “O‘zbekiston” qasidasi juda mashhur.



Bolalarning sevimli yozuvchilaridan biri Xudoyberdi To‘xtaboyevdir. U Farg‘ona viloyatida tug‘ilgan. Bo‘lajak yozuvchi bobosi Erkaboy va buvisi Robiyabibilar bilan yashagan. Xudoyberdi To‘xtaboyev universitetni tamomlagach, maktabda o‘qituvchi bo‘lib ham ishlagan. Bolalarni juda yaxshi ko‘rgani uchun ularga atab ko‘plab asarlar yozgan.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning eng mashhur asari “Sariq devni minib” romanidir. Bu asar asosida kinofilm ham suratga olingan. Unda Hoshimjon sehrli qalpoqcha bilan qiziqarli sarguzashtlarni boshdan o‘tkazadi.

2. Savollarga javob bering.

1. Ijodkorlarimiz qayerlik?
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining so‘zlari muallifi kim?
3. Xudoyberdi To‘xtaboyev bolaligida kimlar bilan yashagan?
4. “Mitti yulduz” qaysi ijodkorning ilk kitobi?
5. Xudoyberdi To‘xtaboyevning qaysi asari juda mashhur?

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 21 22/08/24 14:28

Diqqat qiling! O‘tgan zamon fe’li: -ar (-r)+edi, -mas+edi

Bil~~moq~~+r/ar edi+…		Bo‘lishsiz	So‘roq	Bo‘lishsiz-so‘roq
Men	bilar edim	bilmas edim	bilar edimmi?	bilmas edimmi?
Sen	bilar eding	bilmas eding	bilar edingmi?	bilmas edingmi?
U	bilar edi	bilmas edi	bilar edimi?	bilmas edimi?
Biz	bilar edik	bilmas edik	bilar edikmi?	bilmas edikmi?
Siz	bilar edingiz	bilmas edingiz	bilar edingizmi?	bilmas edingizmi?
Ular	bilar edilar	bilmas edilar	bilar edilarmi?	bilmas edilarmi?

3. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni namunadagidek qo‘ying.

Namuna: *Xudoyberdi To‘xtaboyev bolalarni juda yaxshi ko‘rar edi.*

1. Xudoyberdi To‘xtaboyev bolalarni juda ... .
2. Abdulla Oripov yoshligidan she’rlar ... .
3. Sen she’rlarni tez ... .
4. Yosh Xudoyberdi bobosi Erkaboy va buvisi Robiyabibilar bilan ... ?
5. Hoshimjon sehrli qalpoqcha bilan ... ?
6. Men “Sariq devni minib” asarini qayta-qayta ... .

yozmoq **suhbatlashmaslik** ~~**yaxshi ko‘rmoq**~~ **yodlamaslik** **o‘qimoq** **yashamoq**

4. O‘qing va mos javobni tanlang. Mos javoblar bir nechta bo‘lishi mumkin.

1. Ular o‘z qishloqlarini ... .
○ sog‘inar edilar ○ sog‘indim ○ sog‘inmas edik
2. Biz ekologiya muammolaridan ... .
○ tashvishlanmas edik ○ tashvishlanar edik ○ tashvishlanar edingiz
3. Sen vazifalarni vaqtida ... .
○ bajarar edik ○ bajarar eding ○ bajarmas eding
4. Men til o‘rganishga ko‘p vaqt ... .
○ sarflar edingiz ○ sarflar edim ○ sarflamas edimmi?

-ar (-r)+edi, -mas+edi shakllaridan foydalanib, gaplar tuzing va yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 22 22/08/24 14:28

Qizlar akademiyasi



1. O‘qing.

O‘zbekistondagi ilk qizlar akademiyasi haqida bilasizmi?

Somoniylar hukmronligi davrida Termiz yaqinida qal’a qurdiriladi. Uning vayronalari Surxondaryo viloyatining Termiz tumanidan topilgan.

Qal’a mintaqadagi ilk Qizlar akademiyasi bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor. Rivoyatlarga ko‘ra, akademiyaga qirq nafar dono va iqtidorli qiz tanlab olingan. Ular akademiyaning ilk tinglovchilari bo‘lgan. Qizlarga islom dini, tibbiyot, hisob-kitob, astronomiya, kimyo, chorvachilik va jang san’atidan puxta bilim berilgan. Ular o‘z davrining eng ilg‘or, zehnli olimalari bo‘lishgan.


Chingizxon bosqini paytida askarlar qal’ani qurshab olganlar. Qizlar esa qal’ani oxirgi daqiqagacha himoya qiladilar. Kuchlar teng bo‘lmagan, shu bois qizlar yengilganlar. Eng so‘nggi himoyachining niqobi yechiladi. Askarlar qal’a himoyachilarining qizlar ekanligidan hayratlanganlar.

IX–X asrlardayoq yurtimizda Qizlar akademiyasi bo‘lgan. Ajdodlarimiz qadim zamonlardayoq qizlarning ilm o‘rganishiga alohida e’tibor berganlar.

2. Rasmlarga qarang. Yuqoridagi matn asosida ularga izoh bering.






56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 23 22/08/24 14:28

3. Savollarga namunadagidek javob bering.

vayrona
qal’a
iqtidorli
tanlamoq
jang san’ati
qurshamoq
ajdod

Namuna: – *Somoniylar hukmronligi davrida qayerda qal’a qurdirilgan?*
– *Somoniylar hukmronligi davrida Termizda qal’a qurdirilgan.*

1. Somoniylar hukmronligi davrida qayerda qal’a qurdirilgan?
2. Akademiyaga necha nafar qiz tanlab olingan?
3. Qizlar akademiyada nimalarni o‘rganganlar?
4. Kim qal’ani bosib olgan?
5. Yurtimizda ilk Qizlar akademiyasi qachon tashkil etilgan?


Diqqat qiling! Antonimlar.


qiziq



zerikarli


zararli


foydali



qiyin



oson


qulay


noqulay

4. Nuqtalar o‘rniga bir necha mos so‘zlarni qo‘ying.

Namuna: *Palov – mazali taom.*

1. Palov ... taom.
2. Ho‘l mevalar inson uchun ... .
3. Yuqoriga liftda chiqish ... .
4. Jismoniy tarbiya darsi ... .
5. Erta uyg‘onish juda ... .


foydali / zararli
mazali / bemaza
oson / qiyin
yoqimli / yoqimsiz
qulay / noqulay
qiziqarli / zerikarli

Foydali yeguliklar, yoqimli mashg‘ulotlar, qiziqarli kitoblar ro‘yxatini tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 24 22/08/24 14:28

Respublika bolalar kutubxonasi

1. O‘qing.



Oybek: Dadajon, yordamingiz kerak.

Dadasi: Senga qanday yordam bera olaman?

Oybek: Bolalar kutubxonasiga a’zo bo‘lmoqchiman. U yerga esa kattalar bilan borish kerak ekan.

Dadasi: Juda yaxshi.

Oybek: Bugun kutubxonaga bordik. U yerda zo‘r kitoblar bor ekan.

Dadasi: Bolaligimda men ham borganman. Kutubxona senga yoqdimi?

Oybek: Ha, juda yoqdi. Bizga mana bu eslatmani ham berib yubordilar.

Dadasi: Yaxshi. O‘qib berasanmi?



Kutubxonada baland ovozda gapirish mumkin emas



Kutubxonaga yeguliklar olib kelish mumkin emas



Kutubxonada telefon o‘ynash mumkin emas



Kitobni buklash mumkin emas



Kitobga chizish va yozish mumkin emas



Kitobni kir qo‘l bilan ushlash mumkin emas



O‘rindiqlarni surayotganda ehtiyot bo‘lish kerak



Olingan kitobni o‘z vaqtida qaytarish kerak



Kiyimlarni va ortiqcha buyumlarni garderobda qoldirish kerak

2. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘ying.

Namuna: *Baland ovozda gapirish mumkin emas.*

1. Baland ovozda gapirish …
2. Kitoblarni kir qo‘llar bilan ushlash …
3. Salomlashish …
4. Pichirlab gapirish …
5. Kitobga qalam bilan chizish …
6. Kiyimlarni garderobda qoldirish …
7. Kitoblarni buklash …

mumkin

mumkin emas

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 25 22/08/24 14:28



3. **Tinglang.**


4

Respublika bolalar kutubxonasi

4. **Savollarga javob bering.**

1. Respublika bolalar kutubxonasi qachon qurilgan?
2. Kutubxonani kimlar qurgan?
3. Kutubxonaning o‘ziga xosligi nimada?
4. “Irbis” tizimining vazifasi nimalardan iborat?
5. Restavratsiya ishlaridan keyin kutubxona fondiga qancha kitob qo‘shilgan?

5. **Audiomatnda aytilgan joy nomlarini toping.**


1


2


3


4


5

Mutolaa qilmoq, qiziqarli voqea, sevib o‘qimoq, asosiy voqea, bosh qahramon kabi birliklar ishtirokida gaplar tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 26 22/08/24 14:28

Markaziy Osiyoda yagona

1. **O‘qing.**



zamonaviy
mashhur
yagona
tajriba
teskari
hamohanglik
qiyofa
o‘lcham

Yurtimizda noyob eksponatlari va zamonaviy texnologiyalari bilan mashhur muzey bor. Toshkent politexnika muzeyi O‘zbekistonda ham, Markaziy Osiyoda ham yagona.

Muzey ikki qavatdan iborat. Birinchi qavatda retro va zamonaviy avtomobillar joylashgan. Ikkinchi qavatda interaktiv ustaxona bor. Unda siz qiziqarli tajribalarni o‘rganasiz.

Teskari xonada buyumlar shiftda joylashganini ko‘rasiz. Oynali labirintda esa adashib qolasiz. Ames xonasida inson qiyofasining turli o‘lchamlarini ko‘rish mumkin.

Muzeyda texnikaga oid qiziqarli shoular ham bor. Tepadan tushayotgan sharlar musiqa hamohangligida “Qanot qoqayotgan qush”, “Tomchilar raqsi”, “Parvoz” kabi turli shakllar paydo qiladi. Bu esa insonni yanada ajoyib ixtirolar yaratishga undaydi.

2. **O‘qing va ma’lumotlarni moslashtiring.**

Teskari xonada	inson qiyofasining turli o‘lchamlarini ko‘rasiz.
Oynali labirintda	retro va zamonaviy avtomobillar joylashgan.
Ames xonasida	buyumlar shiftda joylashganini ko‘rish mumkin.
Muzeyning birinchi qavatida	interaktiv ustaxona bor.
Sharlar shousida	turli shakllarning paydo bo‘lishini kuzatish mumkin.
Muzeyning ikkinchi qavatida	adashib qolasiz.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 27 22/08/24 14:28

3. Berilgan so‘zlarning qaysi kataklarga to‘g‘ri kelishini ayting.

oyna, shift, qiyofa, ~~mashhur~~, adashmoq, teskari, o‘lcham, zamonaviy, yagona

1 Muzey	mashhur	2 Teskari xona	…
3 Oynali labirint	…	4 Ames xonasi	…

4. Rasmlarga qarang. Eksponatlarning qaysi muzeylarga oidligini toping.


Sport muzeyi


Tarix muzeyi


Adabiyot muzeyi



Siz qanday muzeylar tashkil qilishni xohlaysiz? O‘sha muzey haqida 5–6 ta gapdan iborat matn tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 28 22/08/24 14:28

Andijon polkasi

1. **Tomosha qiling.**

5



2. **O‘qing.**

raqqos
bastakor
tomoshabin
shiddatkor
ijro etmoq

Andijon polkasi o‘zbek xalq kuyi va raqsi hisoblanadi. Bu kuyning muallifi – andijonlik bastakor Orif Garmon Toshmatov. Andijon polkasi sababli o‘zbek yigitlar raqsi qayta tiklangan va rivojlangan. O‘zbekistonlik raqqos, baletmeyster Abdug‘affor Qodirov Andijon polkasi raqsi harakatlarini sahnalashtirgan. Raqsni bir yoki bir necha raqqos ijro etadi. Raqqosning milliy kiyimi ham o‘zgacha joziba beradi.

Andijon polkasi yurtimizning tashrif qog‘oziga aylangan. Vakillarimiz xalqaro san’at va madaniyat festivallarida, albatta, Andijon polkasini ijro etadilar. Shu payt hatto tomoshabinlar ham beixtiyor raqsga tushib ketadilar. Andijon polkasi butun dunyoga mashhur.

Polka so‘zi “shiddatkor”, “tezkor” ma’nolarini anglatadi.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 29 22/08/24 14:28

3. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Kochari – armanlarning eng mashhur raqslaridan biri.*

Andijon polkasini bir yoki	Xiva shahrida o‘tkaziladi.
Mukarrama Turg‘unboyeva	Andijon polkasi kuyini yaratgan.
“Lazgi” xalqaro raqs festivali	eng mashhur raqslaridan biri.
Kochari – armanlarning	mashhur raqqosa hisoblanadi.
Orif Garmon Toshmatov	bir necha raqqos ijro etadi.

4. Dilshod Rajabning “Andijon polkasi” she’rini o‘qing.

Andijon polkasi

Bunchalar sho‘x-o‘ynoqi
Musiqasi, notasi.
Jismingni jimirlatar,
Bu – “Andijon polkasi”.

“Taka-tum-tang” childirma,
Tor bulbulday sayraydi.
Davraga tush, jim turma,
Jon-u taning yayraydi.

O‘ynamagan qolmasin,
Cholg‘uchilar tolmasin.
Yangrasin-ey, yangrasin
Andijonning polkasi.

“Palov raqsi” haqida ma’lumot to‘plab keling. Gapirib bering.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 30 22/08/24 14:28

Changqovuz

6

1. **Tinglang.**



2. **O‘qing.**

suyak
qamish
ko‘rsatkich barmoq
qimirlatmoq
ohang
his-tuyg‘u

Akmal: Voooy, judayam zo‘r chaldi-ya!

Aziza: Ha, menga ham juda yoqdi. Bobojon, sizga ham yoqdimi?

Bobo: Changqovuz kuyini aytyapsanmi? Ha, menga ham yoqdi.

Akmal: U changqovuzmi?

Bobo: Ha, changqovuz.

Akmal: Changqovuz o‘zi nima?

Bobo: Changqovuz – milliy cholg‘ulardan biri.

Qadimda changqovuz kuyi o‘tovlar va kengliklarda ko‘p ijro etilgan. Uni asosan xotin-qizlar chalganlar. Changqovuz kuyi orqali ular his-tuyg‘ularini ifodalaganlar.

Changqovuz tishlarga yaqin ushlab yoki bosib turib chalinadi. Tilchasi ko‘rsatkich barmoq bilan qimirlatib turiladi. Undan ma’lum balandlikdagi ovoz paydo bo‘ladi. Bu ovoz og‘iz harakatlari yordamida ohangga aylanadi. Ovozning baland-pastligi og‘izning katta-kichik ochilishiga bog‘liq. Changqovuz tilchasining uzun va qalinligi ham ovozga ta’sir qiladi.

Bu cholg‘uni yasashda suyak, yog‘och, qamish va metalldan foydalanilgan. O‘zbeklar changqovuzni suyak va temirdan yasaganlar. Hozir Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarida temir changqovuzlar bor.

Akmal: Rahmat, bobojon! Changqovuz haqida ko‘p narsalarni bilib oldik.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 31 22/08/24 14:28

3. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Qadimda changqovuz bozorlarda chalingan.	*	*
2	Changqovuz suyak va qamishdan yasalgan.	*	*
3	Changqovuzni asosan yigitlar chalganlar.	*	*
4	Hozir ham Samarqand, Buxoro va Surxondaryoda temir changqovuzlar bor.	*	*

4. Yozing. Olmoshlarning qaysi so‘zlarni almashtirib kelayotganini izohlang.

Namuna: ***Changqovuz*** *– qadimiy cholg‘u.* ***U*** *milliy cholg‘ulardan biri.*

1. Changqovuz – qadimiy cholg‘u. **U** milliy cholg‘ulardan biri.
2. Oybek televizor ko‘rayotgan edi. **Unda** qadimiy cholg‘ular haqidagi ko‘rsatuv namoyish etilayotgandi.
3. Qadimda changqovuz kuyi o‘tovlarda ko‘p ijro etilgan. **Uni** asosan xotin-qizlar chalganlar.
4. Changqovuzni xotin-qizlar chalganlar. **Ular** kuy orqali his-tuyg‘ularini ifodalashgan.
5. Changqovuz metall, suyak, yog‘ochdan yasalgan. **Ulardan** haligacha foydalaniladi.

Milliy cholg‘ularimizning nomlarini yod oling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.



G‘ijjak



Dutor



Doira



Nay



Karnay

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 32 22/08/24 14:28



Sangardak sharsharasi

1. O‘qing.

Sangardak sharsharasi Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida joylashgan. Sharsharaga borish uchun uzoq yurish kerak. Go‘zal sharshara tog‘lar orasidagi Xondiza qishlog‘idan 30 kilometr uzoqlikda.


Mahalliy aholi orasida sharshara haqida ko‘p afsona va rivoyatlar bor. Aytishlaricha, bu sharsharani ko‘rish uchun qadimgi yunonlar, arablar va Movarounnahrning hukmdorlari ham kelgan.

Sharsharaning tovushi ancha uzoqdan eshitiladi. U tog‘ daryosidan hosil bo‘lmaydi. Sangardak sharsharasi g‘orlar ichidagi jilg‘alardan paydo bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Suv qoyalar va o‘tlar orasidan oqib tushadi. U pog‘onali sharsharani hosil qiladi. Sharsharaning balandligi 20 metr.

Sariosiyoning Sangardak sharsharasi go‘zal va shiddatli. Sayyohlar sharsharani ko‘rish uchun uzoq yo‘l bosib keladilar.

Sharsharalar doim odamlarning diqqatini o‘ziga jalb qilgan. Ular tabiatning mo‘jizasi.

2. Rasmlarga qarang. Ular asosida yuqoridagi matnni qayta hikoya qiling.



qishloq
sharshara
qoya
jalb qilmoq

Diqqat qiling! Hozirgi zamon fe’li: -yap

kel~~moq~~+yap+…		Bo‘lishsiz	So‘roq	Bo‘lishsiz-so‘roq
Men	kelyapman	kelmayapman	kelyapmanmi?	kelmayapmanmi?
Sen	kelyapsan	kelmayapsan	kelyapsanmi?	kelmayapsanmi?
U	kelyapti	kelmayapti	kelyaptimi?	kelmayaptimi?
Biz	kelyapmiz	kelmayapmiz	kelyapmizmi?	kelmayapmizmi?
Siz	kelyapsiz	kelmayapsiz	kelyapsizmi?	kelmayapsizmi?
Ular	kelyaptilar	kelmayaptilar	kelyaptilarmi?	kelmayaptilarmi?

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 33 22/08/24 14:28

3. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying.

Namuna: *Usmon maktabdagi sport to‘garagiga* ***qatnashyapti.***

chizmoq, qaytmoq, ketmoq, ovqatlanmoq, ~~qatnashmoq~~, tomosha qilmoq

1. Usmon maktabdagi sport to‘garagiga qatnashyapti.
2. Televizorni hech kim ... ?
3. Bolalar oshxonada ... .
4. U avtobusda uyiga ... .
5. Biz Samarqanddan Buxoroga ... .
6. Siz tabiatning rasmini ... ?

4. Yashirin so‘zlarni toping.

o	sh	a	r	sh	a	r	a	z	i
t	u	r	i	z	m	g	j	l	t
g	g	t	o	g‘	q	ch	e	t	m
s	a	q	f	d	ch	o‘	l	o	t
a	a	g	o‘	z	a	l	f	f	k
q	q	q	x	t	a	b	i	a	t
x	n	g‘	o	r	e	r	t	q	m
o	u	o	s	m	o	n	u	v	x

Siz qanday mashhur joylarni bilasiz? Namunadagidek to‘ldirib keling.

U nima?	U qayerda?	Nega mashhur?
Xumson bulog‘i	Toshkent viloyatida	Chunki suvi shifobaxsh
* * *	* * *	* * *

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 34 22/08/24 14:28

Nefrit ko‘li

1. **O‘qing.**

xushmanzara
xushhavo
hech qachon
zumradsifat
qimmatbaho

O‘zbekistonning tabiati xushmanzara joylarga boy. Shunday joylardan biri Nefrit ko‘lidir. U Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida joylashgan. Nefrit ko‘lini Urung‘och ko‘llari deb ham ataydilar. Ko‘llar dengiz sathidan 1227 metr balandlikda.

Ko‘llar Yuqori Urung‘och ko‘li va Kichik Urung‘och ko‘liga bo‘linadi. Ikki ko‘l bir-biridan o‘lchami bilan farq qiladi. Yuqori Urung‘och ko‘li hech qachon qurib qolmaydi.

Ko‘lning suvi juda tiniq. Shu bois uning tubidagi toshlarni ko‘rish mumkin. Ko‘lning zumradsifat rangi qimmatbaho nefrit toshini eslatadi.

Ko‘lning suvi juda sovuq bo‘ladi. Suvning harorati +7°...+8° darajadan oshmaydi, shuning uchun ko‘lda hech qanday jonzot yashamaydi.

Nefrit ko‘lini tomosha qilish uchun kuniga 200–250 nafar sayyoh keladi. Sayyohlarni ko‘proq suvning nefrit va feruza rangi qiziqtiradi.



2. **Savollarga mos javoblarni tanlang.**

1. Ko‘lda qaysi jonzot yashaydi?	A. Chunki ko‘lning suvi judayam tiniq.
2. Nefrit ko‘lini ko‘rish uchun qancha sayyoh keladi?	B. Yuqori Urung‘och ko‘lining suvi hech qachon qurib qolmaydi.
3. Yuqori Urung‘och ko‘li qachon quriydi?	D. Urung‘och ko‘llarining suvi juda tiniq va juda sovuq.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 35 22/08/24 14:28

4. Nefrit ko‘li qayerda joylashgan?	E. Ko‘lda hech qanday jonzot yashamaydi.
5. Nega Nefrit ko‘lining tubidagi toshlarni ko‘rish mumkin?	F. Urung‘och ko‘llari Bo‘stonliq tumanida joylashgan.
6. Urung‘och ko‘llarining suvi qanday?	G. Ko‘lni tomosha qilish uchun kuniga 200 – 250 nafar sayyoh keladi.



3. Gaplardagi fe’llardan mosini hozirgi zamonda tuslang.

Namuna: *Sen yana kubik-rubikni yig‘yapsanmi?*

1. Sen yana kubik-rubikni (yig‘moq; ixtiro qilmoq)?
2. Ular Toshkent politexnika muzeyini (aylanmoq; qidirmoq).
3. Biz Qizlar akademiyasiga (ketmoq; tomosha qilmoq; xohlamoq).
4. Men Andijon polkasiga (yoqtirmoq; o‘ynamoq; o‘ylamoq).
5. Aziz hozir Andijonda (yashamoq; qaytmoq; bormoq)?
6. Siz Jahon chempionatini (qatnashmoq; kuzatmoq; bormoq)?



4. Bo‘g‘inlarni qo‘shib, yangi so‘zlarni hosil qiling.

bu sak yuk	*yuksak* * * *
ba shan nan	* * * * * *
na (x3) ki mu kich	* * * * * *
li da foy mon	* * * * * *



Suv so‘zini ***ichmoq, sho‘r, chuchuk, oqizmoq, sepmoq, quymoq, sovuq, qaynoq*** kabi so‘zlar bilan bog‘lab gaplar tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 36 22/08/24 14:28

Mador somsa

1. **O‘qing.**

– Assalomu alaykum, oyijon! Yaxshimisiz?



– Oyijon, sizga nima olib boraylik?

– Vaalaykum assalom! Rahmat, bolam! Yaxshiman!



– Bu yerda hamma narsa yetarli. Lekin mador somsa yegim kelyapti.

– Dadajon, nima oldingiz?



– Bu – mador somsa. Buving yaxshi ko‘radilar.



Aziza: Sizni judayam sog‘indik.



Akmal: Buvijon, sizga mador somsa olib keldik.



Buvi: Rahmat, bolalarim! Mador somsa juda foydali taom.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 37 22/08/24 14:28



2. **Tinglang.**

7

3. **Namunadagidek savollar tuzing.**

Namuna:

– *Mador somsa* ***qayerda*** *pishiriladi?*
– *Mador somsa* ***Parkent tumanida*** *pishiriladi.*

1. Mador somsa **Parkent tumanida** pishiriladi.
2. Mador o‘ti **piyozga** o‘xshaydi.
3. Mador tarkibida **C, B1, B2, PP, E** va **A** vitaminlari bor.
4. U tog‘larning salqin joylarida **aprel va may oylarida** o‘sadi.
5. **Biolog olimlar** mador o‘simligini o‘rganganlar.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 38 22/08/24 14:28

Diqqat qiling! Hozirgi-kelasi zamon fe'li: -y, -a

yugur~~moq~~+a+… yasha~~moq~~+y+…		Bo'lishsiz	So'roq	Bo'lishsiz-so'roq
Men	yuguraman	yugurmayman	yuguramanmi?	yugurmaymanmi?
Sen	yugurasan	yugurmaysan	yugurasanmi?	yugurmaysanmi?
U	yuguradi	yugurmaydi	yuguradimi?	yugurmaydimi?
Biz	yuguramiz	yugurmaymiz	yuguramizmi?	yugurmaymizmi?
Siz	yugurasiz	yugurmaysiz	yugurasizmi?	yugurmaysizmi?
Ular	yuguradilar	yugurmaydilar	yuguradilarmi?	yugurmaydilarmi?

4. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

Namuna: *Biz bobom va buvim bilan birga yashaymiz.*

1. Biz bobom va buvim bilan birga … .
2. Men uy ishlarida onamga … .
3. Buvim mador somsani … .
4. Oybek kerakli ma'lumotni internetdan … .
5. Dadam mahsulotlarni supermarketdan … .

yaxshi ko'rmoq
izlamoq
yordam bermoq
sotib olmoq
yashamoq

5. Kavsar Turdiyevaning "Ismaloq" she'rini yod oling.

Taning darmonga chanqoq
Bo'lsa, yegin ismaloq.
Og'risa jigar, taloq,
Yana yegin ismaloq.
Bo'lsa kamqonlik, charchoq,
Yeyavergin ismaloq.
Somsa qilib tugib ye,
Chuchvaraga bukib ye.
Shunda keladi darmon,
Shunda qolmaydi armon.



Inson organizmi uchun foydali bo'lgan o'simliklar haqida ma'lumot to'plang. Gapirib bering.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 39 22/08/24 14:29

O‘zbek bog‘boni

1. Harflar orasiga yashiringan so‘zlarni toping.

Nxbhdjanormkfhrsgolmazxgshbehikgyuuzumlpksolchamjvs
gilosqeptutlkzsanjiropuo‘rikstudxurmogfreolxo‘ribvarshaftoli
lbyxbananplyflimonzhjukiviqevapelsinpinmandarinbsut

2. O‘qing.

Uzumchilik – qishloq xo‘jaligining eng qadimiy tarmoqlaridan biri. O‘lkamizda yetishtirilgan uzumlar dunyoga mashhur, chunki ular juda chiroyli, sershira va mazalidir.

Rizamat ota Musamuhamedov – O‘zbekistonda uzumchilikni rivojlantirgan inson. U uzumning o‘nlab navlarini yaratgan va tokni yashartirish usulini joriy qilgan. Zamonaviy texnika yordamida katta maydonlarda uzumzorlar tashkil qilishni boshlab bergan.


O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Gruziya va Armanistonda namunaviy uzumzor va bog‘larni yaratgan. O‘zbek bog‘bonining uzum yetishtirish usullari xorijiy mamlakatlarda ham qo‘llanmoqda.

Rizamat ota Musamuhamedov O‘zbekistonda limonchilikka ham asos solgan.

qishloq xo‘jaligi
sershira
uzumzor
nav
mazali

3. Savollarga javob bering.

1. Rizamat ota Musamuhamedov O‘zbekistonda qaysi sohani rivojlantirgan?
2. O‘zbek bog‘boni qayerlarda bog‘lar yaratgan?
3. O‘lkamizda yetishtirilgan uzumlar dunyoga nimasi bilan mashhur?
4. Rizamat ota uzumning qancha navini yaratgan?
5. Rizamat ota uzum yetishtirishda qanday usullarni joriy qilgan?



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 40 22/08/24 14:29

4. Jadval asosida namunadagidek gaplar tuzing.


Namuna:
Umida uzumni yoqtiradi.
Men uzumni yoqtirmayman.

	Umida	Oybek	Men
Kubik-rubik	👍	👎	?
Qurut	👎	👍	?
Uzum	👍	👎	?

5. Yashiringan so‘zlarni toping.

z	u	m	u	z	r	o	uzumzor
a	v	n					* * *
sh	r	i	r	e	s	a	* * *
m	o	l	i	n			* * *
m	a	l	i	a	z		* * *

O‘zingiz yoqtirgan mevalarning vatani qayerligini yozib keling.






56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 41 22/08/24 14:29

Qurut

1. O‘qing.

Aziza: Akajon, nima qilyapsiz?
Akmal: Internetdan qurut haqida ma’lumot izlayapman.
Aziza: Nega?
Akmal: Kecha sinfimizga yangi o‘quvchi keldi. Ismi Antonio.
Aziza: Antonio? U qayerlik?
Akmal: U ispaniyalik.
Aziza: Zo‘r-ku! Antonio o‘zbekchani biladimi?
Akmal: Ha, u o‘zbekchani ozroq biladi.
Aziza: Xo‘sh, qurut bilan Antonioning nima aloqasi bor?
Akmal: Antonio do‘kondan suv olibdi. Sotuvchi qaytimiga qurut beribdi.
Aziza: Qurut Antonioga yoqibdimi?
Akmal: U qurutning nimaligini bilmas ekan. Shuning uchun unga qurut haqida gapirib bermoqchiman.
Aziza: Menga ham gapirib bering.
Akmal: Xo‘p, birozdan keyin.

yegulik
issiq iqlim
qatiq
suzma
rayhon
murch
uskuna
ko‘rish qobiliyati
iste’mol qilmoq

2. Tinglang.

8




56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 42 22/08/24 14:29

Diqqat qiling! Paronimlar.

qurut





qurt

3. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Qurut shirinlik hisoblanadi.	*	*
2	Qurut sovuq o‘lkalarda ko‘p iste’mol qilinadi.	*	*
3	Qurut uzoq vaqt quritilgani uchun qurut deyiladi.	*	*
4	Qurut ko‘rish qobiliyatiga salbiy ta’sir qiladi.	*	*
5	Sayyohlar qurutni sovg‘a sifatida o‘z yurtlariga olib ketadilar.	*	*
6	Qurut O‘zbekistonga import qilinadi.	*	*

4. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Qurut sigir yoki echki sutidan tayyorlanadi.*

1. Qurut  yoki  sutidan tayyorlanadi.

2. Qurut tayyorlash uchun avval  qaynatiladi.

3. Suzmaga , rayhon, murch,  qo‘shiladi.

4. Qurut  qobiliyatini yaxshilaydi.

5. Sayyohlar qurutni noyob  sifatida o‘z yurtlariga olib ketadilar.

Iste’mol qilmoq, o‘zbekcha, suzma, yegulik, import, shirinlik so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing va yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 43 22/08/24 14:29

ADABIY O‘QISH: Abdulla Avloniy ijodi

YOLG‘ON DO‘ST

Bir zamonlar ikki do‘st bo‘lgan ekan. Ular safarga chiqibdilar. Bir tog‘ning ichidan ketib borayotganlarida uzoqdan bir yo‘lbarsni ko‘rib qolibdilar. Do‘stlarning biri darhol yugurib borib, bir daraxtning ustiga chiqib olibdi. Ikkinchisi esa nima qilishini bilmay, yerga yotib olibdi. U xuddi o‘likka o‘xshab qolibdi. Yo‘lbars kelib, hidlab ko‘ribdi. Uni o‘lik deb o‘ylab, orqasiga qaytib ketibdi. Shu payt o‘rtog‘i daraxtdan tushib: “Do‘stim, yo‘lbars qulog‘ingga nimalarni so‘zladi?” – deb so‘rabdi. O‘rtog‘i shunday javob beribdi: “Eh o‘rtoq! Yo‘lbars menga yaxshi kuningda do‘st bo‘lib, yomon kuningda tashlab qochadigan nomard odamlar bilan do‘st bo‘lma!” – dedi.



JANJALKASHLIKNING ZARARI

Bir yerdan ariq oqib o‘tgan edi. Ariqning ustiga qandaydir taxta qo‘yilgan bo‘lib, u ko‘prik vazifasini bajarar edi. Bir kuni taxta ko‘prikning ustidan o‘tish uchun ikki tomondan ikkita echki keldi. Ikkalasi taxta ko‘prikning ustida uchrashib qoldi.

Echkilardan biri ikkinchisiga: “Men sendan kattaman, sen esa yoshsan. Orqangga qayt. Menga yo‘l ber!” – dedi.

Ikkinchisi: “Sen katta bo‘lsang, o‘zingga. Men sendan kuchliman. Sen orqangga qayt. Mendan keyin o‘tasan”, – dedi. Shundan keyin ularning oralarida qattiq janjal chiqdi.

Ikkalasi ham bo‘ynini egib, shoxlarini shoxlariga tirab, shunday suzishdilarki, natijada suvga tushib, cho‘kib ketdilar.

“Ikkinchi muallim” kitobidan



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 44 22/08/24 14:29

II bo‘lim

Kelajakda men

1. **Rasmlarga qarang. Kasblarni sanang.**



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 45 22/08/24 14:29

2. **Savollarga javob bering.**

1. Kasb nima?
2. Siz qaysi kasblarni bilasiz?
3. Xobbi nima?
4. Sizning xobbingiz bormi?
5. Oila a’zolaringiz qaysi kasb egalari?

3. **Harflar orasiga yashiringan so‘zlarni toping.**

kgro‘qituvchipesashifokorlgxzasayyohvnifermermosp
veterinarsfestomatologpiyudizaynerg‘seftrassomxo‘zo
vaktyormedchbojxonachikjesxattotyurafotografneslit
novvoyjolsoshpaztvshjurnalistjuyasho‘sportchivbnesq

4. **Suhbatlashing. Ushbu rasmda nima tasvirlangan?**



Bo‘sh vaqtingizda nimalar bilan shug‘ullanasiz? Fikringizni 10 ta gap bilan ifodalang.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 46 22/08/24 14:29

Vatanimga xizmat qilaman

1. Salim Ashurning “O‘zbek ofitserlari” she’rini o‘qing.

O‘ZBEK OFITSERLARI

Diyorimning qalqoni,
Ozodlikning posboni.
Bobomeros ori bor,
Har so‘zin zalvari bor.

Naqarot:

Vatanga fido joni,
Asrar O‘zbekistonni.
O‘zbek ofitserlari,
Millatning mard erlari!

Yurt bayrog‘i – nomusi,
Qasamyodi – qomusi.
Quyosh bilan yelkadosh,
Bardoshidan sinar tosh.

Naqarot:

Osmonda ham, yerda ham,
Chegarada, qirda ham,
Sobitdir qasamida,
O‘t chaqnar qadamida.

2. “O‘zbek ofitserlari” qo‘shig‘ini tinglang. 9



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 47 22/08/24 14:29

3. Savollarga javob bering.


1. She'r nima haqida?
2. Ofitserlar kimlar?
3. Sizningcha, ofitserlarning ish tartibi qanday?
4. Ofitserlik sizga yoqadimi?
5. Qasamyod nima?

4. Yashirin so'zlarni toping va nuqtalar o'rniga joylashtiring. Maqollarni yod oling.

1. Elga ... – oliy himmat.
2. ... ing tinch – sen tinch.
3. ... qo'risang, o'zasan,
   Qo'rimasang, to'zasan.
4. Yaxshi ... yurt tuzar,
   Yomon ... yurt buzar.

M	A	X	T	Z	I
A	T	N	V	A	
	T	Y	U	R	
G	T	I	Y	I	

5. Rebuslarni yeching.

1)  

2)  

3) H  1 

4)  g   


Siz Vatanimizga qanday xizmat qilmoqchisiz? O'z fikrlaringizni yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 48 22/08/24 14:29

Yosh turist

1. **Tinglang.**


10



Samarqand



Istanbul



Tojikiston



Ostona



Moskva



Hindiston

2. **Audiomatn asosida berilgan so‘zlardan foydalanib namunadagidek gaplar tuzing.**

Namuna: *Madina ilk sayohatini Samarqanddan boshlagan.*

1. Ilk …
2. 10 yoshida…
3. Keyin …
4. Yozgi ta’tilda …
5. Undan avval …
6. Endi …



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 49 22/08/24 14:29

3. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Istanbulning taomlari shirin va mazali.*

-ning yoki -da

1. Istanbul	...	A. Tog‘lari va tabiati ajoyib.
2. Sankt-Peterburg	...	B. Aeroporti zamonaviy.
3. Tojikiston	...	D. Toj Mahal joylashgan.
4. Samarqand	...	E. Ermitaj muzeyi bor.
5. Ostona	...	F. Taomlari shirin va mazali.
6. Hindiston	...	G. Registon maydoni chiroyli.

4. Savollarga javob bering.

1. Turist kim?
2. Sizga sayohat qilish yoqadimi?
3. Oilaviy sayohatlarga chiqqanmisiz?

sayohat
ilk
maydon
o‘z ko‘zim bilan

5. Sinonim so‘zlarni namunadagidek birlashtirib chiqing.

Namuna: *turist – sayyoh*

turist	ot	kezmoq	ism	keyin
aylanmoq	so‘ng	oldin	sayyoh	avval

Sayohat rejangiz haqida matn tuzing. Quyidagi so‘z va iboralardan foydalaning: *sayohat, samolyot, chipta, sayyohlik firmasi, jomadon, mehmonxona, bormoq, joylashmoq, aylanmoq, ko‘rmoq, tomosha qilmoq, baland, keng, chiroyli.*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 50 22/08/24 14:29

Yegan sari yeging kelar

1. **O‘qing.**

O‘qituvchi: Rustam, sen nega novvoy bo‘lmoqchisan?

Rustam: Bobomning va otamning kasblarini davom ettirmoqchiman.

O‘qituvchi: Sening otang novvoymi?

Rustam: Ha, ustoz. Otamning novvoyxonasi bor.

O‘qituvchi: Bo‘sh vaqtlaringda otangga yordam berasanmi?

Rustam: Albatta, ustoz! Men bo‘sh vaqtlarimda otamga yordam beraman.

O‘qituvchi: Barakalla! Sen non pishirishni yaxshi o‘rgangin!





2. **Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri**

1	Rustamning bobosi novvoy bo‘lgan.	*	*
2	Rustamning otasining novvoyxonasi bor.	*	*
3	Rustam bo‘sh vaqtlarida mashg‘ulotlarga qatnaydi.	*	*
4	Rustam otasining kasbini davom ettirmoqchi.	*	*
5	O‘qituvchi Rustamga novvoy bo‘lishni tavsiya qildi.	*	*

3. **O‘qing.**

Men novvoylik sohasida o‘z brendimni yaratmoqchiman. Nonlarim o‘zgacha shaklda bo‘ladi. Men yangi ta’mlarni ham kashf etmoqchiman. Nonlarimni xorijga eksport qilishni xohlayman.

Non uzoq vaqt yumshoq saqlanishi kerak. Buning uchun biror texnologiya o‘ylab topmoqchiman. Shunda nonning isrof bo‘lishi kamayadi. Nonni uzoq-uzoqlarga olib ketish mumkin bo‘ladi.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 51 22/08/24 14:29

4. Savollarga javob bering.

1. Brend nima? Siz qanday brendlarni bilasiz?
2. Nonni o‘zgacha shaklda tasavvur qila olasizmi?
3. Nonni xorijga eksport qilish deganda nimani tushunasiz?
4. Non qoqisi haqida nimalarni bilasiz?
5. Siz nonni isrof qilmaslik uchun nima qilasiz?

novvoy
non
ta’m
eksport qilmoq
saqlamoq
isrof bo‘lmoq
elamoq
xamir

5. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Nonni pishirish uchun un elanadi **va** xamir qoriladi.*

1. Nonni pishirish uchun un elanadi. Xamir qoriladi.
2. Rustam o‘z brendini yaratmoqchi. Nonni xorijga eksport qilmoqchi.
3. Nonning o‘zgacha shaklini kashf qilmoqchiman. Yangi ta’mlarni yaratmoqchiman.
4. Nonni hamma sevib iste’mol qiladi. Yaxshi ko‘radi.
5. Rustam novvoy bo‘ladi. Otasining kasbini davom ettiradi.

“Non yopganda” qo‘shig‘ining matnini o‘qing va yod oling.

Non yopganda, non yopganda
Mening oyim, mening oyim
Issiq kulcha, issiq kulcha
Yopar doim, yopar doim.

Kulcha juda mazali,
Sedanali, jizzali,
Kulcha juda mazali,
Sedanali, jizzali.
Yegan sari yegim kelar,
“Rahmat, oyi!” degim kelar.

Menga atab, menga atab
Oyijonim, oyijonim
Yasar kulcha, go‘yo gulcha,
Mehribonim, mehribonim.

Kulcha juda mazali,
Sedanali, jizzali,
Kulcha juda mazali,
Sedanali, jizzali.
Yegan sari yegim kelar,
“Rahmat, oyi!” degim kelar.

Xalq so‘zi



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 52 22/08/24 14:29

Anvarning hikoyasi


1. **Tinglang.**

11



2. **Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri**

1	Qutqaruvchilik – xavfli kasb.	*	*
2	Qutqaruvchilar ish vaqtida jarohatlanishi mumkin.	*	*
3	O‘rmonda adashganlarga yordam beradi.	*	*
4	Yong‘inni o‘chiradi.	*	*
5	Chang‘ichilarni qor tagidan olib chiqadi.	*	*
6	Buzilgan mashinalarni tuzatadi.	*	*
7	Suvga cho‘kayotganlarni qutqaradi.	*	*
8	Bemorlarni davolaydi.	*	*
9	Muz yoriqlarida qolib ketgan baliqchilarni qutqaradi.	*	*
10	O‘quvchilarga bilim beradi.	*	*



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 53 22/08/24 14:29

3. **Rasmlar asosida namunadagidek so‘zlar hosil qiling.**



1	O‘t o‘chiruvchi	+  =	* * *
2	Haydovchi		*haydovchi-robot*
3	Shifokor		* * *
4	Alpinist		* * *
5	Suzuvchi		* * *

Diqqat qiling! **Zidlov bog‘lovchilari**

Akmal koptokni tepdi, **ammo lekin biroq** **gol ura olmadi.**



Akmal koptokni tepdi, **ammo** *gol ura olmadi.*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 54 22/08/24 14:29

4. **Zidlov bog‘lovchilarini qo‘llab gaplar tuzing.**

Anvar ixtirochi bo‘lmoqchi,	ammo lekin biroq	alpinist-robot hali yaratilmagan.
Qutqaruvchilik xavfli,		juda kerakli kasb.
Juda ko‘p robot ixtiro qilingan,		robotlar jarohat olmaydi.
Odamlar jarohat olishi mumkin,		robotlar charchamaydi.
Odamlar charchab qolishi mumkin,		qutqaruvchilikni ham yaxshi ko‘radi.

5. **Harflar orasiga yashiringan so‘zlarni toping.**

ghqutqaruvchihamalpinistjimlkxavfliradaqjarohatpin
ombemorberstopadigulsatyordamberadialixtirochib

qutqaruvchi
xavfli
yordam bermoq
bemor
jarohat
sezmoq

Quyidagi vaziyatlarni o‘rganing. Ularni yozma bayon qilishga harakat qiling.









56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 55 22/08/24 14:29

Ilhomning orzusi



1. Savollarga javob bering.

1. Siz qaysi jonivorlarni bilasiz?
2. Uyingizda qanday jonivor boqqansiz?
3. Jonivorlar nima bilan oziqlanadi?
4. Jonivorlarni boqqanda nimalarga e’tibor berish kerak?

2. O‘qing.

Oybek: Ilhom, rostdan ham jonivorlarni yaxshi ko‘rasanmi?

Ilhom: Ha, men hamma jonivorlarni yaxshi ko‘raman. Otim bo‘lishini orzu qilaman, lekin hali otga minmaganman. Ularni faqat hayvonot bog‘ida ko‘rganman. Sen-chi?

Oybek: Mening bobom qishloqda yashaydilar. Ular turli jonivorlarni boqadilar. Har safar borganimizda otga minaman.

Ilhom: Bobongning oti bormi?

Oybek: Ha. Yakshanba kuni bobomnikiga boramiz. Seni ham taklif qilaman.

Ilhom: Zo‘r bo‘lar edi, lekin men ota-onamdan ruxsat olishim kerak.

Oybek: Seni kutaman.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 56 22/08/24 14:29

3. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Ilhom jonivorlarni yaxshi ko‘radi.	*	*
2	Oybekning bobosi qishloqda yashaydi.	*	*
3	Ilhom mushugi bo‘lishini orzu qiladi.	*	*
4	Ilhom otlarni faqat hayvonot bog‘ida ko‘rgan.	*	*
5	Oybek Ilhomni bobosinikiga taklif qildi.	*	*
6	Ilhom o‘qituvchisidan ruxsat so‘rashi kerak.	*	*

4. Zidlov bog‘lovchilarini qo‘llab namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna:

Men jonivorlarni yaxshi ko‘raman, lekin ularni ko‘p qavatli uyda boqa olmayman.

1. Men jonivorlarni yaxshi ko‘raman,	ammo lekin biroq	... hamma ham ularni boqishni bilmaydi.
2. Otim bo‘lishini orzu qilaman,		... Ilhomning ota-onasi ruxsat bermadi.
3. Oybek Ilhomni qishloqqa taklif qildi,		... ularni ko‘p qavatli uyda boqa olmayman.
4. Jonivorlarni hamma yaxshi ko‘radi,		... hali otga minmaganman.

Jonivorlar bosh qahramon bo‘lgan kino, badiiy asar va multfilmlarning nomlarini yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 57 22/08/24 14:29

Qishloqda bir kun

1. O‘qing.



Oybek: Ilhom, mana bobomning hovlisi.
Ilhom: Eh-he, juda katta hovli ekan.
Oybek: Ha. Ana jonivorlar.
Ilhom: G‘ozlar ham bor ekan. Sigirlar-chi?
Oybek: Mana bu – sigir, buzog‘i ham bor.
Ilhom: Echkichaning sakrashini qara.
Bobosi: Bu echkicha emas, uloq.



Oybek: Assalomu alaykum, bobojon.
Ilhom: Assalomu alaykum!
Bobo: Vaalaykum assalom, bolalarim.
Ilhom: Jonivorlar ko‘p ekan. Hovlingiz kichik fermami?
Bobo: Kichik ferma desa ham bo‘ladi. Qishloqda hamma chorva, parranda boqadi. Biz sut, go‘sht, tuxumni sotib olmaymiz.



Ilhom: Oybek, yur, otni ko‘raylik.
Bobo: Kecha ot kasal bo‘lib qoldi. Birozdan so‘ng veterinar keladi. Uni bezovta qilmanglar!
Ilhom: Afsus, otning ahvoli yomonmi?
Bobosi: Ancha yaxshi, lekin biroz ishtahasi yo‘q.
Oybek: Bobojon, Ilhom veterinar bo‘lmoqchi. U ham veterinarga yordam bersa bo‘ladimi?
Bobo: Veterinarga hammamiz yordam beramiz.



Ilhom: Bu yer menga juda yoqdi.
Oybek: Bobomning hovlisi menga ham juda yoqadi. Men kelajakda shu yerda katta ferma ochaman. Fermer bo‘lmoqchiman.
Ilhom: Men veterinar bo‘lsam, sening jonivorlaringni davolayman.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 58 22/08/24 14:29

2. Namunadagidek savollar tuzing.

Namuna: *Otga nima bo‘lgan? – Otning biroz ishtahasi yo‘q.*

1. _____ * * * * * _____?

Otning biroz ishtahasi yo‘q.

2. _____ * * * * * _____?

Bu yerda sigir, echki, tovuqni ko‘rdilar.

3. _____ * * * * * _____?

Otni veterinar davolaydi.


4. _____ * * * * * _____?

Oybek va Ilhom qishloqqa keldilar.

5. _____ * * * * * _____?

Oybek kelajakda fermer bo‘lmoqchi.


3. O‘qing. Bilib oling.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 59 22/08/24 14:29

4. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Sigirning bolasi – buzoq.*



5. Mos javoblarni tanlang.

1. Ilhom veterinar bo‘lmoqchi, ammo …
   - jonivorlardan qo‘rqadi.
   - Oybekning fermasida ishlamoqchi.
2. Oybek bobosinikiga tez-tez boradi va …
   - jonivorlarni boqadi.
   - qishloqni yaxshi ko‘rmaydi.
3. Bolalar qishloqqa otni minish uchun bordilar, lekin …
   - ot kasal edi.
   - tovuqlarga don berdilar.

hovli
chorva
parranda
ishtaha
sepmoq
sakramoq
g‘oz
bezovta qilmoq

4-vazifani daftaringizga yozing. Jonivorlar va bolalarining nomlarini yod oling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 60 22/08/24 14:29

Hamkasblar

1. **O‘qing.**



1. Kim shifokor bo‘lmoqchi?


2. Men, ustoz.


3. Akmal ham shifokor bo‘lmoqchi.


4. Qanday yaxshi.

5. Oybek, sen nega shifokor bo‘lmoqchisan?


6. Men buvijonimning ko‘zlarini davolamoqchiman.


7. Akmal, sen ham ko‘z shifokori bo‘lmoqchimisan?


8. Yo‘q. Men tish shifokori bo‘lmoqchiman.


9. Barakalla! O‘quvchilar, Akmal va Oybek hamkasb bo‘lmoqchi ekan.


10. Ustoz, men ham Akmal va Oybekka hamkasb bo‘lmoqchiman.


11. Sen ham shifokor bo‘lmoqchimisan?

12. Ha, men bolalar shifokori bo‘lmoqchiman.



Oftalmolog
ko‘z shifokori



Pediatr
bolalar shifokori



Stomatolog
tish shifokori

2. **Rasmlarga qarang va ularni nomlang.**







56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 61 22/08/24 14:29

3. **Rebuslarni yeching.**

1. ”  ” ”  ””  ” r

2. ’  ””””  ”” i  ””

3.  ” 



shifokor
hamkasb
tashxis qo‘ymoq
bemor
davolamoq

4. **Bog‘lovchilarni qo‘llab namunadagidek gaplar tuzing.**

Namuna: *Shifokor bemorlarga tashxis qo‘yadi va davolaydi.*

va / ammo / lekin

Shifokor bemorlarga tashxis qo‘yadi	qaysi fanlarni o‘qishni bilmayapti.
Doston pediatr bo‘lmoqchi,	muolaja qildi.
Biz oftalmologning qabuliga bordik,	unga tez-tez murojaat qiladi.
Stomatolog mening tishimni tekshirdi	davolaydi.
Akmal tish shifokoridan qo‘rqadi,	bizning navbatimiz yetib kelmadi.

Va, ammo, lekin bog‘lovchilari ishtirokida gaplar tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 62 22/08/24 14:29

Kalligrafiya

1. **Tinglang.**

12



2. **Bosh joylarni to‘ldiring. So‘zlarni toping.**

ka * * * grafiya

xatt * * * ik

* izi * ar * i

sa * * at

h * rf

x * * bi

yo * * v

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 63 22/08/24 14:29

3. O‘qing.

Kalligrafiya bu – chiroyli yozish san’ati. Qadimda xattotlik eng muhim kasblardan hisoblangan. Avvallari xattotlar qoralama nusxalar asosida kitoblar yaratish bilan shug‘ullanganlar. Keyinchalik bu kasbga ehtiyoj kamaygan.

Hozir xattotlar kalligrafik alifbolardan foydalanib matn yaratadilar. Ular bunday matnlar bilan diplom, xat va tabriknomalarni yozadilar.

Yirik tashkilotlar ham kalligraflar xizmatidan foydalanadi.

Xattot sabrli bo‘lishi kerak, chunki qoralama nusxalar juda ko‘p vaqt oladi. Hatto xattotlar yengil jarohatlanishlari mumkin.

Xattotlarning yozuvini o‘qish oson. Ularni o‘qish insonga zavq beradi.

4. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Kalligrafiya bu – chiroyli yozish san’ati.	*	*
2	Qadimda xattotlar kitoblar yaratganlar.	*	*
3	Xattotlar kalligrafik alifbodan foydalanadilar.	*	*
4	Yirik tashkilotlar kalligraflar xizmatidan foydalanadi.	*	*
5	Xattotlar diplom, xat va tabriknomalarni yozadilar.	*	*
6	Xattotlar juda quvnoq bo‘lishi kerak.	*	*

Diqqat qiling! **Payt ravishlari**

avval / oldin **keyin / so‘ng**



Avval maktabga boramiz, keyin darslarga qatnashamiz.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 64 22/08/24 14:29

5. **Rasmlarga qarang. Berilgan so‘zlardan foydalanib namunadagidek gaplar tuzing.**

yaratmoq
qiziqmoq
yorliq
guvohnoma
tabriknoma
qoralama
nusxa
jarohatlanmoq

Namuna: *Avval o‘yla, keyin so‘yla.*

1. … o‘yla, … so‘yla.
2. ... qishloqda yashaganmiz, … shaharga ko‘chdik.
3. … Samarqandni aylanamiz, … Buxoroga boramiz.
4. … ovqatlan, … uy vazifangni bajarasan.
5. … tushlik qilaylik, … kutubxonaga ketamiz.
6. … mevalarni yuv, … yeymiz.

A




avval, keyin

B



oldin, so‘ng

D




avval, keyin

E



avval, so‘ng

F



oldin, so‘ng

G



oldin, keyin

Avval, keyin, oldin, so‘ng so‘zlari ishtirok etgan 5 ta gap tuzing. Ularni kalligrafik ko‘rinishda yozishga urinib ko‘ring.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 65 22/08/24 14:29

Esdalik daftari

13

1. **Tinglang.**



2. **Savollarga javob bering.**

1. Siz esdalik daftari haqida nimalarni bilasiz?
2. Esdalik daftari nega kerak?
3. O‘quvchining esdalik daftarida nimalar bor?
4. Malika esdalik daftariga nimalarni to‘playdi?

3. **O‘qing. Bilib oling.**

Esdalik daftari tutish xobbi hisoblanadi. Esdalik daftarining bo‘sh sahifalari bezaklar va rasmlar bilan bezatiladi, xotira yoziladi. Esdalik daftari tutishdan asosiy maqsad kelajak avlodlar uchun xotiralarni saqlab qolishdir. Esdalik daftari tutish xobbisi XV–XVI asrlarda paydo bo‘lgan. Birinchi esdalik oddiygina kitobda to‘plangan.

Bu xobbi 2001 – 2005-yillarda juda ommalashgan. 2000-yildan ko‘plab tashkilotlar esdalik daftari uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqargan.

Esdalik daftariga odamlar oilalaridagi yorqin lahzalarni to‘plaganlar.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 66 22/08/24 14:30

4. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna:

hisoblanadi / Esdalik daftari / xobbi / tutish
Esdalik daftari tutish xobbi hisoblanadi.

1. hisoblanadi / Esdalik daftari / xobbi / tutish
2. kitobda / esdalik daftari / Birinchi / to‘plangan / oddiygina
3. bezatiladi / sahifalari / rasmlar bilan / Esdalik daftarining / bo‘sh
4. juda / 2001 – 2005-yillarda / Bu / ommalashgan / xobbi
5. Esdalik daftari / paydo bo‘lgan / xobbisi / tutish / XV–XVI asrlarda

to‘plamoq
esdalik daftari
xotira
sahifa
bezak
qahramon
avlod
saqlamoq
hujjatlashtirmoq

5. Yashirin so‘zlarni toping.

a	t	m	r	n	a	ng	q	d	o
a	o‘	s	a	s	v	e	a	s	m
f	p	t	h	x	l	s	h	a	m
b	l	u	s	o	o	d	r	q	a
e	a	t	a	t	d	a	a	l	l
z	m	m	h	i	k	l	m	a	a
a	o	o	i	r	s	i	o	m	sh
k	q	q	f	a	a	k	n	o	m
e	m	r	a	e	h	i	a	q	o
o	o	r	o	f	i	z	m	r	q

Hozir ommalashgan “Skrapbuking” xobbisi haqida ma’lumot to‘plab keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 67 22/08/24 14:30

Velosiped

1. **O‘qing.**

Jasur: Ustoz, Akmal va Azizaga mening havasim keladi.

O‘qituvchi: Nega?

Jasur: Chunki ular maktabga velosipedda keladilar.

O‘qituvchi: Senga velosipedda yurish yoqadimi?

Jasur: Erta tongdan velosipedda yurish maza-da!

O‘qituvchi: Bilaman. Men ham yaxshi ko‘raman, lekin velosiped haydashni bilmayman.

Jasur: Ustoz, dam olish kunlarida xiyobonga boraylik. U yerdan ijaraga velosiped olamiz. Sizga o‘zimiz o‘rgatamiz.

O‘qituvchi: Taklifingni o‘ylab ko‘raman. Rahmat!



2. **Namunadagidek gaplar tuzing.**

Namuna: *Velosiped haydash salomatlik uchun foydali.*

... salomatlik uchun foydali.

... arzon va qulay transport.

... tabiat uchun foydali.

... manzilga tez yetib boradi.

... yonilg‘i resurslarini tejaydi.

... atrof-muhit uchun zararli.

...ni boshqarish bolalarga mumkin emas.







velosiped
haydamoq
yurmoq
dam olish kunlari
taklif

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 68 22/08/24 14:30

3. Rasmlarga qarang. Namunadagidek gaplar tuzing.



Namuna:

Bitta avtomobil joyiga 20 tacha velosiped sig‘ishi mumkin.


1. Bitta … … 20 tacha velosiped sig‘ishi mumkin.
2. Butun dunyoda har yili 100 milliondan ortiq … ishlab chiqariladi.
3. “…” – dunyodagi eng mashhur velosiped poygasidir.
4. Velosiped haydash … xastaligini kamaytiradi.
5. Birinchi velosiped …da yaratilgan.





4. Boshqotirmani yeching.



Velosiped haqida qiziqarli 5 ta gap yozing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 69 22/08/24 14:30

Maktabimizda bayram

1. **O‘qing.**

1. O‘quvchilar, maktabda tanlov bo‘ladi. Siz unda faol qatnashishingiz kerak.



2. Zo‘r-ku! Albatta qatnashamiz.




3. Ustoz, qanaqa tanlov?



4. Sinfni bayramona bezatish, rasmlar tanlovi, aktyorlik mahorati.



5. Menda taklif bor. Uch guruhga bo‘linishimiz kerak.



6. Men ishlarni taqsimlayman. Sinfni hammamiz bezatamiz.



7. Men, Muxlisa va Malika rasmlar tanlovida qatnashamiz.



8. “Aktyorlik mahorati” tanlovida kim qatnashadi?




9. Aziz qatnashadi-da! Unda tug‘ma aktyorlik mahorati bor.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 70 22/08/24 14:30

2. Savollarga javob bering.

1. O‘quvchilar qaysi bayramga tayyorgarlik ko‘rmoqdalar?
2. O‘quvchilar qaysi tanlovlarda ishtirok etadilar?
3. Sinf xonasini bezatishga kim mas’ul bo‘ldi?
4. Rassomlar guruhida kimlar bor?
5. Azizning vazifasi nima?

faol
tanlov
bayramona
bezatmoq
aktyorlik mahorati
bajarmoq
qatnashmoq



Diqqat qiling! Payt mazmunli gaplar

birlik				ko‘plik			
Men	o‘yna~~moq~~+gan	-im	-da	**Biz**	o‘yna~~moq~~+gan	-imiz	-da
Sen		-ing		**Siz**		-ingiz	
U		-i		**Ular**		-lari	

*Men **rol o‘ynaganimda** hamma hayratlandi.*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 71 22/08/24 14:30

3. **Nuqtalar o‘rniga kishilik olmoshlari yoki shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘ying.**

Namuna: *Men qatnashgan**im**da.*

Men qatnashgan...da | Sen qatnashgan...da | ... qatnashganingizda | ... qatnashganida | ... qatnashganimizda | Ular qatnashgan...da

4. **Berilgan so‘zlardan foydalanib namunadagidek gaplar tuzing.**

Namuna: *O‘qituvchimiz tanlov haqida **gapirganida** biz juda xursand bo‘ldik.*

kelganingizda | taqsimlaganida | kirganimizda | ~~gapirganida~~ | chizganingda | rol o‘ynaganida

1. O‘qituvchimiz tanlov haqida ... biz juda xursand bo‘ldik.
2. Sen rasm ... yorqin ranglardan foydalan.
3. Laziza vazifalarni ... biz uni diqqat bilan tingladik.
4. Biz sinfga ... hamma yoq bezatilgan edi.
5. Aziz ... ... hammani lol qoldiradi.
6. Siz ... biz bahslashayotgan edik.

Siz quyidagi qaysi tanlovda faol ishtirok etgan bo‘lar edingiz? Fikringizni yozib keling.


- devoriy gazetalar;
- aktyorlik mahorati;
- qo‘shiq kuylash;
- raqsga tushish;
- she’rxonlik.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 72 22/08/24 14:30

Dizayner bo‘laman

1. **Tinglang.**

14



2. **Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri**

1	Sinfni bezatishda yorqin ranglardan foydalanadilar.	*	*
2	Murod qor parchalarini yasadi.	*	*
3	Yorqin ranglar kayfiyatni ko‘taradi.	*	*
4	Qor parchalarini derazaga yopishtiramiz.	*	*
5	Laziza ishlarni taqsimladi.	*	*
6	Shodiya va Malika Qorbobo yasadilar.	*	*

3. **O‘qing. Bilib oling.**

yorqin
kayfiyat
yorug‘lik
shinam
interyer
quvonch
ruhiyat
xotirjamlik

Zamonaviy interyer dizaynerlari uy, ofis va turli xonalarni bezaydilar. Ular ranglarning inson ruhiyatiga ta’sirini yaxshi biladilar.

Yashil – tinchlantiruvchi xususiyatga ega. Bu rang bolalar uchun juda zarur. Yashil rang bolalarning o‘qish tezligini oshiradi. Intellektual salohiyatiga (IQ) ijobiy ta’sir qiladi. Dizaynerlar sinf xonalari, bolalar maydonchalari va dars xonalari yashil rangda bo‘lishini tavsiya qiladilar.

Qizil – insonlarga quvonch beradi, kayfiyatni ko‘taradi.


Pushti – tabiat va gullar bilan bog‘liq. Go‘zallik va noziklikni ifodalaydi. Yuvinish xonasini ta’mirlashda pushti rangdan foydalanish mumkin.

Moviy – uyqu, dam olish, xotirjamlik rangi. Yotoqxonalar uchun mos rang.


56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 73 22/08/24 14:30

4. Rasmlarga qarang. Matn asosida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Qizil rang kayfiyatni ko‘taradi. Oshxona jihozi uchun mos rang.*



Sinf xonasini bezatish uchun archa o‘yinchog‘ini yasang. Qanday yasaganingizni tushuntirib bering.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 74 22/08/24 14:30

Olamni ranglarda ko‘raman

1. **O‘qing.**



Salom! Mening ismim – Aziza. Men ertak qahramonlarini chizyapman. O‘rtoqlarim meni “tug‘ma iste’dod” deyishadi. Chunki mening otam fotograf, onam rassom. Ranglarni ishlatishdan qo‘rqmayman. Onam aytadilar: “Haqiqiy rassom chiroyli chizishi va o‘z yo‘nalishini topishi kerak”.



Mening ismim – Umida. Men tabiat tasvirini chizishni yaxshi ko‘raman. Oila a’zolarim bilan birga sayohatga ko‘p chiqaman. Shuning uchun manzaralarni chizaman. Tabiatda cheksiz ranglar bor. Men olamni ranglarda ko‘raman.



Mening ismim – Madina. Men kichkinaligimda juda ko‘p rasm chizganman. Onam rasmlarni xonamga ilib qo‘yadilar. Ularga qarab zavqlanaman. Hozir men Qorbobo va Qorqizning rasmini chizyapman.

2. **Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri**


1	Madina ertak qahramonlarini chizyapti.	*	*
2	Umida tabiat tasvirini chizishni yaxshi ko‘radi.	*	*
3	Madinaning xonasida rasmlar ko‘p.	*	*
4	Azizaning otasi fotograf.	*	*
5	Umida oilasi bilan sayohatga ko‘p chiqadi.	*	*
6	Aziza Yangi yil bayrami tasvirini chizdi.	*	*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 75 22/08/24 14:30

3. Rasmlarga qarang. So‘zlarni toping.



o	z	g‘	o	q





q	a	m	a	l	y	o‘	m

o‘	y	b	o	q






l	b	e	r	m	o	t

a	p	l	i	t	a	r



o‘	r	ch	i	ch	i	g‘





q	a	m	l	a

z	i	ch	ch	i	g‘

4. Topishmoqlarning javobini toping.

Sirti tayoq,
Ichi bo‘yoq.

Rangi har xil,
Nomi bir xil.

Chizib qo‘ysang noto‘g‘ri,
Yo‘q qiladi birpasda.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 76 22/08/24 14:30

5. **Rasmlarga qarang. Gaplar tuzing.**



Aziza



Umida



Madina







6. **Savollarga javob bering.**

1. Rasm chizish uchun qanday o‘quv qurollari kerak?
2. Palitraning vazifasi nima?
3. Xatolarni nimada o‘chirish mumkin?
4. Molbertdan kimlar foydalanadi?
5. Qaysi taniqli rassomlarni bilasiz?

Mo‘yqalam, chizg‘ich, palitra, qog‘oz, chizmoq, o‘chirmoq, bo‘yamoq so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 77 22/08/24 14:30

Aktyor bo‘laman



1. **O‘qing.**

Men kichkinaligimda ko‘p ertak tinglar va multfilm ko‘rar edim. O‘zimni ertak qahramonlariday tutardim. 1-sinfga borganimda ilk bor sahnada she’r o‘qiganman. O‘shanda qattiq hayajonlanganman. Yuragim tez-tez urgan.

Keyin maktabimizda bo‘lgan turli tadbirlarda qatnashdim. Menga rollar ijro etish juda yoqadi. Qahramonlarning holatiga kiraman. Voqeani his qilaman. Ularning tilidan gapiraman.

Bugun maktabimizda Yangi yil bayrami. Men sehrgar rolini o‘ynayman. Bu rolga juda ko‘p tayyorlandim. Men sehrgar libosini kiydim. Endi o‘zimga ishonchim ortdi. Qo‘limda tayoqcha bo‘ladi. U bilan sahnadagi voqealarni o‘zgartirib yuboraman. Boshlovchilarning menga navbat berishlarini kutyapman.

Menga omad tilang!

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 78 22/08/24 14:30

2. Savollarga javob bering.

1. Hikoya kimning tilidan aytilgan?
2. Siz kichkinaligingizda qanday ertaklarni eshitgansiz?
3. Siz qaysi multfilm qahramoniga taqlid qilgansiz?
4. Iskandar bayramda qaysi rolni ijro etadi?
5. Sizda sehrli tayoqcha bo‘lsa, nima qilar edingiz?

sahna
hayajonlanmoq
rol
ijro etmoq
sehrgar
tayoqcha
boshlovchi
o‘zini tutmoq

3. Yashirin so‘zlarni toping.

a	a	a	k	t	y	o	r	f	g
l	b	a	y	r	a	m	a	d	d
s	s	e	h	r	g	a	r	f	d
a	t	a	y	o	q	ch	a	b	n
n	s	a	h	n	a	m	e	d	d
q	a	h	r	a	m	o	n	s	b
p	b	o	sh	l	o	v	ch	i	l

4. Qismlarni birlashtirib, namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Men katta bo‘lganimda aktyor bo‘laman.*

1	2	3
Men	holatiga kirganimda	u tayyor emas edi.
Ko‘p	katta bo‘lganimda	hayajonlanganman.
Qahramonlarning	tayyorgarlik ko‘rganimizda	aktyor bo‘laman.
Boshlovchi	chiqqanimda	rolimiz zo‘r chiqadi.
Ilk bor sahnaga	uni chaqirganida	ularning tilidan gapiraman.

Yangi yil tadbirida qanday rol o‘ynagan bo‘lardingiz?
O‘zingiz tanlagan qahramon rasmini chizing va uning nutqini tayyorlang.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 79 22/08/24 14:30



ADABIY O‘QISH: Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi

HIKOYAT

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda podshohlik qilgan. U shu yurtda bir bog‘ barpo ettirgan. Unga “Bog‘i Boburiy” deb nom qo‘yildi. Bog‘ga turli-tuman mevali daraxtlar ekildi. Ularning barchasi juda ko‘p hosil bera boshladi.

Bog‘bonlar bog‘ga qovun ekishibdi. Lekin urug‘larning ko‘pi unib chiqmabdi. Unib chiqqanlari ham gul tugmasdan so‘lib qolibdi.

Bobur ov qilishga chiqib ketganida bog‘bonlar Andijonga qovun olib kelishga ketibdilar. Ular yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, bir oy deganda manzilga yetib boribdilar. So‘ngra ot-aravalarga qovun ortib, tezda izlariga qaytibdilar. Yana bir oy deganda Hindistonga yetib kelibdilar.

Bir kuni Bobur shoh bog‘bonga yuzlanibdi.

Bobur: Menga bir qovun keltirsangiz.

Bog‘bon: Olampanoh, qovun so‘ragan ekansiz. Mana, olib keldik.

Bobur: Qovun qaysi bog‘da bitgan?

Bog‘bon: “Bog‘i Boburiy”da, olampanoh.

Bobur: Sen menga yolg‘on gapiryapsan. Qovun men bilgan o‘lkada bitgan.

Bog‘bon: Yo‘q, olampanoh, sizni aldaganim yo‘q. Bu qovun “Bog‘i Boburiy”da bitgan.

Bobur: Sen mening vajohatimni bilasan, agar yolg‘on gapirayotgan bo‘lsang, senga og‘ir jazo beraman.

Bog‘bon podshoh bog‘ni borib ko‘rsa-chi deb o‘ylab, xavotirga tushibdi.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 80 22/08/24 14:30

Bog‘bon: Shahanshohim, bir qoshiq qonimdan kecheng. To‘g‘risini aytsam, bu qovun Andijondan keltirilgan.

Bobur: Barakallo, barakallo! Vazirlar, bog‘bonga zarbof chopon olib kelingiz.

Bog‘bon: Olampanoh, sizga bir savolim bor.

Bobur: Qani, qanaqa savol ekan, beraver.

Bog‘bon: Olampanoh, qovunni yurtingizdan keltirganimizni qanday bildingiz?

Bobur: Yoshligimda otamning bog‘ida xuddi shunday hidli, shirin shakarpalak yetishtirishar edi.



Rasm muallifi: X. Nazirov

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 81 22/08/24 14:30

III bo‘lim

Vaqtni boshqarish

15

1. **Tinglang.**



2. **Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri**

1	Akmal “Shum bola” asarini o‘qiyapti.	*	*
2	Aziza kitob o‘qishga vaqt topolmayapti.	*	*
3	Akmal ko‘p vaqtini kompyuter o‘yinlariga sarflayapti.	*	*
4	Aziza akasidan ishchanroq.	*	*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 82 22/08/24 14:30

3. Quyidagi matnni o‘qing. Bo‘sh o‘rinlarni mos gaplar bilan to‘ldiring.

Vaqtni boshqarish haqida nimalarni bilasiz?

Vaqtni boshqarishning eng oddiy usuli reja tuzishdir. Reja tuzganingizda quyidagilarga e’tibor bering:

1. ___ _____ ____. Omadli insonlar reja bilan ishlaydilar. Ular ertangi kun rejalarini kechqurun belgilaydilar. Shuning uchun ularning doim “kunlik rejalari” bo‘ladi.


A) “Yo‘q” deyishni o‘rganing.

B) Kunlik reja tuzing.

D) Rejalarni qog‘ozga yozing.

2. ___ ____ ____. Rejadagi ishlarni ketma-ket bajarish shart. Buning uchun rejalaringizni qog‘ozga yozing. Ular sizga xarita bo‘lib xizmat qilsin.

3. ____ ____ _____. Rejangizga faqat muhim vazifalarni kiriting. Ro‘yxatda bo‘lmagan ishlarga vaqt sarflamang.



4. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Uy vazifalarini bajarish – Azizaning doimiy mashg‘uloti.*

★ vaqti-vaqti bilan bajaradigan mashg‘ulot

★★ sevimli mashg‘ulot

★★★ doimiy bajaradigan mashg‘ulot

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 83 22/08/24 14:30

Akmal	Mashg‘ulotlar	Aziza
★★★	uy vazifalarini bajarish	★★★
★★☆	to‘garaklarga borish	★★☆
★★★	sport bilan shug‘ullanish	★☆☆
★☆☆	uy ishlariga yordamlashish	★★★
★☆☆	televizor tomosha qilish	★☆☆
★★☆	kompyuter o‘yinlarini o‘ynash	★☆☆
★☆☆	kitob o‘qish	★★☆
☆☆☆	nonushta qilish	★★★
★☆☆	xobbilar bilan shug‘ullanish	★☆☆
★★☆	dam olish	★☆☆
★☆☆	uy hayvonlarini boqish	☆☆☆

5. Yuqoridagi jadval asosida siz ham o‘z rejalaringizni yozing. Yulduzchalar qo‘yib, mashg‘ulotlaringizning xususiyatlarini aniqlang.

Yashirin so‘zlarni toping.

a	v	a	t	u	g	a	t	m	o	q	t	v	b	n
ch	e	e	t	a	q	s	i	m	l	a	m	o	q	ch
s	a	r	f	l	a	m	o	q	o	l	o	p	h	y
v	l	y	n	b	r	e	g	r	e	j	a	e	r	a
b	o	sh	q	a	r	m	o	q	u	d	u	s	u	l
h	i	b	e	l	g	i	l	a	m	o	q	s	a	r
k	o	r	o‘	y	x	a	t	e	n	o	i	z	ch	h

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 84 22/08/24 14:30

Tezkor javob

1. O‘qing.



QR-kod inglizcha “Quick Response” birikmasidan olingan. Bu birikma “tezkor javob” ma’nosini anglatadi.

QR-kod – kodlangan ma’lumot, kvadrat shaklli tasvirdir. **QR-kod** Yaponiyada ixtiro qilingan. U dastlab avtomobil sanoatida ishlatilgan. Hozir barcha sohalarda qo‘llanadi. Unga rasm, video, matn va xaritalarni joylasa bo‘ladi.

Zamonaviy telefonlar **QR-kodli** ma’lumotlarni oson faollashtiradi. Buning uchun telefon kamerasini **QR-kodga** tutish kerak.


2. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *QR-kod Yaponiyada ixtiro qilingan.*

1. QR-kod  da ixtiro qilingan.

2. QR-kod  shaklli tasvirdir.

3. Zamonaviy  lar QR kodli ma’lumotlarni oson faollashtiradi.

4. QR-kodga  , matn va xaritalarni joylashtirish mumkin.

Diqqat qiling!

...ga ... kerak:


Aziza kitob sotib olmoqchi. Unga pul kerak.
Men boks to‘garagiga bormoqchiman. Menga qo‘lqop kerak.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 85 22/08/24 14:30

3. Rasmlarga qarang. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Biz shirinlik pishirmoqchimiz. Bizga un kerak.*

1. Biz shirinlik pishirmoqchimiz. Bizga ... kerak.
2. Siz yo‘talyapsiz. Sizga … kerak.
3. Ular adashib qoldilar. Ularga … kerak.
4. Aziza teatrga bormoqchi. Unga … kerak.
5. Yomg‘ir yog‘yapti. Sizga … kerak.




4. Rasmlarga qarang. Gaplarni davom ettiring.

1. Men QR-kodni faollashtirmoqchiman. ...





2. Ular taom buyurtma qilmoqchilar. ...





3. Biz bankka mashinada keldik. ...





3. Sen judayam chanqagansan. ...



...*ga* ... ***kerak*** qolipi asosida gaplar tuzing va yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 86 22/08/24 14:30

Ishbilarmon Hasan

1. O‘qing.

Kunlardan bir kun Hasan e’lon o‘qib qolibdi. Unda “Zomin qo‘riqxonasi” nomli kitob sotilayotgani va uni “Ziyokor” kitob do‘konidan sotib olish mumkinligi haqida yozilgan edi. Bir kundan keyin Hasan “Ziyokor” kitob do‘koniga boribdi. Kitob yuz ming so‘m turar ekan.

Hasan kitobga pul topishi kerak edi. Otasidan pul so‘ray olmas edi, chunki otasi Hasanning tabiatga qiziqishini qo‘llab-quvvatlamaydi. O‘zida esa pul yo‘q. Shundan so‘ng Hasan yuz ming so‘mni mehnati bilan topishni maqsad qilibdi.

Uning ikkita quyoni bor edi. Ularni ellik ming so‘mga sotibdi. Bir haftadan keyin bir ayolning o‘tinlarini ko‘chadan hovlisiga tashib beribdi. Ayol unga o‘n ming so‘m beribdi. Jamg‘argan puli oltmish ming so‘m bo‘libdi.

Hasan gullarini o‘n ikki ming so‘mga sotibdi. U bir tabibga giyoh terib beribdi. Ikki haftadan keyin jamg‘argan puli to‘qson ming so‘mga yetibdi. Bir kuni Hasanga akasi ish buyuribdi. Ish haqiga esa bo‘yinbog‘ beribdi. Hasan uni olmabdi. Bo‘yinbog‘ning pulini so‘rabdi. Nihoyat, Hasanning puli yuz ming so‘m bo‘libdi.

Hasan do‘kondan kitobni sotib olibdi va maqsadiga yetibdi.



2. Savollarga javob bering.

1. Hasanning hikoyasi nima haqida?
2. Hasan ishbilarmonmi? Sizning fikringiz qanday?
3. Siz bunday vaziyatda nima qilgan bo‘lar edingiz?

3. To‘g‘ri javoblarni tanlang.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 87 22/08/24 14:30

1. Hasan “Zomin qo‘riqxonasi” nomli kitob sotilayotganini qanday bildi?






2. Hasanning tabiatga qiziqishini kim qo‘llab-quvvatlamas edi?





jamg‘armoq
nihoyat
ish haqi
yetmoq

3. Hasanning akasi ish haqiga nima bergan?





4. Matn asosida nuqtalar o‘rnini kerakli ma’lumotlar bilan to‘ldiring.

1.	* * *	50 ming so‘m
2.	O‘tin tashigani uchun haq	10 ming so‘m
3.	* * *	18 ming so‘m
4.	Gul sotgani uchun haq	* * *
5.	Akasining ishini qilgani uchun haq	* * *
Jami		**100 ming so‘m**

5. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Hasan kitoblarni judayam sevadi. Unga kitoblarni sotib olish uchun pul kerak.*

1. Hasan kitoblarni judayam sevadi. ... kitoblarni sotib olish uchun pul ... .
2. Kitob olishiga ozroq pul yetmayapti. … 30 ming … .
3. Qo‘shni ayol o‘tinlarini tashiy olmaydi. … Hasanning yordami … .
4. Akasi Hasanning ish haqiga bo‘yinbog‘ berdi, lekin … bo‘yinbog‘ … … .
5. Bir tabib Hasanning yordamiga muhtoj, chunki … giyohlar … .
6. Nihoyat Hasan yuz ming so‘mni ishlab topdi, endi … boshqa pul … … .

Yig‘moq, jamg‘armoq, ish haqi, ishbilarmon so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing va yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 88 22/08/24 14:30

Tejamkorlik

1. Savollarga javob bering.


1. “Ishbilarmon Hasan” hikoyasi yodingizdami?
2. Hasan o‘z maqsadiga erishish uchun nimalar qildi?
3. Oila byudjeti haqida eshitganmisiz? U haqida nimalarni bilasiz?

2. O‘qing. Diagramma haqida mulohaza yuriting.

Tejamkorlik juda muhim. Pulni ortiqcha sarflash yaxshi odat emas. Chunki ota-onalar pul ishlab topish uchun ko‘p mehnat qiladilar.

Tejamkorlik pulni kerakli joyga sarflashni anglatadi. Odamlar tejamkorlik orqali asosiy maqsadlariga erishadilar. Bu oila byudjeti uchun ham foydali.

Keling, birgalikda oila byudjeti haqida aniqroq va kengroq bilib olamiz.



3. Savollarga javob bering.

1. Tejamkorlik nima?
2. Siz o‘zingizni tejamkor deb hisoblaysizmi?
3. Oila byudjeti nimalardan iborat?
4. Maktab xarajatlari oila byudjetining qaysi qismiga kiradi?
5. Sarmoya haqida nimalarni bilasiz?

tejamkorlik
oila byudjeti
kommunal to‘lov
birgalikda
pul topmoq

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 89 22/08/24 14:30

4. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Tejamkorlik oila uchun muhim.	*	*
2	Oila byudjetida katta xarajatlar yo‘q.	*	*
3	Tejamkorlik bu – pulni kerakli joyga sarflash.	*	*
4	Xarajatlarning katta qismini boshqa narsalar tashkil etadi.	*	*
5	Oila oziq-ovqat uchun eng ko‘p xarajat qiladi.	*	*
6	Kiyim-kechak va kommunal to‘lov xarajatlari teng.	*	*

5. “Boburning oylik xarajatlari” jadvali asosida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Bobur ikki oyda o‘quv qurollariga bir xil miqdorda pul sarfladi. O‘quv qurollari uchun unga ortiqcha pul kerak emas.*

Xarajatlar	O‘tgan oyda (so‘mda)	Bu oyda (so‘mda)
1. Yo‘lkira	40 000	60 000
2. Tushlik	200 000	–
3. O‘quv qurollari	50 000	50 000
4. Mashg‘ulotlar	300 000	150 000
5. Boshqa xarajatlar	–	30 000

1. Bobur o‘tgan oyda avtobusdan foydalandi. Bu oyda esa taksidan ham foydalanmoqchi. Shuning uchun … 20 000 so‘m ortiqcha pul … .
2. Bobur bu oyda tushlikni uyidan olib kelyapti. Endi … tushlik uchun pul umuman … … .
3. Bu oyda Bobur muzeyga boradi. … boshqa xarajatlar uchun 30 000 so‘m … .
4. Bobur bu oyda karate mashg‘ulotiga bormayapti. Endi … 150 000 so‘m … … .

“Mening bir oylik xarajatlarim” jadvalini to‘ldiring. O‘tgan oy xarajatlari va bu oy xarajatlarini taqqoslab, xulosangizni yozib keling.


56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 90 22/08/24 14:30

Animatsion filmlar

16

1. Tomosha qiling.










Manba: Oyina.uz

2. Savollarga javob bering.

1. Animatsion filmda qanday voqea aks etgan?
2. Kitob kutubxonadan nega chiqib ketdi?
3. Filmdagi odamlar nega rangsiz tasvirlangan?
4. Animatsion filmlarda narsalarning harakatlanishi qanday yuz beradi? Siz buni o‘ylab ko‘rganmisiz?

3. O‘qing. Bilib oling.

Multfilm tomosha qilmagan bola bo‘lmasa kerak. Hatto kattalar ham multfilmlarni yaxshi ko‘radilar. E’tibor berganmisiz, ba’zi filmlarda hayvonlar yoki predmetlar odamlarday harakatlanadi. Odamlarning qiyofasi va harakati esa boshqacha ifodalanadi. Bunday filmlar animatsiya yordamida tayyorlanadi.



Animatsiya – alohida tasvirlarning yuqori tezlikda ketma-ket ko‘rsatilishi.

Animatsiya yordamida fantastik kinolar, multfilmlar va videoo‘yinlar ishlanadi. Ilk animatsion filmlarni yaratishga juda ko‘p vaqt sarflangan. 10 daqiqalik animatsion film sakkiz oyda tayyor bo‘lgan.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 91 22/08/24 14:30

Animatsion filmlardagi ba’zi murakkab harakatlarni kompyuterda chizib bo‘lmaydi. Bu harakatlarni faqat aktyorlargina bajara oladi. Animatsiya yordamida aktyorlarning ana shu harakatlari virtual qahramonlarga ko‘chiriladi.

4. Matn asosida nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying.

1. Barcha bolalar … tomosha qilganlar.
2. Bunday filmlar … yordamida tayyorlanadi.
3. Animatsiya yordamida fantastik kinolar, … va … yaratiladi.
4. Animatsion filmlardagi ba’zi murakkab harakatlarni ... chizib bo‘lmaydi.

Akmalning, Azizaning va Ilhomning multfilmlarga bergan ta’riflarini o‘qing. Ular qaysi multfilmlar haqida gapirganini toping.



Menga sherlar haqidagi multfilm juda yoqadi. Unda Simba, Nala kabi qahramonlar ishtirok etgan. Simba – qo‘rqmas shervachcha. Amakisi yovuz. Simbaning hikoyasi tomoshabinlarga yoqadi. Multfilmda “Hakuna Matata” qo‘shig‘i kuylangan. Bu multfilmning nomi – ____ .

Q	*	*	*	l	sh	*	*

Menga uzun sochli qiz haqidagi multfilm yoqadi. U onasi bilan o‘rmonda yolg‘iz yashaydi. Aslida qizning ota-onasi qirol va malikadir. Qizning sochlari sariq va juda uzun edi. Unga sochi hamma ishda yordam beradi. Qizning eng yaqin do‘sti – mitti buqalamun. Bu multfilmning nomi – ___ .



R	*	*	*	*	z	*	l



Menga ikki opa-singil haqidagi multfilm yoqadi. Opasi mehnatkash, singlisi esa dangasa bo‘ladi. Ularning otasi o‘rmondan o‘tin teradi. Bir kuni opasi o‘rmonda adashib qoladi va unga bir kampir uchraydi. Kampir qizga sandiq beradi. Qiz esa boyib ketadi. Bu multfilmning nomi – ___ .

Z	*	*	r	*	*	v	a	*	*	m	m	*	*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 92 22/08/24 14:30

Uyingiz qayerda?

1. O‘qing.

– Allo! Assalomu alaykum!
– Vaalaykum assalom!
– Bu gilam yuvish xizmatimi?
– Ha, bu – gilam yuvish xizmati.
– Uyimizga xodimlaringizni yuborasizmi?
– Albatta, yuboramiz. Uyingiz qayerda?
– Uyimiz Yashnobod tumani Aviasozlar ko‘chasida joylashgan. Biz 69-uyda yashaymiz.
– Bizga uyingizning joylashuvini ham yubora olasizmi?
– Xo‘p bo‘ladi! Hozir yuboraman.
– Rahmat! Xodimlarimiz tez orada siz bilan bog‘lanadilar.

– Assalomu alaykum! Biz gilam yuvish xizmatidan qo‘ng‘iroq qilyapmiz.
– Vaalaykum assalom! Eshitaman.
– Biz Aviasozlar ko‘chasiga yetib keldik, ammo yo‘lda ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ekan.
– Uyimizga boshqa yo‘ldan kelsa bo‘ladi. Atrofingizda nimani ko‘ryapsiz?
– Biz Sayohat ko‘chasidagi 10-maktabning yonida turibmiz.







2. Rasmga qarang. Yuqoridagi dialogning davomini ko‘chiring. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying.



– Maktabdan keyin bank bor. Bankdan keyin Navro‘z mahallasiga buriling. … savdo markazi, … bog‘cha bor. Bog‘chaning … yana … qayriling. 300 metr yuring. Chapda “Dunyo” restorani bor. Bizning uyimiz restoranning ….

orqasida
chapda
o‘ngda
o‘ngga
yonidan

3. Savollarga javob bering.

1. Joylashuv nima? U qanday ishlaydi?
2. Mijozning uyi qayerda joylashgan?
3. Gilam yuvish xizmati xodimlari mijozlarning uyini oson topish uchun nima qiladilar?

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 93 22/08/24 14:30

4. O‘qing. Bilib oling.

Xaritalar qadimdan juda muhim hisoblangan. Odamlar ulardan tez-tez foydalanganlar. Hozir elektron xaritalar ham mavjud. Elektron xaritadan telefon va kompyuter orqali foydalanamiz. Undan foydalanish uchun internet aloqasini ishga tushirish kerak.

5. Elektron xaritalardan qanday ma’lumotlarni olish mumkin?

Turgan joyingiz haqida ma’lumot olish mumkin.	*	*
Biror manzilga qanday borish haqida ma’lumot olish mumkin.	*	*
Avtobus va taksi yo‘nalishlari haqida ma’lumot olish mumkin.	*	*
Kommunal to‘lovlar haqida ma’lumot olish mumkin.	*	*
Yo‘ldagi tirbandliklar haqida ma’lumot olish mumkin.	*	*

Diqqat qiling! Buyruq mayli.

bor~~moq~~ +…		Bo‘lishsiz	So‘roq	Bo‘lishsiz-so‘roq
Men	–	–	–	–
Sen	bor	borma	–	–
U	borsin	bormasin	borsinmi?	bormasinmi?
Biz	–	–	–	–
Siz	boring	bormang	–	–
Ular	borsinlar	bormasinlar	borsinlarmi?	bormasinlarmi?

6. Berilgan fe’lni buyruq maylida tuslang.

qayril~~moq~~ +…		Bo‘lishsiz	So‘roq	Bo‘lishsiz-so‘roq
Men	–	–	–	–
Sen			–	–
U		*qayrilmasin*		
Biz	–	–	–	–
Siz	*qayriling*		–	–
Ular				*qayrilmasinlarmi?*

Uyingizga kelayotgan mehmonlar adashib qolsa, ularga manzilni qanday tushuntirasiz? Xarita chizing va yo‘nalishni yozma bayon qiling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 94 22/08/24 14:30

Internet do‘kon

1. **Tinglang.**

17



2. **Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri**

		✓	✗
1	Jamshid ro‘yxatdagi hamma narsani olib kelgan.	*	*
2	Xurshida turmush o‘rtog‘idan arazladi.	*	*
3	Jamshid shirinliklar do‘koniga kirishni unutgan.	*	*
4	Xurshida ilovadan buyurtma qilishni bilmaydi.	*	*
5	Ular ilovadan birga buyurtma qilmoqchilar.	*	*

3. **O‘qing. Bilib oling.**

Bugun mahsulotlarni sotishning turli shakllari mavjud. Tadbirkorlar an’anaviy shaklda, onlayn shaklda va aralash shaklda savdo qiladilar.

Eng avval an’anaviy savdo shakli paydo bo‘lgan va u hozir ham bor. An’anaviy savdo shaklidan bozorlarda, savdo markazlarida va oddiy do‘konlarda foydalaniladi.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 95 22/08/24 14:30

Internetning rivojlanishi onlayn savdo shaklini vujudga keltirdi. Natijada internet do‘konlar paydo bo‘ldi. Internet do‘kon bu – mahsulotlarni internet orqali sotishga mo‘ljallangan veb-sayt.

Internet do‘konda savdo masofadan turib amalga oshiriladi. Internet do‘kon orqali hatto boshqa davlatdan mahsulotlarni sotib olish mumkin.

Tadbirkorlar hozir odamlarga qulaylik yaratyaptilar. An’anaviy savdo shaklidagi do‘kon egalari onlayn shaklda ham savdo qilyaptilar.

Aralash savdo shaklida tadbirkorlar ko‘proq foyda oladilar. Xaridorlar esa uzoqdagi mahsulotlarni ham xarid qiladilar.



4. Savollarga javob bering.

1. Bugun mahsulotlarni sotishning qanday shakllari mavjud?
2. An’anaviy savdo shaklidan qayerlarda foydalaniladi?
3. Internet do‘kon nima?
4. Sizga xarid qilishning qaysi shakli yoqadi?



5. So‘zlarni ajratib, namunadagidek gaplar hosil qiling.

Namuna: *Bugungi kunda mahsulotlarni sotishning turli shakllari mavjud.*

1. Bugungikundamahsulotlarnisotishningturlishakllarimavjud.
2. Engavvalan’anaviysavdoshaklipaydobo‘lganvauhozirhambor.
3. Internetningrivojlanishionlaynsavdoshaklinivujudgakeltirdi.
4. Tadbirkorlarhozirodamlargaqulaylikyaratyaptilar.
5. Aralashsavdoshaklidatadbirkorlarko‘proqfoydaoladilar.



Onlayn buyurtma, yetkazib bermoq, qabul qilmoq, jo‘natmoq, tadbirkor so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing va yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 96 22/08/24 14:30

Onlayn buyurtma

1. **Tinglang.**

18



2. **Savollarga javob bering.**

1. Onlayn buyurtma berishning qanday turlari bor?
2. To‘lov qilishning qanday turlari mavjud?
3. Mahsulotni yetkazib berishning qanday turlarini bilasiz?

3. **Ko‘rsatmalarni rasmlar bilan moslashtiring.**

A. Buyurtmani rasmiylashtirish: telefon raqamini kiritish.

B. “Savatcha”dagi mahsulotlarning miqdorini o‘zgartirish, ortiqchasini chiqarib yuborish.

D. Buyurtmani rasmiylashtirish: ism va familiyani kiritish.

E. Buyurtmani rasmiylashtirish: to‘lov turini tanlash.



1-F



2-?



3-?



4-?

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 97 22/08/24 14:30

F. Veb-sahifani yoki ilovani faollashtirish.

G. Buyurtmani rasmiylashtirish: yetkazib berish turini tanlash.

H. Buyurtmani rasmiylashtirish: geolokatsiyani yuborish.

I. Mahsulotni tanlash, uning xususiyati bilan tanishish va “savatcha”ga joylash.



4. Rasmlarga qarang. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Internet do‘kon xodimlariga plastik karta ma’lumotlarini to‘liq* **bermang**.

1. Internet do‘kon xodimlariga plastik karta ma’lumotlarini to‘liq (*bermaslik)*.
2. Kuryerni uzoq (*kuttirmaslik)*.
3. Kuryerga (*jahl qilmaslik)*.
4. Joylashuvni to‘g‘ri (*yubormoq)*.
5. O‘zingizga qulay vaqtda (*buyurtma qilmoq)*.



5. Harflar orasiga yashiringan so‘zlarni toping.

Nxoaninternetdo‘konxgshbuyurtmazumlpyetkazibberishvsilosqep
savatchatutlkzsanjiropurikstgeolokatsiyaudurchkuryero‘riara24soat
oliyxtanlashmo‘njukrasmiylashtirishiviqevxaridorapelpinonlayndarinbut

Uyda taom tayyorlash va taom buyurtma qilishning afzalliklari haqida yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 98 22/08/24 14:30

Himoya vositalari

1. O‘qing.



1 Men idishlarni yuvganimda qo‘llarimga qo‘lqop kiyaman.

Men jamoat joylarida yurganimda antiseptik vositalardan foydalanaman. 2





3 Men kompyuterda ko‘p ishlayman. Ko‘zlarim zararlanmasligi uchun ko‘zoynak taqaman.

Biroz shamolladim. Yaqinlarimga yuqmasligi uchun tibbiy niqob taqaman. 4





5 Men velosiped haydashni o‘rganyapman. Mashg‘ulot paytida boshimga himoya qalpog‘ini kiyaman.

2. Savollarga javob bering.

1. Siz qanday himoya vositalarini bilasiz? Sanab bering.
2. Himoya vositalarining vazifasi nima?

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 99 22/08/24 14:30

3. **Rasmlarga qarang. Yashiringan so‘zlarni toping.**



qoqlpo‘	qo‘lqop
eniptikats oisvta	***
biybit nobiq	***
ko‘yozkan	***
miyaho polqag‘i	***

4. **Qismlarni birlashtirib, namunadagidek gaplar tuzing.**

Namuna: *Sog‘lom bo‘lish uchun ko‘proq piyoda yur.*

Harorat	bo‘lish uchun	50–60 cm uzoqlikda	olib kel.
Menga	doim	bosh kiyim	piyoda yur.
Sog‘lom	quyoshdan himoyalovchi	ko‘proq	kiying.
Qo‘llaringizni	ekranidan	sovunlab	o‘tiring.
Kompyuter	ko‘tarilganda	ko‘zoynak	yuvinglar.

5. **Rebusni yeching.**

1. 

2. 

Himoya vositalari sizni nimalardan himoya qilishi mumkinligi haqida 50–60 ta so‘zdan iborat matn tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 100 22/08/24 14:30

Belgilar nima deydi?

1. O‘qing.

Dilnoza: Oyi, ishdan kelguningizcha kir kiyimlarni yuvib qo‘ygan edim. Tug‘ilgan kunimga sovg‘a qilgan qora ko‘ylagingizning rangi o‘zgarib qoldi.

Oyisi: Ko‘ylakni kir yuvish mashinasiga solayotganda undagi yorliqqa qaradingmi?

Dilnoza: Yo‘q, yorliqda nima bo‘ladi?

Oyisi: Kiyimlar sintetik, tabiiy jun va paxtadan tayyorlanadi. Shuning uchun ularning har birini to‘g‘ri yuvish, quritish va tozalash qoidalariga rioya qilish kerak.

Dilnoza: Men xato yuvibman-da?

Oyisi: Ha, agar sen kiyimlarni yuvish ko‘rsatmalari va tavsiyalariga qat’iy amal qilsang, ulardan uzoq vaqt foydalanishing mumkin.



2. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Dilnozaning onasi tug‘ilgan kuniga qora ko‘ylak sovg‘a qildi.	*	*
2	Dilnoza noto‘g‘ri yuvgani uchun kiyimning sifati buzildi.	*	*
3	Onasi kiyimni ko‘rib, Dilnozadan xafa bo‘ldi.	*	*
4	Kiyimlar sintetik, tabiiy jun va paxtadan tayyorlanadi.	*	*
5	Yorlig‘idagi ko‘rsatmalarga amal qilinsa, kiyim uzoq vaqt xizmat qiladi.	*	*

3. O‘qing. Bilib oling.

1. Kir yuvish mashinasida kirlarni yuvish mumkin.

2. Faqat qo‘lda yuvish mumkin.

3. 40 gradus haroratdagi iliq suvda yuvish mumkin.

4. Kir yuvish mashinasida siqish va quritish mumkin.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 101 22/08/24 14:30



5. Siqish mumkin emas.



6. Dazmollash mumkin emas.



7. 120 gradusgacha haroratda dazmollang.



8. 200 gradusgacha haroratda dazmollang.



4. **Quyidagi belgilarni izohlang.**









5. **Yashiringan so‘zlarni toping.**

s	i	n	t	e	t	i	k	n	o
i	r	k	i	y	i	m	i	l	u
s	a	y	o	r	l	i	q	l	i
t	o	z	a	l	a	sh	n	a	z
f	u	t	e	d	a	z	m	o	l
q	u	r	i	t	i	sh	e	k	a
l	y	n	a	y	u	v	i	sh	p
v	o	h	a	r	o	r	a	t	d



Yuvmoq, quritmoq, ilmoq, siqmoq fe’llari ishtirokida gaplar tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 102 22/08/24 14:30

Tug‘ilgan kun

1. **O‘qing.**

1. Sizlarni tug‘ilgan kunimga taklif qilaman.



2. Rahmat, albatta boramiz.

3. Irodaning tug‘ilgan kuniga nima sovg‘a qilamiz?

6. Unda nima sovg‘a qilamiz?



4. Unga katta ayiq sovg‘a qilamiz.

7. Masalan, sen qanday sovg‘a olishni xohlar eding?

5. Yo‘q. U o‘yinchoqlarni yoqtirmaydi.

8. Menga kitob sovg‘a qilishlarini xohlar edim.

9. Topdim! Unga bo‘yoqlar to‘plamini sovg‘a qilamiz. Axir u chizishni yaxshi ko‘radi-ku.



10. Ajoyib! Tabriknoma va tilaklar ham yozamiz.

2. **Rasmlar asosida yuqoridagi matnni qayta hikoya qiling.**



3. **Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying.**

Qadrli ...!
Seni tug‘ilgan kuning bilan .... Senga ...,
... tilaymiz. Barcha orzularing ... .
... ... sinfdoshlaring.

amalga oshsin
tabriklaymiz
Iroda
sog‘liq
omad
Hurmat bilan

4. **Suhbatlashing.**

1. Tug‘ilgan kuningizni kimlar bilan o‘tkazishni xohlaysiz?



* * *



* * *



* * *

2. Tug‘ilgan kuningizni qayerda o‘tkazishni xohlaysiz?



* * *



* * *



* * *

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 103 22/08/24 14:30

3. Tug‘ilgan kuningizni qanday o‘tkazishni xohlaysiz?



* * *



* * *



Xayol surib

uyda
oila a’zolarim bilan
qo‘shiq aytib va raqsga tushib
hech narsa
restoranda
do‘stlarim bilan
qiziqarli o‘yinlar o‘ynab
kitob
yolg‘iz o‘zim
o‘yingohda
~~xayol surib~~
tabriklar va tilaklar

4. Tug‘ilgan kuningizda qanday sovg‘a olishni xohlaysiz?



* * *



* * *



* * *

Diqqat qiling! Shart mazmunli gaplar

Agar sen xohla**sa**ng, tug‘ilgan kunga hamma keladi.

(AGAR)	Men	xohla~~moq~~+SA	-m,	tug‘ilgan kunga hamma keladi.
	Sen		-ng,	
	U		-,	
	Biz		-k,	
	Siz		-ngiz,	
	Ular		-lar,	

5. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Agar u tilak bildirsa, xursand bo‘laman.*

1. Agar u tilak (*bildirmoq*), xursand bo‘laman.
2. … do‘stlarim (*kelmoq*), maroqli suhbat bo‘ladi.
3. … Akmal (*kelmoq*), gitara chalib beradi.
4. … ovqat (*tayyor bo‘lmoq*), dasturxon atrofida yig‘ilamiz.
5. Agar siz uyda (*qolmoq*), men bog‘da sayr qila olmayman.

Do‘stingizning tug‘ilgan kuni uchun tabriknoma tayyorlang. Unga tilaklaringizni yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 104 22/08/24 14:31

Jamoat joylarida

1. Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

1. Jamoat joylari deganda nimani tushunasiz?
2. Siz qanday jamoat joylarida bo‘lgansiz?
3. Jamoat joylarining qoidalarini bilasizmi?










2. O‘qing.

Biz ko‘p vaqtimizni odamlar orasida o‘tkazamiz. Odamlar ko‘p bo‘lgan joylar jamoat joylari deyiladi. Teatr, muzey, maktab, hayvonot bog‘i, jamoat transportlari, savdo markazlari jamoat joylaridir. Bunday joylarda har bir kishi o‘zini tutishni bilishi kerak.

Jamoat joylarida o‘zini tutishning bir qancha qoidalari bor. Masalan, hayvonot bog‘ida panjaralarga osilish taqiqlanadi. Yirtqich hayvonlarga yemish berish mumkin emas.

Teatrga 10 – 15 daqiqa avval borish kerak. Kiyimlarni garderobga topshirish lozim. Yegulik olib kirish mumkin emas. Hamma o‘z o‘rnida o‘tirishi zarur. Baland ovozda gapirish, telefonda gaplashish madaniyatsizlikdir. Tomosha tugamasdan avval chiqib ketmang. Bu aktyorlarga nisbatan hurmatsizlikni bildiradi.

Jamoat joylarida tartib-qoidalarga rioya qiling, boshqalarga xalaqit bermang. O‘zingizga ham, boshqalarga ham noqulaylik tug‘dirmang.

3. Rasmlar asosida fikr yuriting.









56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 105 22/08/24 14:31

4. Suhbatlashing.

	 Chipta olayotganda navbatda turish kerak.	 Avtobusda ovqatlanish odobdan emas.	 Samolyotda telefondan foydalanish taqiqlanadi.	 Piyodalar o‘tish joyidan velosipedni yetaklab o‘tish kerak.
To‘g‘ri	***	***	***	***
Noto‘g‘ri	***	***	***	***
Bilmayman	***	***	***	***
Buning nimasi noto‘g‘ri?	***	***	***	***

5. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Agar biz teatrga o‘z vaqtida borsak, hech kimga xalaqit bermaymiz.*

1. Agar biz teatrga o‘z vaqtida bormoq,	• odobsizlik bo‘ladi.
2. Agar biz kattalarga joy ber(ma)moq,	• hech kimga xalaqit bermaymiz.
3. Agar sen tutqichdan ushla(ma)moq,	• boshqalarga xalaqit berasan.
4. Sen kutubxonada baqirmoq,	• tanbeh eshitaman.
5. Men navbatda tur(ma)moq,	• yiqilib ketasan.

Yugurmoq, yurmoq, joy bermoq, yo‘l bermoq fe’llari ishtirokida gaplar tuzib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 106 22/08/24 14:31

Jamoat transporti

1. **Rasmlarga qarang. Transport nomlarini toping.**















56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 107 22/08/24 14:31

2. Yashirin so‘zlarni toping.

b	a	v	t	o	b	u	s	g	s
n	r	s	a	m	o	l	y	o	t
m	e	t	r	o	t	a	k	s	i
x	t	r	a	m	v	a	y	e	t
z	p	**p**	**o**	**y**	**e**	**z**	**d**	t	y
t	r	o	l	l	e	y	b	u	s
q	v	e	l	o	s	i	p	e	d
m	o	t	o	t	s	i	k	l	m

Jamoat transporti	Shaxsiy transport
poyezd	*mototsikl*
* * *	* * *

3. Rasmlarga qarang. Gaplarni rasmlar bilan o‘zaro moslashtiring.

Yozilmagan qoidalar









A. Tushayotganlarga yo‘l bering!
B. Yegulik bilan chiqmang!
D. Kattalarga joy bering!
E. Kattalarga joy berish odobdan.

4. Belgilarni ma’lumotlarga moslang.



1. __ Keksalar uchun ajratilgan maxsus o‘rindiqlar bor. Ularga o‘tirmaslik kerak.

2. __Bu joy yosh bolali ayollar va homiladorlar uchun. Siz bu joyni band qilmang.

3. __Bolalar aravachasi va nogironlar aravachasi uchun maxsus joy.

Jamoat transportlarining qay biri sizga qulay? Nega? Fikringizni yozing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 108 22/08/24 14:31

Muzeyda

1. **Rasmlardagi vaziyatlarni o‘rganing. Suhbatlashing.**











2. **Yuqoridagi rasmlar asosida ma’lumotlarni tartiblang.**

A) O‘quvchilar eksponatlarga tegindilar.	...
B) O‘quvchilar kiyimlarini garderobga topshirmadilar.	**1**
D) O‘quvchilar muzeyda shovqin solib rasmga tushdilar.	...
E) O‘quvchilar gidga quloq solmadilar.	...
F) Muzey xodimi o‘quvchilarga tanbeh berdi.	...

3. **O‘qing. Bilib oling.**

- Kiyimlarni garderobga topshiring.
- Navbat bilan yuring.
- Gidni diqqat bilan tinglang.
- Gidga minnatdorlik bildiring.



- Baland ovozda gapirmang.
- Yugurmang.
- Yegulik yemang.
- Eksponatlarga teginmang.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 109 22/08/24 14:31

4. Savollarga javob bering.

1. Siz muzeylarda mumkin va mumkin bo‘lmagan yana qanday qoidalarni bilasiz?
2. Muzey xodimlarining ko‘rsatmalari haqida bilasizmi?
3. Qanday muzeylarda bo‘lgansiz?

5. Mos so‘zni tanlang. Shart mazmunli gaplarni hosil qiling.

1. Agar dadam (*gapirmoq, ketmoq, ruxsat bermoq*), do‘stlarim bilan muzeyga boraman.
2. U dinozavr qoldiqlarini (*ushlamoq, ko‘rmoq, o‘qimoq*), rasmga oladi.
3. Agar sen muzeyda (*yugurmoq, tomosha qilmoq, rasmga tushmoq*), tanbeh eshitasan.
4. Biz tariximizni yaxshi (*o‘rganmoq, eshitmoq, bormoq*), ota-onamiz xursand bo‘ladi.
5. Ular eksponatlarga (*ushlamoq, teginmoq, rasmga olmoq*), zarar yetishi mumkin.

6. Rebusni yeching.

1) 

2) 

3) 

Muzeylar haqida nimalarni bilasiz? Bilganlaringizni yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 110 22/08/24 14:31

Bog‘da

1. O‘qing.

Madina bo‘sh vaqtlarini bog‘da o‘tkazadi. U bog‘ga borganida doim rasm daftarini olib boradi. Ko‘pincha biror daraxt tagiga o‘tiradi va bog‘ manzaralarini, bolalarning rasmini chizadi. Bugun osmon va qushlarning rasmini chizdi.

Madina bog‘da ko‘p vaqt qolib ketdi, shuning uchun uning qorni och qoldi. Portfelidagi buterbrodni olib yedi. Nihoyat rasm ham tayyor bo‘ldi. Juda chiroyli chiqdi. Rasmni ko‘rib xursand bo‘ldi.


Endi u uyiga qaytishi kerak. Uyiga qaytayotganida oyog‘i bir narsaga tegdi. Pastga qaradi. Suv idishi ekan. Madinaning biroz jahli chiqdi. Suv idishini oldi va chiqindi qutisiga tashladi.

U juda chanqadi. O‘zi bilan suv olib kelmagan edi. Bog‘dagi favvoradan to‘yib suv ichdi. Negadir kechqurun uning qorni qattiq og‘ridi.

2. Savollar tuzing. Suhbatlashing.

1	Madinaning	daraxtning tagida o‘tirishi	to‘g‘rimi?	ha	yo‘q
2		bog‘da rasm chizishi		ha	yo‘q
3		bog‘da ovqatlanishi		ha	yo‘q
4		suv idishini chiqindi qutisiga tashlashi		ha	yo‘q
5		favvoradan suv ichishi		ha	yo‘q

Bog‘dagi holatni kuzating.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 111 22/08/24 14:31

3. Rasm asosida quyidagi vaziyatlarga munosabat bildiring.

maysani bosish	favvoradan suv ichish	kitob o‘qish
favvorada cho‘milish	ovqat pishirish	muzqaymoq yeyish
velosipedda uchish	rasmga tushish	musiqa tinglash
	bolalar aravachasi bilan kirish	

1. musiqa tinglash 2. * * * 3. * * *	1. velosipedda uchish 2. * * * 3. * * *

4. O‘qing. Yod oling.

1. Bola aziz, odobi undan aziz.
2. Inson – odobi bilan,
   Osmon – oftobi bilan.
3. Odob oltindan qimmat.
4. Yaxshi xulq – kishining husni.

Jamoat joylarida yana qanday qoidalar bo‘lishini xohlar edingiz? Rasmlar bilan ifodalang.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 112 22/08/24 14:31

Maktabimiz oshxonasida

1. Rasmga e’tibor bering. Suhbatlashing.



2. O‘qing.

Har bir maktabda oshxona bo‘ladi. Tanaffusda hamma shu yerga shoshadi. Maktab oshxonasida turli yeguliklar bor. Biz shirinliklar va ichimliklar sotib olamiz. Tushlikda esa issiq ovqat yeymiz.

Maktab oshxonasida ovqatlanish qulay. Ammo ba’zan juda shovqin bo‘ladi.

Oshxonada ovqatlanishning o‘z qoidalari bor. Ularga amal qilinmasa, tartibsizlik yuzaga kelishi mumkin. Bu qoidalarni hamma bilishi va amal qilishi kerak.

1. Oshxonaga tartib bilan kiring.
2. Ovqat yeyishdan oldin va keyin qo‘llaringizni yuving.
3. Ovqatni maxsus idishlarda iste’mol qiling.
4. O‘g‘zingizda ovqat bilan gapirmang.
5. Og‘iz va qo‘llaringizni salfetka bilan arting.
6. Ovqatdan so‘ng idishlarni yuvish uchun tartib bilan olib boring.
7. Oshxona xodimlariga rahmat aytishni unutmang.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 113 22/08/24 14:31

3. Rasmlarga qarang. Vaziyatlarni solishtiring.



4. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Agar o‘z vaqtida ovqatlansak, darsga kech qolmaymiz.	*	*
2	Agar oshxona xodimlariga rahmat aytilsa, ular xursand bo‘ladilar.	*	*
3	Agar siz ovqatlangandan keyin stolni tozalasangiz, boshqalar ham bu stolda ovqatlanishi mumkin.	*	*
4	Agar ovqatdan oldin qo‘lingizni yuvsangiz, kasal bo‘lmaysiz.	*	*
5	Agar u tartibga amal qilsa, hech kimdan tanbeh eshitmaydi.	*	*

Jamoat joylarida ovqatlanish qoidalaridan qaysilarini bilasiz? Bu qoidalar haqida 5–6 ta gap tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 114 22/08/24 14:31

Kiyimlar

1. Rasmlar asosida fikr yuriting.



2. Savollarga javob bering.

1. Kiyimlar insonga nega kerak?
2. Kiyimlar insonlarning yashash joyi bilan bog‘liqmi? Izohlang.

3. O‘qing. Bilib oling.

Kiyim inson yaratgan eng qadimiy ixtirolardan biridir.

Ibtidoiy odamlarning kiyimlari hayvonlarning terisidan, daraxtlarning bargidan, qushlarning patidan bo‘lgan. Keyinroq matodan tikiladigan kiyimlar paydo bo‘lgan.

Bu kiyimlar odamlarni sovuqdan, issiqdan va yog‘indan himoya qilgan.

Kiyimlar mavsumga qarab o‘zgaradi. Mavsumiy kiyimlarning qishki, yozgi va kuzgi-bahorgi turlari bor.

Qishki kiyimlar qalin va issiq bo‘ladi. Bular: etik, palto, kurtka, bo‘yinbog‘, qalpoq va qo‘lqopdir.

Yozgi kiyimlar esa yupqa va yengil bo‘ladi. Yupqa ko‘ylak, futbolka, sandal, shlyapalar yozgi kiyimlardir.

Insonlar doimo ob-havoga qarab kiyinishlari kerak.

4. Berilgan so‘z(birikma)lar ishtirokida gaplar tuzing.

mato | ixtiro | qushlarning pati | ob-havo | qalin va issiq

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 115 22/08/24 14:31

5. **Kiyimlar nomini jadvalga moslab yozing.**


palto


nimcha


telpak


futbolka


ko‘ylak


etik


shlyapa


tufli


plash


qo‘lqop


ko‘ylak


yaktak


belbog‘


yubka


qalpoq


chopon

Qishki kiyimlar	Kuzgi-bahorgi kiyimlar	Yozgi kiyimlar
* * *	* * *	* * *
* * *	* * *	* * *

6. **Rasmlar asosida namunadagidek gaplar tuzing.**

Namuna: *Qishda issiq kiyim kiyiladi.*










Kiymoq, yechmoq, bog‘lamoq, o‘ramoq, taqmoq fe’llari ishtirokida gaplar tuzing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 116 22/08/24 14:31

Kiyinish madaniyati

1. Rasmlar asosida fikr yuriting.








2. Savollarga javob bering.

1. Kiyinish madaniyati nima?
2. Maxsus kiyim haqida nimalarni bilasiz?
3. Maktab formasi sizga yoqadimi?

3. O‘qing. Bilib oling.

Kiyimlar maqsadga ko‘ra turlarga bo‘linadi:

Bayram kiyimlari	Kundalik kiyimlar	Maxsus kiyimlar
Bayram kiyimlari chiroyli va nafis bo‘ladi.	Ular qulay va oddiy bo‘lishi kerak.	Bularga sport kiyimlari, maktab formasi va kasb kiyimlari kiradi.
Ular mehmondorchilik, to‘y, teatr va bayramlarda kiyiladi.	Kundalik kiyimlar uyda, kechki sayrlarda kiyiladi.	Harbiylar, shifokorlar, o‘t o‘chirish xizmati xodimlari doim maxsus kiyimda bo‘ladilar.
Bayram kiyimidagi kishiga ko‘pchilik e’tibor qaratadi.	Bunday kiyimda odam erkin harakat qiladi.	Harbiycha kiyingan odam o‘z-o‘zidan shaxdam qadamlar tashlaydi.

Kiyimlar inson tabiatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ularni o‘z o‘rnida kiyish madaniyat belgisidir.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 117 22/08/24 14:31

4. **Quyidagi narsa-buyumlarning nomini kerakli ustunga moslab, yozib chiqing.**



Sayohat	Maktab
* * *	* * *
* * *	* * *
* * *	* * *

5. **Rasmlarga diqqat qiling. Kiyimlar to‘g‘ri tanlanganmi?**



O‘zingizga yoqadigan kiyinish uslubi haqida yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 118 22/08/24 14:31

Kim nimani yaxshi ko‘radi?

1. O‘qing.

1 Mening ismim – **Laylo.** Yoshim 13 da. Men “YouTube”da “Ibrat farzandlari” sahifasini kuzataman. Bu yerda chet tillarini o‘rganish mumkin. Men ingliz va turk tillarini o‘rganyapman.





2 Mening ismim – **Anna.** Men 12 yoshdaman. “Vatandoshlar” platformasining obunachisiman. O‘zbek tilini o‘rganyapman. O‘zbek tili juda chiroyli va boy til.

3 Ismim – **Bobur.** Yoshim 13 da. Men tabiat va hayvonot olamiga qiziqaman. Ular haqidagi ma’lumotlarni “Dunyo bo‘ylab” telekanalidan bilib olaman.



2. Savollarga javob bering.

1. Laylo ijtimoiy tarmoq sahifalaridan nimalarni o‘rganyapti?
2. Anna qaysi platformaning obunachisi?
3. Qaysi ijtimoiy tarmoqlardan til o‘rganish mumkin?
4. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ta’lim olish mumkinmi?

3. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	“Vatandoshlar” platformasidan o‘zbek tilini o‘rganish mumkin.	*	*
2	“Dunyo bo‘ylab” telekanalidan har qanday ma’lumotni topish mumkin.	*	*
3	“Ibrat farzandlari” sahifasida tabiatga oid videolarni ko‘rish mumkin.	*	*
4	Bobur “Vatandoshlar” platformasida tabiatga oid ma’lumotlarni o‘qiydi.	*	*
5	Anna “Ibrat farzandlari” sahifasida ingliz va turk tillarini o‘rganyapti.	*	*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 119 22/08/24 14:31

4. Gaplarni *mumkin / mumkin emas* so‘zlari bilan to‘ldiring.

1. Ijtimoiy tarmoqlar ortiqcha **vaqt olishi mumkin.**
2. Men internet orqali istalgan ma’lumotlarni _____ _____.
3. Bolalarga barcha internet sahifalariga _____ _____.
4. Sen ijtimoiy tarmoqlardan chet tillarini _____ _____.
5. Biz istalgan ma’lumotlarni _____ _____.

~~vaqt olishi~~	kirish	o‘rganishing	qidirishimiz	topishim

5. Yashirin so‘zlarni toping.

q	k	u	z	a	t	m	o	q	k	l
a	t	a	r	m	o	q	n	m	p	o
z	s	p	l	a	t	f	o	r	m	a
s	a	t	a	b	i	a	t	t	e	j
s	a	h	i	f	a	h	m	e	u	r
l	m	a	u	t	h	a	l	o	q	a
j	v	a	q	t	t	k	l	a	m	n
q	n	a	q	i	d	i	r	m	o	q

ku....oq	pla....ma	s....a	v.q.
t....q	tab...	...qa	.....moq

Ijtimoiy tarmoqning foydali tomonlari aks etgan kichik matn yozing. Matn 45–60 ta so‘zdan iborat bo‘lsin.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 120 22/08/24 14:31

Ijtimoiy tarmoq odobi

1. O‘qing.

Biz kundalik hayotimizda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanamiz. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ko‘pgina kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lish, yangi bilimlarni olish, do‘stlar bilan suhbatlashish mumkin.

Hozir ijtimoiy tarmoqlar orqali biznesni rivojlantirish imkoniyati ham mavjud. Ammo ulardan foydalanishning o‘ziga xos qoidalari bor. Ba’zi kishilar ijtimoiy tarmoqlarga ko‘p vaqt sarflashadi. Buning oqibatida turli kasalliklar yuzaga kelishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarga bemaqsad kirib, turli o‘yinlar o‘ynashga vaqt sarflamaslik kerak. Boshqalar bilan muloqot qilganda esa qo‘pol, behayo so‘zlarni ishlatmaslik ijtimoiy tarmoq odoblaridan biridir.

2. Rasmlarni vaziyatga moslang.



A	Onlayn savdo bilan shug‘ullanish mumkin.	2	●
B	Kerakli ma’lumotlar tez topiladi.	*	*
D	Ko‘p vaqt turli o‘yinlar o‘ynasa bo‘ladi.	*	*
E	Dars tayyorlash ham mumkin.	*	*
F	Uzoq vaqt foydalanilsa, turli kasalliklar kelib chiqishi mumkin.	*	*
G	Ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolish mumkin.	*	●
H	Uzoqdagi do‘stlar bilan suhbatlashsa ham bo‘ladi.	*	*
I	Ba’zi kishilar suhbatlashayotganda qo‘pol so‘zlarni ishlatishadi.	*	*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 121 22/08/24 14:31

3. Savollarga javob bering.

1. Siz ham ijtimoiy tarmoqlardan foydalanasizmi?
2. Qanday ijtimoiy tarmoqlarni bilasiz?
3. Bir kunda ijtimoiy tarmoqqa qancha vaqt sarflaysiz?
4. Sizni ko‘proq nima qiziqtiradi (o‘yin, videolar)?

ijtimoiy tarmoq
do‘stlar
me’yor
muloqot
foydalanmoq
vaqt sarflamoq

4. Bosh o‘rinlarga kerakli harflarni qo‘ying.

i***r**t	m**o**t	v**t
s***o	i***m**y t*r**q	b*l*m

5. Maqollarni o‘qing. Ularning mazmunini ijtimoiy tarmoq odobi bilan bog‘lab fikr bildiring.

1. Aytilgan so‘z – otilgan o‘q.
2. Achchiq savol berib,
   Shirin javob kutma.
3. Aql yoshdan,
   Odob boshdan.
4. So‘z aytganda o‘ylab ayt,
   Oqibatin bilib ayt.
5. Vaqting ketdi – naqding ketdi.

Ijtimoiy tarmoqlarning foydali hamda zararli tomonlarini yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 122 22/08/24 14:31



ADABIY O‘QISH: Alisher Navoiy ijodi

HIKMATLAR

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado, oning haqin yuz ganj ila.

* * *

Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir.
Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa, tilning ofatidir.

* * *

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur.

* * *

Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa, obod aylagay.

* * *

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan – olim,
Orlanib so‘ramagan – o‘ziga zolim.

* * *

Adab kichik yoshlig‘larni ulug‘lar duosig‘a sazovor etar.

* * *

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 123 22/08/24 14:31

IV bo‘lim

Uyqu qanday paydo bo‘ladi?



1. O‘qing.

Nega tunda uxlaymiz? Bu savol sizni ham qiziqtirganmi? Buning javobi juda oddiy.



Bizning tanamizda melatonin va kortizol gormonlari mavjud. Ular uyqumiz uchun javobgardir. Melatonin – uyqu gormoni.

Qorong‘i bo‘lganda melatonin gormoni tanani tinchlantira boshlaydi. Tana dam olishga tayyorlanadi va odam uxlaydi.



Tong otganda tana kortizol gormonini ishlab chiqaradi. U bizni uyg‘otadi. Kortizol gormoni tetiklikni oshiradi.



Agar siz kechasi uxlamasangiz, tanangiz melatonin o‘rniga ko‘proq kortizol ishlab chiqara boshlaydi. Bu esa tananing dam olmasligiga sabab bo‘ladi. Natijada odam charchagan holda uyg‘onadi.

Sog‘lom bo‘lish uchun bir kunda 8 soat uxlash kerak. Agar doim 8 soatdan kam uxlasangiz, sizda turli kasalliklar paydo bo‘ladi. Kechasi uyquning buzilishi immunitet susayishiga olib keladi.

2. Savollarga javob bering.

1. Qaysi gormon uyquni chaqiradi va qaysi gormon uyquni qochiradi?
2. Ko‘p uxlashning qanday zarari bor? Siz bu haqda nimalarni bilasiz?
3. Immunitet nima?

3. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Melatonin – uyqu gormoni.	*	*
2	Kortizol gormoni tanani tinchlantiradi.	*	*
3	Sog‘lom bo‘lish uchun bir kunda 8 soat uxlash kerak.	*	*
4	Tongda tana melatonin gormoni sababli tetiklashadi.	*	*
5	Kechasi uyquning buzilishi immunitet susayishiga olib keladi.	*	*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 124 22/08/24 14:31

Diqqat qiling! Ruxsat mazmunidagi “mumkin” modal so‘zi

Bolalar, bizning darsimiz tugadi, endi siz uyingizga ketishingiz mumkin.

uxla~~moq~~+-sh/ish+…+mumkin		So‘roq	Bo‘lishsiz
Men	uxlash-im mumkin	uxlashim mumkinmi?	uxlashim mumkin emas
Sen	uxlash-ing mumkin	uxlashing mumkinmi?	uxlashing mumkin emas
U	uxlash-i mumkin	uxlashi mumkinmi?	uxlashi mumkin emas
Biz	uxlash-imiz mumkin	uxlashimiz mumkinmi?	uxlashimiz mumkin emas
Siz	uxlash-ingiz mumkin	uxlashingiz mumkinmi?	uxlashingiz mumkin emas
Ular	uxlash-lari mumkin	uxlashlari mumkinmi?	uxlashlari mumkin emas



4. Kishilik olmoshlarini namunadagidek moslashtiring.

Men	ko‘rishing mumkin	U	so‘rashim mumkin
Sen	ko‘rishimiz mumkin	Biz	so‘rashing mumkin
U	ko‘rishim mumkin	Men	so‘rashi mumkin
Biz	ko‘rishlari mumkin	Siz	so‘rashimiz mumkin
Siz	ko‘rishi mumkin	Ular	so‘rashingiz mumkin
Ular	ko‘rishingiz mumkin	Sen	so‘rashlari mumkin

5. O‘qing. Fe’llarni namunadagidek tuslang.

Saida: Oyijon, ovqatimni yeb bo‘ldim.
Onasi: Agar (sen) xohlasang, (sen) yana ovqat *(yemoq)* *yeyishing* mumkin.
Saida: Yo‘q, to‘ydim. Men oshxonada sizga *(yordam bermoq)* mumkinmi?
Onasi: Ha, albatta, sen *(yordam bermoq)* mumkin.
Saida: Menga yana biror ish buyurasizmi?
Onasi: Yo‘q. Sen bemalol darslaringni *(tayyorlamoq)* mumkin.
Saida: Men kompyuterdan *(foydalanmoq)* mumkinmi?
Onasi: Hali shifokor ruxsat bermadi.

Mumkin va *mumkin emas* so‘zlari ishtirok etgan 10 ta gap tuzib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 125 22/08/24 14:31

Fazogirlar kundaligi

1. O‘qing.

Siz koinot odamlari haqida eshitganmisiz? Koinot odamlari fazogirlardir. Fazogirlar vaqtincha koinotda ishlaydilar. Ular koinotni o‘rganuvchi kishilardir. Fazogirlar Yerdagi odamlarday kun tartibiga amal qiladilar. Ular ham ovqatlanadilar, ishlaydilar va uxlaydilar. Lekin fazogirlarning ovqatlanishi va uxlashi biroz boshqacha.





Fazogirlarning ovqatlari yengil bo‘ladi, chunki ovqat tez va oson hazm bo‘lishi kerak. Fazogirlar tarkibida suv bo‘lmagan ovqatlarni yeydilar. Bunday ovqatlar yaxshi holatda saqlanadi va chiqindisiz bo‘ladi. Kosmik kemaning ichida tortishish kuchi yo‘q, shuning uchun u yerda ovqatlanish juda qiyin.

Kosmik kemalarda uyqu qoplari bor. Ular devorga yopishtirilgan. Fazogirlar ana shu uyqu qoplarida uxlaydilar. Uyqu qoplarining muhim vazifasi bor. Ular fazogirni jarohat olishdan himoya qiladi. Fazogirlar ko‘pincha 6 soat uxlaydilar.



2. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Fazogirlar kosmik kemalarni yasaydilar.	*	*
2	Fazogirlar tarkibida suv bo‘lmagan ovqatlarni yeydilar.	*	*
3	Kosmik kemalarda ovqatlanish oson.	*	*
4	Fazogirlar uyqu qoplarida uxlaydilar.	*	*
5	Fazogirlar doim kosmosda yashaydilar.	*	*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 126 22/08/24 14:31

3. Berilgan kalit so‘zlar yordamida bo‘sh kataklarga qanday so‘z mosligini toping.

Koinot odamlari	Koinotni o‘rganadilar
Vaqtincha koinotda yashaydilar	?

Suvsiz	Chiqindisiz
Yaxshi saqlanadi	?

Devorga yopishtirilgan	Jarohatlanishdan asraydi
6 soat	?

4. Namunadagidek gaplar tuzing.


Namuna: *Fazogirlar fazoga skafandrsiz **chiqishlari mumkin emas.***

1. Fazogirlar fazoga skafandrsiz (chiqmoq).
2. Fazogir yerga qaytgach, biroz vaqt (yurmoq).
3. U koinotda o‘zidan chiqindi (qoldirmoq).
4. Sen maxsus tayyorgarliksiz fazoga (uchmoq).
5. Biz uyqu sumkalarisiz (uxlamoq)

mumkin
yoki
mumkin emas

5. Rasmlarga qarang. So‘zlarni toping.







rigafoz | zafo | etakar | yre | drfanaks

Tasavvur qiling, siz fazogirsiz va yangi sayyora kashf etdingiz. Sayyorangizning o‘ziga xos qanday xususiyatlari bo‘lishini xohlaysiz? Unga nom bering va rasmini chizing.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 127 22/08/24 14:31

Nimaga?

1. Rasm asosida fikr yuriting. Savollarga javob bering.



1. Rasmlarda nimalar aks etgan?
2. Mevalarda nega bunday yorliqlar bo‘ladi?
3. Qaysi mevalarda yorliqlarni ko‘rgansiz?

2. O‘qing. Bilib oling.

Turli savdo do‘konlaridan (masalan, supermarket) meva olayotganda ularga yopishtirilgan kichik yorliqchalarga ko‘zingiz tushadi. Bu asosan chet eldan keladigan mevalarda bo‘ladi. Yopishtirilgan kichik yorliqchalarda raqamlar bo‘ladi.

Agar yorliqchada to‘rttalik raqam bo‘lsa, bu mahsulot odatdagidek mineral o‘g‘itlar bilan yetishtirilganini bildiradi. Agar yorliqchadagi raqam beshta bo‘lsa va 8 bilan boshlansa, bu meva GMO (genetik modifikatsiyalangan organizm) mahsulot ekanini bildiradi. Ular genetik jihatdan o‘zgartirilgan bo‘lib, odatda arzon sotiladi. Agar yorliqchadagi raqam beshta bo‘lib, 9 bilan boshlansa, bu meva organik usulda yetishtirilgan bo‘ladi. Ular biroz qimmatroq bo‘ladi.



4 ta raqam: XXXX Mineral o‘g‘itlar bilan yetishtirilgan mahsulot.



5 ta raqam: 8XXXX Genetik jihatdan o‘zgartirilgan mahsulot.



5 ta raqam: 9XXXX Organik usulda yetishtirilgan mahsulot.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 128 22/08/24 14:31

3. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Mevalardagi yorliqlar uch turga bo‘linadi.	*	*
2	Tabiiy yetishtirilgan mevalar 9 raqami bilan boshlanadi.	*	*
3	Mevalar mineral o‘g‘itlar bilan yetishtirilmaydi.	*	*
4	Bunday turdagi yorliqlar meva va sabzavotlarda bo‘ladi.	*	*
5	9, 3, 4 va 8 raqamlari bilan boshlanadi.	*	*

4. Rasmlarga qarang. Matn asosida gaplarni davom ettiring.


3411


80411


80500


90041


4441

1. Bananni mineral o‘g‘itlar yordamida o‘stirish mumkin.
2. Olma _____ * * * _____
3. Apelsin _____ * * * _____
4. Kartoshka _____ * * * _____
5. Sabzi _____ * * * _____

5. Yashirin so‘zlarni toping.

q	y	o	r	l	i	q	r	r
a	j	r	a	q	a	m	j	u
z	o‘	s	t	i	r	i	sh	l
x	k	i	m	y	o	v	i	y
v	t	a	b	i	i	y	k	o
f	q	o‘	sh	m	o	q	l	l
h	j	g	e	n	e	t	i	k

Meva va sabzavotlarning yorliq raqamlarini toping. Ularni turlarga ajratib yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 129 22/08/24 14:31

Gul o‘stirganmisiz?

1. **O‘qing.**


azaliya


kliviya


aloy


atirgul


potos


lola


binafsha


nargis


fikus


chinnigul

2. **Bo‘laklarni birlashtirib, so‘zlar toping.**



3. **O‘qing.**

Umarning gullari

Bir kuni mashg‘ulotga ketayotgan edim. Ko‘p qavatli uyning hovlisida singan gultuvak yotar edi. U uylarning biridan pastga tushib ketgan. Gulga biroz termilib qoldim. Uning ildizi tuproqdan uzilgan, yaproqlari esa ezilgan edi. Keyin gullarni terdim va uyga olib keldim. Ularni suvga soldim. Bir necha kundan keyin ular ildiz chiqardi. Men judayam xursand bo‘ldim. Ularni gultuvaklarga ko‘chirdim. Gullar o‘sa boshladi. Barglari yam-yashil edi.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 130 22/08/24 14:31

Vaqt o‘tib gultuvakdagi gullar ochildi. Ularning rangi oq, pushti, qizil edi. Men juda hayratlandim. Shundan keyin gul o‘stirish mening qiziqishimga aylandi.

Xonamda juda ko‘p gullar bor. Ularni o‘zim parvarish qilaman. Har bir gulga alohida mehr beraman.

Men gullarni parvarishlash haqida ko‘p ma’lumotlarni bilaman. Ba’zi gullarga ko‘p, ba’zi gullarga kamroq suv quyish kerak. Gullarga suv quyganda ehtiyot bo‘lish lozim. Ayrim gullarning bargiga suv tegishi mumkin emas. Gultuvakning tagi teshik bo‘lmasa, gullarning ildizi chirishi zarur. O‘g‘itni ham me’yorida solish kerak.

Men gullarni mehr bilan o‘stiraman.



4. Savollarga javob bering.

1. Umarning hikoyasi nima haqida?
2. Gullarni o‘stirganda nimalarga e’tibor berish kerak?
3. Nima uchun gultuvakning tagi teshik bo‘lishi kerak?
4. Umarning xobbisi haqida sizda qanday fikr bor?

Diqqat qiling! Taxmin mazmunidagi “mumkin” modal so‘zi

Gultuvakning tagi teshik bo‘lmasa, gullarning ildizi chirishi mumkin.

bor~~moq~~+-sh/ish+…+mumkin		So‘roq	Bo‘lishsiz
Men	borish-im mumkin	borishim mumkinmi?	bor-maslik(g)-im mumkin
Sen	borish-ing mumkin	borishing mumkinmi?	bor-maslik(g)-ing mumkin
U	borish-i mumkin	borishi mumkinmi?	bor-maslik(g)-i mumkin
Biz	borish-imiz mumkin	borishimiz mumkinmi?	bor-maslik(g)-imiz mumkin
Siz	borish-ingiz mumkin	borishingiz mumkinmi?	bor-maslik(g)-ingiz mumkin
Ular	borish-lari mumkin	borishlari mumkinmi?	bor-maslik-lari mumkin

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 131 22/08/24 14:31

5. Jadvalni to‘ldiring.

ketmoq		So‘roq	Bo‘lishsiz
*	* * *	ketishim mumkinmi?	* * *
Sen	* * *	* * *	* * *
U	* * *	* * *	* * *
*	* * *	* * *	ketmasligimiz mumkin
*	ketishingiz mumkin	* * *	* * *
Ular	* * *	* * *	* * *

Kavsar Turdiyeva yozgan she’riy topishmoqlarning javobini toping. Ularni yod oling va rasmini chizing.



Nomim – “tog‘ qizi”,
Ranglarim qizil.
Bo‘laman goh-goh
Sariq hamda oq.

*	*	*	*



Gulbargim cheti arra,
Go‘yo o‘rab ko‘p karra.
Chinni ichida rosa,
Juda ko‘p chinni kosa.

*	*	*	*	*	*	*	*



Gulbargim qat-qat,
Bir necha qavat.
Uzganda kishi
Suqilar nishim.

*	*	*	*	*	*	*



Men shoshqaloq boladek,
Ko‘payaman loladek.
Rangim sariq hamda oq.
Qizlarda nomim ko‘proq.

*	*	*	*	*	*

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 132 22/08/24 14:31

Tabiat hodisalari

1. **Rasmlarga qarang. Ularga nom bering.**






shamol | yomg‘ir | tuman | do‘l

qor | momaqaldiroq | yashin





2. **Moslashtirib yozing.**

a	Shamol	b	Yashin	d	Tuman	e	Quyosh
f	Do‘l	g	Momaqaldiroq	h	Yomg‘ir	i	Qor

1-b: *Yashin* urdi.
2-: _____ gumburlayapti.
3-: _____ tushdi.
4-: _____ yog‘gan edi.
5-: _____ esyapti.
6-: _____ yog‘yapti.
7-: _____ yog‘di.
8-: _____ chiqdi.

3. **O‘qing. Bilib oling.**


Yomg‘ir – bulutlardan suv tomchilari ko‘rinishida tushadigan yog‘in. Yomg‘ir yog‘ganda o‘simliklar rivojlanadi va o‘sadi. Yomg‘ir asosan bahor va kuz faslida yog‘adi.

Shamol – ko‘zga ko‘rinmaydigan tabiat hodisasi. Shamolni ko‘rmaymiz, lekin his qilamiz. Shamol – havo massalarining atmosferadagi harakati. O‘simlik gullari shamol yordamida changlanadi.

Qor ham tabiat hodisasi. Qishda yog‘adi. Qor parchasi turli naqshli shakllarga ega, lekin bir xil naqshli ikkita qor parchasi bo‘lmaydi. Har bir qor parchasining oltita qirrasi bor. Bolalar qor o‘ynashni yoqtiradi.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 133 22/08/24 14:31

4. Ta’riflar asosida kerakli so‘zlarni qo‘ying.



5. Gaplarni namunadagidek yozing.

Namuna: *Quyosh qora bulutlar orasiga botsa, yog‘ingarchilik bo‘lishi mumkin.*

1. Quyosh qora bulutlar orasiga botsa, yog‘ingarchilik (bo‘lmoq).
2. Shamol shimoldan essa, havo (sovimoq).
3. Quyosh chiqsa, yomg‘ir (yog‘maslik).
4. Xo‘roz bemahal qichqirsa, ob-havo (o‘zgarmoq).
5. Chaqmoq chaqsa, yomg‘ir (yog‘moq).

mumkin
yoki
mumkin emas

Quyidagi jadval asosida O‘zbekistonning turli hududlarida ob-havo qanday bo‘lishi haqida ma’lumot yozib keling.

Namuna: *Bugun Toshkent viloyati va Toshkent shahrida qor yog‘ishi mumkin.*

	Hududlar	Bugun	Ertaga
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati		
2	Buxoro va Navoiy viloyatlari		
3	Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari		
4	Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari		
5	Toshkent viloyati va Toshkent shahri		
6	Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlari		

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 134 22/08/24 14:31

Ranglar yettitami?

1. **Rasmlarga qarang, ularda nimalar aks etgan? Suhbatlashing.**






2. **O‘qing. Bilib oling.**

Nega atrofimizdagi narsalar bizga qiziqarli va go‘zal ko‘rinadi? Chunki biz tabiatni, jonzotlarni va narsalarni rang-barang holda ko‘ramiz. Agar biz hamma narsani bir xil rangda ko‘rganimizda hayot juda zerikarli bo‘lar edi. Quyoshning botishi va tong otishida ranglarning o‘zgarishini kuzatish mumkin.

Fizik olim Isaak Nyuton ranglar yorug‘lik ta’sirida paydo bo‘lishini isbotlagan. Ranglarning uch xil turi mavjud. Ular – qizil, ko‘k va sariq. Boshqa ranglar ana shu uch rangning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Ko‘k va sariq rangdan yashil, qizil va ko‘k rangdan esa siyohrang paydo bo‘ladi. Qizil va sariq rangdan zarg‘aldoq rang vujudga keladi.



3. **Matn asosida ranglarni toping.**




56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 135 22/08/24 14:31

4. So‘zlarni namunadagidek to‘g‘ri joylashtirib, gaplar tuzing.

Namuna: *Rassomlar ranglarni bir-biriga qo‘shib, yangi ranglarni hosil qiladilar.*

1. ranglarni / bir-biriga / ranglarni / yangi / qo‘shib / hosil qiladilar / Rassomlar
2. insonning / ranglar / Ayrim / kayfiyatiga / ta’sir qilishi / yomon / mumkin
3. mumkin / ranglarni / insonlar / Ayrim / ajrata olmasliklari
4. yo‘q joyda / yorug‘lik / Biz / ko‘rmaymiz / ranglarni
5. Ranglar / ma’nolarni / turli / mumkin / anglatishi

5. Boshqotirmani yeching.



Kavsar Turdiyevaning “Qaydan olgan buncha rang?” she’rini yod oling.

Qaydan olgan buncha rang?

Kamalakka bir qarang,
Qaydan olgan buncha rang?
Yashil rangni o‘tloqdan,
Jigarrangni tuproqdan.

Ko‘m-ko‘k rangni osmondan,
Sariq rangni somondan.
Qorani qalamqoshdan,
Qizil rangni quyoshdan.

Shu yolg‘onmi yoki rost,
Qaysi rang nimaga xos?

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 136 22/08/24 14:31

Ekskursiya – 1

1. O‘qing.



Mening ismim – Nigora. Men 5-sinfda o‘qiyman. Sinfimiz juda inoq. Ustozimiz juda mehribon. Biz uchun tez-tez ekskursiya uyushtiradilar. Bu galgi ekskursiyamiz kiyiklar fermasiga bo‘ldi.

Ekskursiyaga qulay kiyinib, o‘zimiz bilan yeguliklar ham olib chiqdik. Hammamiz erta tongda maktabimizning oldida to‘plandik. Chiroyli, baland avtobus keldi. Avtobusga qarab yugurdik.

Yo‘l bo‘yi qiziq o‘yinlarni o‘ynadik va qo‘shiqlar aytib ketdik.

Nihoyat manzilga ham yetib bordik. Bolalar: “Ana, ana kiyiklar”, – deb yugurib ketishdi. Men u yerda birinchi marta kiyiklarni ko‘rdim. Eh-he, buncha ajoyib!..

Ekskursiya rahbari: “Bular – kiyiklarning yirik va noyob turi. Ularning vazni turlicha bo‘ladi. Oyog‘i ingichka va juft tuyoqli”, – deb ma’lumot berdi.

Fermada yana tuya, tuyaqush, ot, echkilarni ham ko‘rdik. Ularga yem berdik. U yer doim gavjum bo‘lar ekan.

Biz toza havodan nafas oldik. Tog‘dagi turli o‘simliklarni va giyohlarni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik.

Katta taassurotlar bilan uyga qaytdik. Hammaning kayfiyati a’lo edi. Lekin juda charchadik.

2. Savollarga javob bering.

1. Ekskursiya nima?
2. O‘quvchilar qayerga ekskursiyaga bordilar?
3. Bolalar kiyiklar haqida nimalarni bilib oldilar?
4. Fermada yana qanday hayvonlar bor?
5. Nega bolalarning kayfiyati a’lo?

qiziqarli
tuyaqush
gavjum
taassurot
tetik

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 137 22/08/24 14:31

3. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	O‘quvchilar ekskursiyaga tunda ketdilar.	*	*
2	Bolalar qulay kiyimlarni kiydilar va yeguliklar olib chiqdilar.	*	*
3	Tabiat juda chiroyli edi.	*	*
4	Bolalar ekskursiyadan yomon kayfiyatda qaytishdi. Lekin tetik edilar.	*	*
5	Ustozlari o‘quvchilarni ekskursiyaga tez-tez olib chiqadilar.	*	*

4. Rasmlarga qarang. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying.

1. O‘quvchilar ekskursiyaga ...da bordilar.





2. O‘quvchilar ...ga bordilar.





3. Bolalar fermada ... va ...larni ko‘rdilar.



4. … kiyiklar haqida qiziqarli ma’lumotlarni aytib berdi.





Ekskursiyaga chiqqanmisiz? Taassurotlaringizni Nigoraning hikoyasiga o‘xshatib yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 138 22/08/24 14:32

Ekskursiya – 2


1. Rasmlarga qarang. Savollar tuzing.

Namuna:
– Bu yer qayer?
– Bu yer – tabiat qo‘riqxonasi.


tabiat qo‘riqxonasi


botanika bog‘i


tarixiy obida


tarixiy shahar


muzey


uy-muzey


korxona


laboratoriya

2. O‘qing. Bilib oling.

Ekskursiya – ta’limiy yoki madaniy-ma’rifiy maqsadlarda diqqatga sazovor joylarga jamoaviy safar qilishdir. Ekskursiyada quyidagi joylarga borish mumkin.

1
Tabiatga
- botanika bog‘i
- ferma
- tog‘

2
Madaniy maskanlarga
- muzey
- san’at galereyasi
- tarixiy obida

3
Ishlab chiqarish korxonalariga
- zavod
- fabrika
- laboratoriya

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 139 22/08/24 14:32

Ekskursiya rahbari – ekskursiya o‘tkazuvchi mutaxassis. U o‘z sohasiga oid juda ko‘p ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Nutqi ravon va muloqotga tez kirishuvchan bo‘lishi lozim.

Diqqat qiling! -ga qaraganda



-ga qaraganda



Gulnoza Dilshodga qaraganda og‘ir.

Namangan Andijonga qaraganda yaqin.

3. Namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Samarqand Buxoroga qaraganda yaqin.*

1. Samarqand / Buxoro		**zerikarli / qiziq.**
2. Tog‘ havosi / shahar havosi		**ko‘p / kam.**
3. Kiyiklar fermasi / tabiat muzeyi	**-ga qaraganda**	**yaqin / uzoq.**
4. Lola / atirgul		**xavfsiz / xavfli.**
5. Yashin / chaqmoq		**iflos / toza.**

Siz qayerga ekskursiyaga borishni xohlaysiz va nima uchun? Fikringizni yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 140 22/08/24 14:32

Boshqotirma nima?

1. O‘qing.

Aziza: Akajon, sizga savolim bor. Yashil boylik. Oltita harfdan iborat. Birinchi harfi – t. Nima u? Bilasizmi?

Akmal: Xo‘sh... Tabiat bo‘lsa kerak!

Aziza: Hozir... Ha! To‘g‘ri ekan!

Akmal: Nima qilyapsan, Aziza?

Aziza: Boshqotirma yechyapman.


Akmal: O, zo‘r-ku! Boshqotirmani kim o‘ylab topgan ekan-a? Juda foydali narsa.

Aziza: Kim o‘ylab topganini bilmadim, lekin rostdan ham ajoyib narsa.

2. Gapiring. To‘g‘ri / noto‘g‘ri

1	Akmal Azizaning savoliga javob bermadi.	*	*
2	Aziza boshqotirma yechayotgan edi.	*	*
3	Aziza boshqotirma haqida hech narsa bilmaydi.	*	*
4	Boshqotirma juda zararli narsa.	*	*
5	Boshqotirmani Oybek o‘ylab topgan.	*	*

3. Boshqotirmani yeching.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 141 22/08/24 14:32

4. **O‘qing. Bilib oling.**

Boshqotirma yechishning beshta foydasi

1. Lug‘at boyligini oshiradi.
2. Stressdan xalos qiladi.
3. Xotirani yaxshilaydi.
4. Bilimni boyitadi.
5. Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Diqqat qiling! ***Kelmoq*** **yordamchi fe’li**

o‘yna~~moq~~+gi+... kel...		So‘roq	Bo‘lishsiz
Mening	o‘ynagim kel…	o‘ynagim kel…mi?	o‘ynagim kelma…
Sening	o‘ynaging kel…	o‘ynaging kel…mi?	o‘ynaging kelma…
Uning	o‘ynagisi kel…	o‘ynagisi kel…mi?	o‘ynagisi kelma…
Bizning	o‘ynagimiz kel…	o‘ynagimiz kel…mi?	o‘ynagimiz kelma…
Sizning	o‘ynagingiz kel…	o‘ynagingiz kel…mi?	o‘ynagingiz kelma…
Ularning	o‘ynagilari kel…	o‘ynagilari kel…mi?	o‘ynagilari kelma…



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 142 22/08/24 14:32

5. Rasmlarga qarang. Gaplar tuzing.

1. Menga Navoiy shahri juda yoqqan. (Mening) yana Navoiyga sayohat (qilmoq) kelyapti.
2. Odil Ahmedov – futbolchi. (Sening) u bilan (uchrashmoq) kelyaptimi?
3. Buvimni sog‘indik. (Bizning) ularnikiga (bormoq) kelyapti.
4. Havo juda isib ketdi. Sizning ham muzday suvda (cho‘milmoq) kelyaptimi?
5. U charchab qoldi. Menimcha, uning dam (olmoq) kelgan.











“Fanlar” boshqotirmasini tuzing. Maktabda o‘tiladigan fanlarning nomlaridan foydalaning.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 143 22/08/24 14:32

Mevalarni nega quritamiz?

1. O‘qing. Bilib oling.

Quritilgan meva-sabzavotlar qoqi deyiladi. Meva, sabzavot, poliz ekinlari va nondan qoqi qilinadi. Hatto go‘sht mahsulotlari ham quritiladi. Qoqi tayyorlash mahsulotlarni sifatli va uzoq muddatli saqlash usulidir.

Qoqilar haqidagi ilk ma’lumotlar qadimgi Mesopotamiyaga tegishli. Mesopotamiyaliklar qoqilarni sevib iste’mol qilganlar, chunki tabiblar qoqilarning ham to‘yimli, ham shifobaxsh ekanini yaxshi bilganlar.

Qoqi tabiiy va sun’iy usulda quritiladi. Tabiiy usulda oftobda yoki havoda, sun’iy usulda esa pechda yoki duxovkada quritiladi. Meva-sabzavotlarni quritish uchun maxsus shkaflar ham bor.

O‘zbekistonning uzum qoqisi – mayiz, o‘rik qoqisi – turshak butun dunyoda mashhurdir. Immunitetni mustahkamlashda mayizga teng keladigani yo‘q.

O‘zbekistonda mayiz va turshakdan tashqari xurmo qoqi, olma qoqi, qovun qoqi, anjir qoqi, tut qoqi, olxo‘ri qoqi va jiyda qoqi ham sevib iste’mol qilinadi.

sifatli
shifobaxsh
zararli
foydali
arzon
nordon
qoqi



2. Rasmlarga qarang. Yuqoridagi matn asosida fikr bildiring.



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 144 22/08/24 14:32

3. **O‘z javobingizni tanlang.**

Men nonushtada mayiz yeyman. Siz-chi?

- Men oshga solinganini yeyman.
- Asal va yong‘oq bilan aralashtirilganini yeyman.
- Men mayizli shirinliklarni yeyman.
- …

Men turshak sharbatini yaxshi ko‘raman. Siz-chi?

- Men turshakli yogurtni yaxshi ko‘raman.
- Men turshakli shirinliklarni yaxshi ko‘raman.
- Men turshakning o‘zini yaxshi ko‘raman.
- …

Diqqat qiling! Qiyosiy daraja: -roq.



bo‘sh qop

to‘laroq qop



bo‘shroq qop



to‘la qop

4. **Rasmlarni qiyoslang.**



katta uy



____ uy



kichik uy



____ yo‘l



to‘g‘ri yo‘l



egri yo‘l

5. **Quyidagi so‘zlar asosida gaplar tuzing.**

foydali, mazali, arzon, sun’iy, qimmat, quruq, ho‘l, zararli, achchiq, qora, taxir, sariq, yumshoq, qattiq, tabiiy, to‘yimli, shifobaxsh, nordon, bemaza.

Qoqilar foydali.



Qoqilar ho‘l emas.

6. **Tez ayting.**

1. Boqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.
2. Boqi quritdi qoqi, qoqini sotdi Soqi.
3. Turshakli sharbat shirinmi? Shirin sharbat turshaklimi?

Qoqilarning foydali xususiyatlarini bilib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 145 22/08/24 14:32

Dunyo tillari

1. O‘qing. Bilib oling.

Dunyoda 8 milliarddan ortiq kishi 7 mingdan ziyod tilda gaplashadi. Insonlar til orqali o‘zaro fikr almashadi, his-tuyg‘ularini bayon qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 6 ta tilni xalqaro til deb tan olgan. Ular ingliz, fransuz, arab, xitoy, rus va ispan tillaridir.



Ingliz tili 60 dan ortiq davlatda rasmiy til hisoblanib, 1,5 milliardga yaqin odam so‘zlashadi.



Rus tilida so‘zlashuvchilar soni 260 millionga yaqin bo‘lib, 20 ga yaqin davlatda shu tilda so‘zlashiladi.



Xitoy tilida so‘zlashuvchilar soni 1,3 milliard atrofida.



Ispan tili 20 dan ortiq mamlakatda rasmiy til hisoblanib, bu tilda so‘zlashuvchilar soni 550 milliondan ortiq.



Arab tilida 400 milliondan ortiq odam so‘zlashadi va u dunyodagi sinonimlarga boy tillardandir.



Fransuz tilida 320 milliondan ortiq odam so‘zlashadi.

2. Savollarga javob bering.

1. Dunyoda nechta xalqaro til bor? Ular qaysi tillar?
2. Qaysi tilda 320 milliondan ortiq odam so‘zlashadi?
3. Ispan tili nechta davlatda rasmiy til hisoblanadi?

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 146 22/08/24 14:32

3. O‘qing. Bilib oling.

1. Sof turkiy (o‘zbek) so‘zlarning asosi bir bo‘g‘inli bo‘ladi.
2. Yangi Gvineya aholisi deyarli 700 tilda muloqot qiladi.
3. Asl rus so‘zlari “a” harfidan boshlanmaydi degan qoida bor.
4. Ba’zi yozuvlarda tinish belgilari yo‘q.
5. “O” harfi eng qadimiy harf hisoblanadi.

4. Tursunboy Adashboyevning “Ona tilim” she’rini yod oling.

Buyuk Temur jahon bo‘ylab
O‘z dovrug‘in solgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan
Meros bo‘lib qolgan tilim.

Bobur Mirzo she’rlaridan
Rang va qiyos olgan tilim.
Shoh Mashrabni bulbuldayin
Sayratgan ham ona tilim.

Mirtemirni shoir qilib,
Yayratgan ham ona tilim
Shunday tildan tonar bo‘lsam,
Qiyma-qiyma bo‘lsin tilim.
Alla bo‘lib jaranglagan,
Ona tilim – jon-u dilim.

5. Quyidagi fikrlarga munosabatingizni bildiring.

1. Bugungi ma’lumotlar *yoqdi / yoqmadi.*
2. Yangi bilimlar *oldim / olmadim.*
3. O‘rganganlarim haqida *gapirib bera olaman / gapirib bera olmayman.*
4. Dars mavzusi *juda ajoyib / biroz zerikarli.*
5. Keyingi darsda ham uy vazifasini *bajarib kelaman / bajarishga vaqtim yo‘q.*

Istalgan bir davlatni tanlang va shu davlatning tili haqida qiziqarli matn tuzib, yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 147 22/08/24 14:32

Shifokor nega oq xalat kiyadi?

1. O‘qing.

Tibbiyot xodimlari oq xalat kiyishi kerakligi haqida XIX asrning ikkinchi yarmida gapirila boshlagan. Bundan oldin shifokorlar jarrohlik amaliyotida fartuk va qo‘lqopdan foydalanganlar. Oq xalatning zaruratini birinchi bo‘lib ingliz shifokori Jozef Lister ta’kidlagan.1918-yilda ispan grippi tarqalgan. Shundan so‘ng oq xalatlar doimiy kiyila boshlagan. Jarrohlarning oq kiyimida qon dog‘i bor-yo‘qligiga qarab ularning kasbiy mahorati baholangan.

Tibbiy xalatlarning rangi nima uchun qaymoqrang yoki och ko‘k rangda emas? Nima sababdan u oq rangda bo‘lishi kerak?

Ranglar nazariyasiga ko‘ra, har bir rangning o‘z ma’nosi bor. Oq rang – pokizalik va halollik ramzi. Bu rang odamni yaxshi ishlashga va to‘g‘ri fikrlashga chaqiradi.

Oq xalat kiygan shifokor bemorlarda ijobiy taassurot uyg‘otadi. Ularning shifokorga ishonchi ortadi. Shifokor esa oq xalatda bajarayotgan ishiga yana ham mas’uliyatli bo‘ladi. O‘z ishiga diqqatini yaxshiroq qaratadi. Xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiladi.




2. Savollarga javob bering.

1. XIX asrgacha jarrohlar qanday kiyingan?
2. Shifokorlar oq xalat kiyishi kerakligini birinchi bo‘lib kim ta’kidlagan?
3. Nima uchun ispan grippi tarqalganda shifokorlar oq xalat kiygan deb o‘ylaysiz?
4. Oq rang qanday ma’noni ifodalaydi?
5. Oq xalat shifokorlarga qanday ta’sir qiladi?

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 148 22/08/24 14:32

3. **Quyida berilgan so‘zlarni toping va ta’rif bering.**



4. **Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying.**

So‘zlar: *achchiqroq, ko‘proq, foydaliroq, yaxshiroq*

Shifokor: Bugun o‘g‘lingizning ahvoli kechagidan … . Ancha tuzalib qolibdi.

Ayol: Rahmat, doktor, kechagi tavsiyalaringizning barchasiga amal qildik. Ayting-chi, bu dorilarning qaysi biri …?

Shifokor: Siz tabiiy giyohlardan tayyorlangan choylardan ichirsangiz ham bo‘ladi. Bu dorilar esa … . Ularni ichishga o‘g‘lingiz qiynaladi.

Ayol: Giyohlarning ta’siri bulardan … mi?

Shifokor: Ha, bu giyohlarni ichib yursa, immuniteti ko‘tariladi. Bundan tashqari, sog‘lom turmush tarziga ham rioya qilishi kerak.

Ayol: Rahmat, albatta, aytganlaringizni bajaramiz.

Shifokor: Sog‘ bo‘linglar!

5. **Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.**



1. Rasmda qaysi shifokorlarni ko‘ryapsiz?
2. 3-rasmdagi shifokor nima ish qiladi? Nima uchun uning kiyimi yashil deb o‘ylaysiz?
3. Siz qaysi shifokor qabulida bo‘lgansiz?
4. Shifokor qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?

Yana qaysi kasb egalarining alohida formalari bo‘ladi? Shu haqida yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 149 22/08/24 14:32

Ta’tilda

1. **Tinglang.**

19



2. **Rasmlarga qarang. Fikr yuriting.**








1. Tengdoshlaringiz yozgi ta’tilni qanday o‘tkazmoqchi ekanini rasmlar asosida gapirib bering.
2. Yozgi ta’tilda yana qanday mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish mumkin?
3. Siz yozgi ta’tilda nima qilmoqchisiz?


56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 150 22/08/24 14:32


3. O‘qing. Bilib oling.

Yaponiyada o‘quv yili sakura daraxti gullagan paytda, ya’ni aprel oyida boshlanadi. Yozgi ta’til esa 20-iyuldan avgust oyining oxirigacha davom etadi. Yaponlar o‘quvchilarning dam olishi uchun olti hafta yetadi deb hisoblaydi. Ta’tilda ham bolalarning ko‘pi maktabga qatnaydi. Chunki dam olish kunlari o‘qituvchilar yoki qo‘shimcha taklif etilgan murabbiylar boshchiligida darslar tashkil qilinadi.

Ispaniya maktablarida o‘quv yili sentyabr oyi o‘rtalarida boshlanadi. O‘quv yili yakuni esa 20 – 23-iyunga to‘g‘ri keladi. Kichik ispaniyaliklarning yozgi ta’tili biroz qisqa. Ba’zi yoshlar ta’tilda vaqtini oila a’zolari, bobo va buvilari davrasida o‘tkazadi. Ispaniyada yozgi oromgohlar ko‘p. Ular so‘lim tog‘li hududda yoki suv bo‘yida joylashgan. U yerda maktab o‘quvchilariga milliy qo‘shiq va raqslar o‘rgatiladi. Ispaniyada raqsni, pazandachilikni o‘rgatadigan, badiiy yo‘nalishli oromgohlarga talab kuchli. Ispan bolalar tennisni yaxshi ko‘radilar. Ispaniyada yoshlarga chet tillarini o‘rgatadigan muassasalar juda ommabop. Ispaniyaliklar yozgi ta’tilda ham ko‘p o‘qiydilar.

4. Matn asosida rasmdagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.





5. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying.

Namuna: *“Quyoshcha” guruhining yasagan chodiri “Qaldirg‘och” guruhining chodiridan kattaroq.*

1. “Quyoshcha” guruhining yasagan chodiri “Qaldirg‘och” guruhining chodiridan…
2. Opam ta’tilda pazandalik kurslariga qatnaydi. U pishirgan ovqatlar menikidan …
3. Oybek ta’tilda suzishga boradi. U suzishda sinfdoshlaridan…
4. Biz dam olayotgan tog‘ havosi biroz …
5. Men oromgohdagi katta sirpanchiqda uchaman. Singlim esa … sirpanchiqda uchadi.

salqin
kichik
katta
shirin
tajribali

Ta’tildagi rejalaringiz haqida yozib keling.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 151 22/08/24 14:32

ADABIY O‘QISH: Kavsar Turdiyeva ijodi

YODLASAM BO‘LMASMIDI?

Shu kichkina she’rchani
Yodlasam bo‘lmasmidi?
Hozirgidek yuragim
Po‘killab urmas edi.
Mayli edi, shu damda
Kirib kelsa direktor
Va sochi o‘sganlarni
Urishsalar birma-bir.
Qani endi, nogahon
O‘ngidan kelsa tushim,
Xuddi tushimdagidek
Birdan yo‘qotsam hushim.
Jimgina najot kutib
Yotardim “Tez yordam”dan.
She’rni kim ham so‘rardi
Kasal yotgan odamdan?

Yoki birdan, baxtimga,
Vrachlar kirib kelsa,
Mayli edi, hammaga
Bittadan ukol qilsa.
Qani endi, shanbalik
Bo‘lib qolsa shu tobda,
Maza qilib ishlardik
Sof havoda, oftobda.
Yoki o‘qituvchimiz
Bizga rahm qilsalar,
Vazifani topshirib,
Uyga javob bersalar...
Xayolimni qo‘ng‘iroq
Chil-chil qilib tashladi.
O‘qituvchimiz kirib,
She’rni so‘ray boshladi...



56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 152 22/08/24 14:32

O‘zbek tili	Rus tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg‘iz tili	Qoraqalpoq tili
Mo‘jizalar yurti						
monument	монумент, памятник	естелік	ёдгорӣ	ýadygärlik	эстелик	estelik
Humo qushi	птица Хумо	Хумо құсы	паррандаи Ҳумо	Humaý guşy	Хума кушу	Qumay qusı
ozodlik	свобода	азаттық	озодӣ	azatlyk	азаттык	azatlıq
Yosh kitobxon						
ommalashtirmoq	популяризировать	енжайдыру	оммавӣ гардондан	giň ýaýmak	жайылтуу	enjaydırıw
fuqaro	гражданин	азамат	шаҳрванд	raýat	жаран	puqara
toifa	категория	дәреже	тоифа	kategoriýa	тайпа	dáreje
bosqich	этап	кезең	марҳила	etap, tapgyr	баскыч	basqısh
bellashmoq	соревноваться	белдесу	мусобиқа кардан	bäsleşmek	мелдешүү	bellesiw
Katta maqsadlar						
maqsad	цель	мақсат	мақсад	maksat	максат	maqset
orzu	мечта	арман	орзу	arzuw	арзуу	arzıw
uchmoq	летать	ұшу	парвоз кардан	uçmak	учуу	ushıw
amalga oshmoq	осуществиться	амалға асу	амалӣ шудан	amala aşmak	ишке ашуу	ámelge asırıw
mazmun	содержание	мазмұн	мазмун	mazmun	мазмун	mazmun
ega bo‘lmoq	обладать	ие болу	соҳиб шудан	eýe bolmak	ээ болуу	iye bolıw
Hukmdor bolalar						
so‘zsiz	без слов	сөзсіз	ҳатман	sözsüz	сөзсүз	sózsiz
bajarmoq	выполнять	орындау	иҷро кардан	ýerine ýetirmek	аткаруу	orınlaw
podshoh	царь, падишах	патша	подшоҳ	patyşa	падыша	patsha
hikoya	рассказ	әңгіме	ҳикоя	hekaýa	аңгеме	gúrriń
sulola	династия	әулет	сулола	dinastiýa	династия	úrim-putaq
hudud	территория	аймақ	ҳудуд	territoriýa	аймак	aymaq
hukmdor	правитель	билеуші	ҳукмдор	hökümdar	өкүмдар	húkimdar

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 154

O‘zbek tili	Rus tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg‘iz tili	Qoraqalpoq tili
Faqat g‘alaba						
turnir	турнир	турнир	зӯрозмой (рақобат)	turnir	турнир	turnir
muvaffaqiyat	успех	жетістік	муваффақият	üstünlik	ийгилик	jetiskenlik
terma jamoa	сборная команда	ұлттық құрама	тими миллӣ (ҷамоа)	saýlanan topar (komanda)	терме команда	saylandı komanda
g‘alaba qozonmoq	побеждать	жеңіске жету	ғалаба кардан	ýeňiş gazanmak	жеңишке жетишүү	jeńiske erisiw
atigi	всего лишь	тек	танҳо	diňe	гана	tek te
to‘qnashmoq	сталкиваться	соқтығысу	бархӯрдан	çaknyşmak	кагылышуу	soqlığısıw
muxlis	болельщик	жанкүйер	мухлис	muşdak	күйөрман	íshqıpaz
chorak final	четвертьфинал	тоқсандық финал	чорякфинал	çärýek final	чейрек финал	sherek final
Toshkent – televideniyening vatani						
ixtiro qilmoq	изобретать	жарату	кашф кардан	döretmek, oýlap tapmak	жаратуу, ачуу	jaratıw
rangli	цветной	түрлі-түсті	рангин	reňkli	түстүү	reńli
tomosha qilmoq	смотреть	көру	тамошо кардан	tomaşa etmek	көрүү	tamashalaw
tasvir	изображение	бейнелеу (сурет)	тасвир	surat, şekil	сүрөт	kórinis
Uch karra rekord sohibi						
boshqotirma	головоломка	басқатырғыш	муаммо	tapmaça	табышмак	basqatırma
musobaqa	соревнование	жарыс	мусобиқа	ýaryş	жарыш	jarıs
karra	раз	есе	маротиба	esse	эсе	ese
sodda	простой	қарапайым	содда	sada	жөнөкөй	ápiwayı
murakkab	сложный	күрделі	мураккаб	çylşyrymly	татаал	quramalı
mantiqiy fikrlash	логическое мышление	логикалық ойлау	тафаккури мантиқӣ	logiki pikirlenmek	логикалык ойлоо	logikalıq pikirlew
shug‘ullanmoq	заниматься	айналысу	машғул шудан	meşgullanmak	алектенүү	shuǵıllanıw
O‘zbeksitonlik alpinist						
cho‘qqi	вершина	шың	қулла	çür / çür depesi	чоку	shoqqı
tog‘	гора	тау	кӯҳ	dag	тоо	taw
zabt etmoq	покорять	жеңу	забт кардан	basyp almak	жеңип алуу	jawlap alıw
puxta	тщательно	мұқият	пухта, ҳаматарафа	pugta	кылдат	puqta
uddalamoq	справляться	басқару	ижро кардан	başarmak	колунан келүү	epley alıw
balandlik	высота	биіктік	баландӣ	beýiklik	бийиктик	biyiklik
matonat	мужество	табандылық	матонат, устуворӣ	mertlik	туруктуулук	mártlik

22/08/24 14:32

Qizlar akademiyasi

vayrona	развалина	қирау	хароба	heläkçilik, weýrançylyk	кыйроо	qarabaxana
qal'a	крепость	қамал	қалъа	gala	калаа	qorǵan
iqtidorli	талантливый	талантты	боистеъдод	zehinli	таланттуу	intalı
tanlamoq	выбирать	сұрыптап алу	якачин кардан	saýlamak	саралоо	saralaw
jang san'ati	боевое искусство	жекпе-жек өнері	санъати ҷанг	söweş sungaty	аскердик өнөр	urıs óneri
qurshamoq	окружить	қоршау	иҳота кардан	gurşamak	курчоо	qorshap alıw
ajdod	предок	ата-баба	ниёгон, аҷдод	ata-baba	ата-баба	ata-baba

Markaziy Osiyoda yagona

zamonaviy	современный	заманауи	муосир	döwrebap	заманбап	zamanagóy
mashhur	известный	танымал	машҳур	meşhur	таанымал, белгилүү	tanımalı
yagona	единственный	жалғыз	ягона	ýeke-täk	жападан-жалгыз	jalǵız
tajriba	опыт	тәжірибе	таҷриба	tejribe	тажрыйба	tájribe
teskari	противоположный	кері	баръакс	tersine	тескери	keri
hamohanglik	гармония	гармония	ҳамоҳангӣ	sazlaşyk	үндөштүк	sáykeslik
qiyofa	вид	көрініс	қиёфа, чеҳра	daşky görnüş	көрүнүш	sırtqı kórinisi
o'lcham	размер	өлшем	андоза	ölçeg	өлчөм	ólshem

Andijon polkasi

raqqos	танцор	биші	раққос	oýunçy	бийчи	oyınshı
bastakor	композитор	композитор	оҳангсоз	kompozitor	композитор	kompozitor
tomoshabin	зритель	көрермен	тамошобин	tomaşaçy	көрүүчү	tamashagóy
shiddatkor	быстрый	қарқынды	шиддатнок	joşgunly	интенсивдүү	kúshli
ijro etmoq	исполнять	орындау	иҷро кардан	ýerine ýetirmek	аткаруу	atqarıw

Changqovuz

suyak	кость	сүйек	устухон	süňk	сөөк	súyek
qamish	камыш	қамыс	қамиш	gamyş	камыш	qamıs
ko'rsatkich barmoq	указательный палец	көрсеткіш бармақ	ангушти ишоратӣ	görkeziji barmak	сөөмөй бармак	kórsetkish barmaq
qimirlatmoq	шевелить	қыймылдату	ҷунбондан	gymyldatmak	кыймылдатуу	qıymıldatıw
ohang	тон	тон	оҳанг	ton	тон	sesler uyǵınlığı
his-tuyg'u	чувство	сезім	эҳсосот	duýgy	сезим, туйгу	sezim-tuyǵı

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 156

O‘zbek tili	Rus tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg‘iz tili	Qoraqalpoq tili
Sangardak sharsharasi						
qishloq	село	ауыл	деҳа	oba	кыштак, айыл	awıl
sharshara	водопад	сарқырама	шаршара	şaglawuk	шаркыратма	sarqırama
qoya	скала	жар тас	харсанг, сахра	gaýa	аска	jar tas
jalb qilmoq	привлекать	тарту	ҷалб кардан	özüne çekmek	өзүнө тартуу	ózine tartıw
Nefrit ko‘li						
xushmanzara	красивый	көрініс	хушманзара	owadan	жакшы көрүнүш	sulıw
xushhavo	приятная погода	таза ауа	барҳаво	tämiz howa	таза аба	jag‘imli hawa
hech qachon	никогда	ешқашан	ҳеҷ гоҳ	hiç haçan	эч качан	hesh qashan
zumradsifat	как изумруд	зумрат сапа	мисли зумуррад	göwher sypatly	зымырат сымал	háwhar sıyaqlı
qimmatbaho	драгоценный	бағалы	қимматбаҳо, гаронбаҳо	gymmat baha	кымбат баалуу	qımbat bahalı
O‘zbek bog‘boni						
qishloq xo‘jaligi	сельское хозяйство	ауылшаруашылығы	хоҷагии қишлоқ	oba hojalygy	айыл чарбасы	awıl xojalıǵı
sershira	сладкий	шыралы	ширанок	şireli	ширелүү	shireli
uzumzor	виноградник	жүзімдік	ангурзор	üzümçilik	жүзүм бак	júzimzar
nav	сорт	сорт	намуд, навъ	sort	сорт	sort
mazali	вкусный	дәмді	болаззат	tagamly	даамдуу	mazalı
Qurut						
yegulik	еда	тамақ	хӯрокворӣ	iýmit	тамак-аш	azıqlıq
issiq iqlim	жаркий климат	ыстық климат	иқлими гарм	yssy klimat	ысык климат	ıssı klimat
qatiq	кефир	айран	ҷурғот	gatyk	айран	qatıq
suzma	сюзьма	сүзбе	чакка	çekize	сүзмө	súzbe
rayhon	базилик	райхан	райҳон	reýhan, ýalpyz	райкан	rayxan
murch	чёрный перец	бұрыш	мурч	burç	мурч	burısh
uskuna	оборудование	жабдық	таҷҳизот	enjam	жабдуу, шайман	úskene
ko‘rish qobiliyati	способность видеть	көру дәрежесі	қобилияти дидан	görmek ukyby	көрүү жөндөмдүүлүгү	kóriw qábileti
iste’mol qilmoq	потреблять	жеу	истеъмол кардан	iýmek	жеп ичүү	jew

22/08/24 14:32

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 157

Yosh turist

sayohat	путешествие	саяхат	саёҳат	saýahat	саякат	sayaxat
ilk	первый, ранний	алғашқы	аввал	ilki	тунгуч	tuńǵısh
maydon	площадь	майдан	майдон	meýdan	майдан	maydan
o‘z ko‘zim bilan	своими глазами	өз көзіммен	бо чашмони худам	öz gözüm bilen	өз көзүм менен	óz kózim menen

Yegan sari yeging kelar

novvoy	пекарь	наубай	нонпаз	çörek bişiriji	наабай	nanbay
non	хлеб	нан	нон	çörek	нан	nan
ta’m	вкус	дәм	таъм	tagam	даам	dám
eksport qilmoq	экспортировать	экспорт ету	экспорт кардан, содирот	eksport etmek	экспорт кылуу	eksport qılıw
saqlamoq	сохранить	сақтау	маҳфуз доштан	saklamak	сактоо	saqlaw
isrof bo‘lmoq	тратить понапрасну, растраченный	ысырап ету	исреф шудан	zaýalamak	коротуу	zaya bolıw
elamoq	просеивать	елеу	бехтан	elemek	элоо	elew
xamir	тесто	қамыр	хамир	hamyr	камыр	qamır

Anvarning hikoyasi

qutqaruvchi	спасатель	құтқарушы	наҷотбахш	halasgär	куткаруучу	qutqarıwshı
xavfli	опасный	қауіпті	хавфнок	howply	кооптуу	qáwipli
yordam bermoq	помогать	көмек беру	ёрӣ расондан	kömek bermek	жардам берүү	járdem beriw
bemor	пациент	науқас	бемор	kesel	оорулуу	nawqas
jarohat	рана	жарақат	ҷароҳат	şikes, ýara	жаракат	jaraqat
sezmoq	чувствовать	сезу	ҳис кардан	duýmak	сезүү	seziw

Qishloqda bir kun

hovli	двор	аула	ҳавлӣ	howly	короо	háwli
chorva	скот	шаруа	чорво	çarwaçylyk	чарба	sharwashılıq
parranda	птица	құс	парранда	guş	куш	qus
ishtaha	аппетит	тәбет	иштаҳа	işdä	аппетит	ishtey
sepmoq	сеять	себу	пошидан	sepmek	себүү	sebiw
sakramoq	прыгать	секреу	ҷаҳидан	bökmek	секирүү	sekiriw
g‘oz	гусь	ғаз	қоз	gaz	каз	ǵaz
bezovta qilmoq	беспокоить	мазасын алу	ноором кардан	biynjalyk etmek	тынчын алуу	tınıshsız qılıw

22/08/24 14:32

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 158

O‘zbek tili	Rus tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg‘iz tili	Qoraqalpoq tili
Hamkasblar						
shifokor	доктор	доктор	духтур	lukman	доктор	shıpaker
hamkasb	коллега	әріптес	ҳамкасб	kärdeş	кесиптеш	kásiples
tashxis qo‘ymoq	поставить диагноз	диагноз қою	ташхис гузоштан	diagnoz goýmak	диагноз коюу	diagnoz qoyıw
bemor	больной, пациент	науқас	бемор	kesel	оорулуу	nawqas
davolamoq	лечить	емдеу	табобат кардан	emlemek	дарылоо	emlew
Kalligrafiya						
yaratmoq	создавать	жарату	офаридан	döretmek, ýaratmak	жаратуу	jaratıw
qiziqmoq	интересоваться	қызығу	шавқманд будан	gyzyklanmak	кызыгуу	qızıǵıw
yorliq	этикетка	жарлық	тамға	ýarlyk	жарлык	jarlıq
guvohnoma	свидетельство	күәлік	шаҳодатнома, гувоҳнома	şahadatnama	күбөлүк	gúwalıq
tabriknoma	поздравительная открытка	құттықтау қағазы	табрикнома	gutlag haty	куттуктоо баракчасы	qutlıqlawnama
qoralama	черновик	қаралама	сиёҳнавис	garalama	каралама	qaralaw
nusxa	копия	копия	нусха	nusga	нуска	nusqa
jarohatlamoq	ранить	зиян жеткізу	осеб, ҷароҳат расонидан	ýaralamak	зыян жеткирүү	ziyan jetkeriw
Esdalik daftari						
to‘plamoq	собирать	топтау	ҷамъоварӣ кардан	toplamak	топтоо	toplaw
esdalik daftari	тетрадь воспоминаний	естелік дәптері	дафтари ёдбуд	ýadygärlik depderi	эстелик дептери	estelik dapter
xotira	память	жады	хотира	ýat, hatyra	эскерүү	yad
sahifa	страница	бет	саҳифа	sahypa	бет, барак	bet (kitap,qaǵaz)
bezak	украшение	безек	ороиш	bezeg	жасалга	bezek
qahramon	герой	қаһраман	қаҳрамон	gahryman	каарман	qaharman
avlod	поколение	әулет	авлод	nesil	муун	áwlad
saqlamoq	сохранить	сақтау	маҳфуз кардан	saklamak	сактоо	saqlaw
hujjatlashtirmoq	документировать	құжаттау	ҳуҷҷатгузорӣ	resmileşdirmek	документтештирүү	húǰjetlestiriw
Velosiped						
velosiped haydamoq	кататься на велосипеде	велосипед айдау	дучарха, велосипед рондан	welosiped sürmek	велосипед айдоо	velosiped aydaw
yurmoq	ходить	жүру	роҳ рафтан	ýöremek	жүрүү	júriw
dam olish kunlari	выходные	дем алу күні	рӯзҳои истироҳатӣ	dem alyş günleri	дем алуу күндөрү	dem alıs kúnleri
taklif	предложение	ұсыныс	таклиф, пешниҳод	teklip	сунуш	mirát

22/08/24 14:32

Maktabimizda bayram

faol	активный	активный	фаъол	işjeň	активдүү	belsendi
tanlov	выбор	таңдау	интихоб	saýlaw	тандоо	tańlaw
bayramona	праздничный	мейрамдық	идона	baýramçylyk	майрамдык	bayramday
bezatmoq	украшать	безету	оро додан	bezemek	жасалгалоо	bezew
aktyorlik mahorati	актёрское мастерство	актёрлық шеберлік	маҳорати актёрӣ	aktýorlyk ukyby	актёрлук чеберчилик	aktyorlıq sheberligi
bajarmoq	выполнять	орындау	иҷро кардан	ýerine ýetirmek	аткаруу	orınlaw
qatnashmoq	участвовать	қатысу	иштирок кардан	gatnaşmak	катышуу	qatnasıw

Dizayner bo‘laman

yorqin	яркий	жарқын	дурахшон	ýagty	ачык, жаркыраган	jarqın
kayfiyat	настроение	көңіл-күй	кайфият	keýp-sapa	маанай	keypiyat
yorug‘lik	свет	жарықтық	рӯшноӣ	ýagtylyk	жарыктык	jaqtılıq
shinam	комфортный	ыңғайлы	зебо, бароҳат	ykjam	ыңгайлуу, жайлуу	íqsham
interyer	интерьер	интерер	дохилӣ	interýer	интерьер	interyer
quvonch	радость	қуану	хушнудӣ	guwanç, şatlyk	кубаныч	quwanısh
ruhiyat	дух	психика	рӯҳ	ruhyýet	психика	ruwxıyat
xotirjamlik	спокойствие	жан тыныштығы	хотирҷамъӣ	rahatlyk, asudolyk	жан тынчтыгы	erkin

Aktyor bo‘laman

sahna	сцена	сахна	саҳна	sahna	сахна	saxna
hayajonlanmoq	волноваться	толқыну	ба ҳаяҷон омадан	tolgunmak	сүрдөнүү	tınıshsızlanıw
rol	роль	рөл	рол, нақш	rol	рол	ról
ijro etmoq	исполнять	орындау	иҷро кардан	ýerine ýetirmek	аткаруу	atqarıw
sehrgar	волшебник	сыйқыршы	сеҳргар	jadygöý	сыйкырчы	sıyqırshı
tayoqcha	палочка	таяқша	чӯбча	taýak	таякча	tayaqsha
boshlovchi	ведущий	бастаушы	баранда	alyp baryjy	баштоочу	baslawshı
o‘zini tutmoq	сдерживать себя	өзіні тұту	худро идора кардан	özüni tutmak	өзүн кармоо	ózin tutıw

Tejamkorlik

tejamkorlik	экономия	үнемдеу	сарфакорӣ	tygşytlamak	үнөмдөө	únemlew
oila byudjeti	семейный бюджет	жанұя бюджеті	буҷаи оила	maşgala býudjeti	үй-бүлө бюджети	shańaraq byudjeti
kommunal to‘lov	коммунальные платежи	коммуналдық төлем	пардохти коммуналӣ	kommunal tölegler	коммуналдык төлөө	kommunal tólem
birgalikda	вместе	бірге	дар якҷоягӣ	bilelikde	биргеликте	birgelikte
pul topmoq	зарабатывать деньги	ақша табу	пул кор кардан	pul tapmak	акча табуу	pul tabıw

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 160

O‘zbek tili	Rus tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg‘iz tili	Qoraqalpoq tili
Uyingiz qayerda?						
orqasida	сзади	артында	дар паси	arkasynda	аркасында	artında
chapda	слева	сол жақта	дар тарафи чап	çepde	сол жакта	shepte, solda
o‘ngda	справа	оң жақта	дар тарафи рост	sagda	оң жакта	ońda
yonidan	со стороны	жанынан	дар паҳлӯи	ýanyndan	жанында	janınan
Ekskursiya – 1						
qiziqarli	интересный	қызықты	завқовар	gyzykly	кызыктуу	qızıqlı
tuyaqush	страус	түйеқұс	шутурмурғ	düýeguş	төө куш	túyequs
taassurot	впечатление	әсер	таассурот	täsir	таасир	tásirler
tetik	бодрый	шаққан	чаққон	şähdaçyk	кайраттуу	tándar
Mevalarni nega quritamiz?						
sifatli	качественный	сапалы	босифат	hilli, sypatly	сапаттуу	sapalı
shifobaxsh	лечебный	емді	шифобахш	şypa beriji	айыктыруучу	emlik qásiyetke iye
zararli	вредный	зиян	зарарнок	zyýanly	зыяндуу	zıyanlı
foydali	полезный	пайдалы	фоиданок	peýdaly	пайдалуу	paydalı
arzon	дешёвый	арзан	арзон	arzan	арзан	arzan
nordon	кислый	қышқыл	турш	turşy	кычкыл	qıshqıl
qoqi	сухофрукт	қақы	қоқу	kak	как	qaq
Ta’tilda						
salqin	прохладный	салқын	салқин	salkyn	салкын	salqın
kichik	маленький	кіші	хурд	kiçi	кичи	kishi
katta	большой	үлкен	калон	uly	чоң	úlken
shirin	сладкий	тәтті	ширин	süýji	ширин	shiyrin
tajribali	опытный	тәжірибелі	таҷрибанок	tejribeli	тажрыйбалуу	tájriybeli

22/08/24 14:32

Mundarija

I bo‘lim

Mo‘jizalar yurti 4
Yosh kitobxon 6
Katta maqsadlar 8
Hukmdor bolalar 10
Faqat g‘alaba 12
Toshkent – televideniye vatani 15
Uch karra rekord sohibi 17
O‘zbekistonlik alpinist 19
O‘zbekistonlik 21
Qizlar akademiyasi 23
Respublika bolalar kutubxonasi 25
Markaziy Osiyoda yagona 27
Andijon polkasi 29
Changqovuz 31
Sangardak sharsharasi 33
Nefrit ko‘li 35
Mador somsa 37
O‘zbek bog‘boni 40
Qurut 42
Adabiy o‘qish: Abdulla Avloniy ijodi 44

II bo‘lim

Kelajakda men 45
Vatanimga xizmat qilaman 47
Yosh turist 49
Yegan sari yeging kelar 51
Anvarning hikoyasi 53
Ilhomning orzusi 56
Qishloqda bir kun 58
Hamkasblar 61
Kalligrafiya 63
Esdalik daftari 66
Velosiped 68
Maktabimizda bayram 70
Dizayner bo‘laman 73
Olamni ranglarda ko‘raman 75
Aktyor bo‘laman 78
Adabiy o‘qish: Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi 80

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 161 22/08/24 14:32

III bo‘lim

Vaqtni boshqarish 82
Tezkor javob 85
Ishbilarmon Hasan 87
Tejamkorlik 89
Animatsion filmlar 91
Uyingiz qayerda? 93
Internet do‘kon 95
Onlayn buyurtma 97
Himoya vositalari 99
Belgilar nima deydi? 101
Tug‘ilgan kun 103
Jamoat joylarida 105
Jamoat transporti 107
Muzeyda 109
Bog‘da 111
Maktabimiz oshxonasida 113
Kiyimlar 115
Kiyinish madaniyati 117
Kim nimani yaxshi ko‘radi? 119
Ijtimoiy tarmoq odobi 121
Adabiy o‘qish: Alisher Navoiy ijodi 123

IV bo‘lim

Uyqu qanday paydo bo‘ladi? 124
Fazogirlar kundaligi 126
Nimaga? 128
Gul o‘stirganmisiz? 130
Tabiat hodisalari 133
Ranglar yettitami? 135
Ekskursiya – 1 137
Ekskursiya – 2 139
Boshqotirma nima? 141
Mevalarni nega quritamiz? 144
Dunyo tillari 146
Shifokor nega oq xalat kiyadi? 148
Ta’tilda 150
Adabiy o‘qish: Kavsar Turdiyeva ijodi 152

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 162 22/08/24 14:32

O‘quv nashri

Namoz Rasulov, Donoxon Usmonova, Yulduzxon Hasanova

O‘zbek tili
5-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

“Novda Edutainment”
Toshkent – 2024

Muharrir:	*A. Haydarov*
Badiiy muharrir:	*M. Zaimbetov*
Musahhih:	*S. Abdurahmonov*
Rassomlar:	*H. Kadirov, D. Vetokhina, S. Sharapova, A. Kim, B. Nasriddinova*
Kompyuterda sahifalovchi:	*M. Zaimbetov*

Nashriyot litsenziyasi AI №158.
26.07.2024-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60×84/8. Kegli 12 n/shponli.
“Arial” garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Mashinada yengil bo‘rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m² qog‘oz.
Shartli b.t. 19,07. Hisob-nashriyot t. 15,94.
Adadi 135 931 nusxa. Buyurtma raqami 24-340.
“O‘zbekiston” NMIUda chop etildi.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 163 22/08/24 14:32

Darslik holati haqida ma’lumot

№	O‘quvchining F. I. O‘.	O‘quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o‘quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to‘ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a’lo darajada.
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko‘chmagan.
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba’zi sahifalari yirtilgan.
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to‘liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba’zi sahifalari yo‘q, bo‘yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas.

56 UZBEK LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 UZB 220x290 164PG 4.indd 164 22/08/24 14:32